

# **“ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI”**

**mavzusidagi Respublika  
ko’p tarmoqli, ilmiy  
KONFERENSIYA**

**#10**  
IYUN 2023



## TAHRIRIYAT A'ZOLARI

*Berdialiev A. f.f.d., prof.*  
*Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.*  
*Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.*  
*Babadjanova D. tarix.f.d., prof.*  
*Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.*  
*Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.*  
*Madumarov T.T. yur.f.d., prof.*  
*Mirzayeva C.P. fil.f.d., prof.*  
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*  
*Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.*  
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*  
*Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent*  
*Salayeva M.S. ped.f.d., prof.*  
*Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent*  
*Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent*  
*Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent*

*Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent*  
*Achilov N.K. fil.f.d., dotsent*  
*Imomova G.M. fil.f.n., dotsent*  
*Zakirova H.R. f.f.n., dotsent*  
*Tuhtahujjev H.B. ped.f.f.d., dotsent,*  
*TFA Akademik*  
*Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent*  
*Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent*  
*Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent*  
*Djuraeva M.Y. f.f.f.d.*  
*Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent*  
*Otadjanova M.O. f.f.d.*  
*Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Hasanov A.M. fil.f.f.d.*  
*Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent*  
*Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent*  
*Safarova U.A. fil.f.d., dotsent*

*Mas'ul kotib: M.Yusupov*

**THE JOURNAL OF  
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH  
ISSN: 2181-3558**

**ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA  
AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI  
№ 10-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA  
20-IYUN 2023-YIL**

**RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION,  
THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES  
10<sup>th</sup> REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE  
JUNE 20, 2023**



## ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ 6-8 КЛАССОВ

*Буранова Нилуфар Шавкатовна*

*Докторант 1 курса НамГУ*

При организации исследовательской деятельности в средней школе необходимо уделить внимание психическому развитию детей. Каждый возраст имеет особенности психологического развития.

По мнению Сергеевой И. И. в научном журнале «Молодой ученый», «исследовательская деятельность учащихся в школе должна быть как целенаправленная систематическая работа, которая включает все ступени образования: начальное образование; основное образование; полное образование». В начальной школе учитываются возрастные психолого-физиологические особенности детей младшего школьного возраста (6-10 лет). Исследовательская деятельность в этой категории детей находится на этапе становления, поэтому возникают некоторые особенности. «Специфика исследовательской деятельности младших школьников заключается в её многосубъектности. Кроме учащегося и его научного руководителя субъектом деятельности выступают родители, без поддержки и помощи которых занятия младших школьников исследовательской деятельностью значительно затрудняются», – пишет Сергеева И. И.

Подростковый возраст характеризуется периодом между младшим подростковым возрастом и взрослостью (молодостью). Ученые-исследователи дают разные возрастные рамки этого периода. Например, А. А. Смирнов выделяет старший подростковый возраст – 16-17 лет, а Л.С. Выготский характеризует такой возраст как пубертатный период (14-17 лет). Обухова Л. Ф. пишет, что подростковый возраст является образованием культуры, имеющим историческую и социальную обусловленность.

Согласно теории Ж. Пиаже, особенностью когнитивного развития подростка является развитие мышления на уровне формальных операции. Как отмечает Т. М. Урутина, в этот период мышление приобретает личностно-эмоциональный характер. На эмоциональное состояние подростка влияет множество различных факторов, в том числе, и переживания по поводу собственных возможностей, способностей и личных качеств. Также, по мнению Сергеевой И. И., исследовательскую деятельность учащихся в основной школе, в которую входят подростки в возрасте 11-15 лет, уместно

организовывать в группах, так как у подростка есть необходимость в освоении коммуникативных навыков.

Формирование исследовательской культуры обуславливается с учётом психолого-педагогических особенностей развития детей 11-15 лет, связанных с переходом от учебных действий, характерных для начальной школы, к овладению этой учебной деятельностью на ступени основной школы, характеризующиеся направленностью на самостоятельный познавательный поиск.

Переход учащегося в основную школу совпадает с кризисом младшего подросткового возраста 11-13 лет (5-7 классы), который характеризуется с началом перехода от детства к взрослости. «Центральным и специфическим новообразованием в личности подростка является возникновение и развитие у него самосознания – представления о том, что он уже не ребенок, т.е. чувство взрослости, а также внутренней переориентацией подростка с правил и ограничений, связанных с «моралью послушания», на нормы поведения взрослых» – пишет Сергеева И. И.

Савинов Е. С. говорит о том, что в возрасте 14-15 лет (8-9 классы) наблюдается бурный, скачкообразный характер развития, то есть за весьма короткий срок происходит качественное изменение прежних особенностей, интересов и отношений ребенка. У подростка появляются значительные субъективные трудности и переживания; стремление к общению и совместной деятельности со сверстниками; изменение социальной ситуации развития – рост информационных перегрузок и изменение характера и способа общения, а также социального взаимодействия – объем и способ получения информации (СМИ, телевидение, Интернет).

В подростковом возрасте характерны повышенная эмоциональность, конфликтность, частая смена настроений, проблемы в общении, максимализм. У многих учеников отсутствует мотивация к исследовательской деятельности. Однако именно в подростковом периоде формируется критическое мышление, стремление к самоутверждению, самоуважению, самореализации. Исходя из этого, в подростковом периоде сильными мотивами в учении являются внешние факторы: стремление найти свое место в коллективе, утвердить свою индивидуальность, реализовать свои способности и интересы. У многих подростков в этот период жизни возникает новый уровень самосознания, появляются потребности познать самого себя как личность с присущими ей качествами.

Если раньше задачей средней образовательной школы было вооружение учащихся знаниями, сформировать у них определенные умения и навыки, то

целью современной школы является выявление и развитие творческих способностей каждого ребенка, формирование личности, способных к самоопределению и самовыражению.

Дереклеева Н.И. говорит, что важным условием подготовки учащихся к исследовательской деятельности является организация в общеобразовательных учреждениях НОУ (научное общество учащихся), которые способствуют развитию интеллекта учащихся, с учетом индивидуальных особенностей и склонностей. Поддержание и развитие познавательного интереса учащихся реализуется в процессе участия школьников в олимпиадах, конкурсах, конференциях и т.д.

Мы считаем, что исследовательская деятельность должна быть направлена не только на повышение уровня знаний в определенных школьных предметах, но и представлять интерес для класса, школы и более широких слоев общества. Исследовательская деятельность должна быть организована таким образом, чтобы подростки в ходе своей творческой деятельности могли взаимодействовать с одноклассниками, педагогами и приобретали навык общения в своей индивидуальной работе и в группе.

Таким образом, можно сделать вывод, что подросток вполне самостоятельно может развивать свое внимание, память, воображение, а также мышление. В этом возрастном периоде приобретает способность к умственным экспериментам, к мысленному решению задач, формируется умение размышлять логически об абстрактных предметах, мысленно учитывать и соотносить одновременно несколько признаков и характеристик объекта на основе каких-то предположений. Важной особенностью сознания учащихся в этом возрасте является также потребность в доказательствах. Поэтому можно сказать, что подростки психологически готовы к исследовательской деятельности.

### Литература

1. Аксенова М. А. Психолого-педагогические особенности организации научно-исследовательской деятельности учащихся / М. А. Аксенова // Инновации в образовании. – 2015. – № 11. – С. 96-101.
2. Дереклеева Н.И. Научно-исследовательская работа в школе. - М.: Вербум-М, 2001. - 48 с.
3. Обухов А. С. Развитие исследовательской деятельности учащихся. – М.: Издательство «Прометей» МПГУ, 2006. – 224с.
4. Сергеева, И. И. Специфика исследовательской деятельности учащихся основной школы (5-9 классы). Молодой ученый. — 2012. — № 5 (40). — С. 498-501.

**DOREMA MICROCARPUM KOROV. (APIACEAE) ONTOGENEZI**

*Хасанов Сирожиддин Салойдин ўгли*  
*Наманган давлат Университети докторанти*

**Аннотация.** Мазкур маколада Соябонгулдошлар (Apiaceae) оиласига мансуб эндем усимлик *Dorema microcarpum* Korov. усимлигининг онтогенез даври боскичлари ва уларнинг тавсифи хакида маълумотлар берилган. Кузатишлар давомида усимликни гуллашгача булган даврини узок давом этиши унинг заифлик даражаси юкори булишига, бу эса уларни мухофаза килиш шартлардан бири эканлиги аникланди.

**Калит сузлар:** Онтогенез, вегетация, латент, виргинил, ювенил, имматур, генератив, субсенил, экологик, ценотик, онтогенетик.

Хозирги кунда Узбекистан Республикаси флорасини комплекс урганиш, доривор усимлик ресурсларини аниклаш ҳамда улардан окилона фойдаланиш, алохида ахамиятга эга булган ботаник худудларни аниклаш, истикболли ва иктисодий ахамиятга эга булган усимлик турларини икклимлаштиришнинг назарий асосларини ишлаб чиқиш, камёб усимликларнинг генетик маълумотлар банкини яратиш, усимлик дунёсининг камёб ва эндем турларини саклаб қолиш ва давлат кадастрини юритиш ҳамда илмий асосларини ишлаб чиқиш долзарб масалалар каторидан жой олган. Табиатга абиотик, биотик ва антропоген омиллар таъсири натижасида биологик хилма хиллик узгаришини белгиловчи мезонларида бири сифатида бахоланган эндем, камёб ва тор таркалиш ареалиги эга булган, миллий Кизил китобга киритилган турларни хар томонлама урганиш мухим ахамият касб этади.

Айниқса, ахоли куп истикомат киладиган минтакаларда сакланиб қолган табиий худудлардаги камёб ва тор таркалиш ареалиги эга булган турларни хар томонлама урганиш ва саклаб қолиш учун мухофаза чораларини ишлаб чиқиш зарурият курсатади. Шундай турлардан бири Соябонгулдошлар (Apiaceae) оиласи мансуб Майда мевали дорема -*Dorema microcarpum* Korovin. Туркум турлари қадимдан халқ табобатида фойдаланилиб келинади. Таркибида катрон ва эфир мойлари ҳамда ёпишкок катронлар мавжуд булиб, ёпишкок катрон таркибида (47% - 72%) смола, (11% - 26%) эфир ва (0,1% - 0,3%) эфир мойлари медицинада ва фармакологияда ишлатилади.

*Dorema D.Don* туркумининг дунё буйича 16 тури Урта Осиё, Кавказ, Эрон, ва Афғонистонда учрайди. Урта Осиёда 8 та. Узбекистонда эса Узбекистон Миллий гербарий фондида сакланаётган гербарий намуналарини тахлил қилиш натижасида туркумининг 2 тури *D.Sabulosum* Litv. ва

*D.microcarpum* Kogov. таркалганлиги маълум булди [3]. Ушбу тур Узбекистон Республикасининг Кизил китобига [4], (Пименов 2019) шунингдек, Узбекистондан ташкари Киргизистон Кизил китобига ҳам киритилган [5]. Макоми- ута камёб эндемик тур.

*D.microcarpum* Kogov куп йиллик, монокарпик, эфемероид, геофит усимлик. Усимликнинг уруги тук жигарранг, узунлиги 4-7 мм, эни 3-4 мм, овалсимон ёки узунчок шаклда булиб, бел кисмидан тор канотчасимон куринишдаги ковурга четлари- кучли сикилган. 1000 та уругнинг огирлиги 3,74,0 г. Уругнинг униттг кучи ва унувчанлиги паст булиб узок давом этади. Табiiй шароитда экилган 1000 дона уругининг унувчанлиги 50-60% булиб, майсаларнинг яшовчанлиги 0,02-0,05% ташкил этди. Кузатишлар шуни курсатдики табiiй шароитнинг узгарувчанлиги, хаво хароратининг кескин ортиши ва тупрок юза кисмини куриши майсалар илдизининг сувсизланиши натижасида нобуд булишга олиб келади.

Виргинил даври. Майса боскичи. Уруглар экилгандан 29 кундан кейин унинг униши кузатилди (V). Табiiй шароитда уругнинг униши феврал ойининг охири март ойининг бошига тугри келади. *D.microcarpum* Kogov уругининг униши ер устки, гипокотиляр типда булиб, асосий илдизнинг пайдо булишидан бошланади. Бу илдиз 5-6 см чукурликка етганда гипокотил иккита уругпалла баргларни ер устига олиб чиқади. Уруг пусти уругпалла баргларда 3-5 кун давомида сакланади кейинчалик уларнинг ажралиши натижасида пуст ташланади. Уругпалла барглар узунчок- ланцетсимон тук яшил рангли силлик куринишда булиб, уруг униб чиккан кундан 15-22 кун утгач узунлиги 20-25мм, эни 2-3мм га етади. Бу вақтга келиб, илдизлар узунлиги 7-10см га етади. Апрель ойининг урталарига келиб онтогенезнинг ювинил боскичида поя шакилланади ва унда бир баъзан иккита оддий бутун чюзинчок-ланцет шаклидаги барглар, узун (60-70 мм) банди билан уругпаллалар асосида хосил булган гилофнинг яримигача ботиб туради. Апрель ойининг охирига келиб уругпалла барглар узунлиги 35-40 мм эни 3,5 мм га етганда курийди. Уругпаллар гилофида бугим оралиглари жуда кискарган эпикотилда бир ёки иккита барг хосил булади. Шунни такидлаш жоизки, хаётнинг биринчи йилида табiiй холда ҳам суний шароитда ҳам факат битта чин барг камдан-кам холларда иккита барг хосил килади.

Биринчи барг фазасида гипокотил остида жойлашган асосий илдиз 1-2 та ён идиз хосил килади ва йугонлашиб шолгомсимон куринишдаги шаклни хосил кила бошлайди. Терминал куртак тупрока 5-8 см чукурга кириб борганда май ойининг урталарига келиб барглар курийди ва геофитлар учун хос тарзда келгуси йилнинг бахоригача тиним холатда булади.

*D.microcarpum* Korov. хаётининг биринчи йилдаги вегетация даври 65-75 кун давом этади.

Ювиниль даври ўсиш даврининг иккинчи йилдан бошлаб интенсив равишда илдиз ва барглари ривожланади. Биринчи барг феврал ойининг охири март ойининг бошида тупрокка кумилган кискарган вегетатив поядаги терминал куртакнинг моноподиал усишидан бошланади. Орадан 20-25 кун утгач айрим тупларда иккинчи барг ҳосил булади. Бу даврда барглари сезиларли даражада катталашиб узунлиги 10,1 см ва эни 8,3 см га етади. Шолгомсимон қуринишдаги илдизмева 18,0 - 20,0 см чуқурликка кириб боради ва куплаб эфемер илдизлар ҳосил қилади. Июнь ойининг урталарига келиб усимликнинг ер устки қисми тулик қуриydi ва барг бандларининг пастки қисми қалин толалар қуринишда илдизмеванинг юқори қисмидаги терминал куртакни ураб олган ҳолда сакланади. Вегетация даврининг иккинчи йили 100-110 кун давом этади.

Учинчи йилдан бошлаб барглари ва илдиз ҳажми шунингдек илдизнинг юқори бўйин қисми - ҳажмининг узғариши қузатилди. Онтогенезнинг имматур босқичи аниқ ифодаланмаган. Виргинил босқичда вегетатив новданинг моноподиал усиши давом этади. Тупрокка 10-20 см кумилган, бугим оралиглари кискарган узунлиги 1-2 см новда қонуси атрофида қуриган барг бандларининг толаларини сакдайдди.

Усимлик 7-9 ёшда генератив даврга қиради. Март ойининг бошида кунлар исиши билан терминал куртақдан бирин кетин иккита ярим розетка барг ҳосил булади. Барглари қулранг тусда бўлиб, қиррали, бутун ҳамда ярмигача қесилган кичик булакчаларга турт қарра патсимон шаклга бўлинган. Баргининг ҳар икки томони қиска тукчалар билан қопланган. Вегетациянинг бошланғич даврида баргларнинг усиш тезлиги юқори бўлиб апрель ойининг охирига келиб барглари тулик шақилланиб бўлганда узунлиги 28,0-32,0 см эни 25-30 смга етади ва усишдан тухтайди. Генератив новданинг қосил бўлишини бошланиши билан барглари айрим тупларда қисман, айримларида тулик қуриши яна бошқа тупларда ёппасига гунчалаш давригача сакданиши қузатиди. Май ойининг бошларида ярим розетка барглари гилофи орасидан учбурчаксимон қуринишдаги яшил барглари билан қопланган ер усти ортотроп, монокарп генератив новда қосил булади. Бу даврда генератив новда сезиларли даражада сутка давомида 1-2 см усади. Генератив новдани усиш даврида дастлаб ҳали бир-биридан ажралмаган 4-5 та яшил учбурчаксимон баргларнинг гилофи ривожланаётган тупгулни ураб йирик “яшил гунча” қуринишни қосил қилади. Айрим ҳолларда учки

куртакнинг зарарланиши натижасида 2-4 та генератив новда косил булишига карамай моноподия тартиби сакланиши кузатилди.

Генератив новданинг усиши ва бугим ораликлари ажралиши баробарида бирин кетин поядаги гилофли барглар пасдан юкорига караб ажрала бошлайди. Гилофли баргларнинг узунлиги 5-8 см, эни 0,9-1,5 см ташкил этиб тупгул шохланишини 3-4 бугимдан бошлаб кескин редуцияланади ва гуллаш даврига келиб тулик курийди. Май ойининг охирига келиб генератив новданинг баландлиги 40-50 смга етганда ундан биринчи тартибдаги ён шох-паракладия косил булади. Генератив новданинг сутка давомида 4-5 см усиши май ойининг охири июнь ойининг бошларида розетка баргларнинг куриш вақтига тугри келади ва аксинча июнь ойининг урталарида ёппасига гуллаш даврига келиб баландлиги 100-120 смга етганда усишдан тухтайди. Генератив новдадаги бугимлар сони (15-17) ни ташкил этиб, дастлабки (1-4) бугим ораликлари бир хил узунликда (10-12 см), кейинги (5-17) бугим ораликлари киска (3-7 см) ни ташкил этади. Генератив даврга утган тупларда битта шолгомсимон йугонлашган 2-3 ён илдизли илдизмева мевалашдан кейин курийди.

*D.microcarpum* Korov усимлиги онтогенези боскичларини урганиш натижасида куйдаги характерли белгиларни курсатиш мумкин: поянинг усиш ривожланишига кура ярим розеткали усимликларга мансуб булиб, поянинг усиши уч фазали цикл: куртак-розеткали поя - франдиоз - брактеоз типдаги генератив нода. Онтогенезнинг ювинил ва виргинил бокичлари узок давом этиши; имматур боскичи аник ифодаланмаганлиги; онтогенезни тулик барча даврларида моноподиал усиши; онтогенезнинг биринчи йили оддий баргдан, иккинчи йили уч булакли, кейинчалик вояга етганда ва генератив даврда мураккаб турт карра патсимон баргни косил булиш томонга узгариши гетерофилияни узида акс эттиради; утган 7-9 йиллар давомида розетка барглар косил килади ва озука моддаларни шолгомсимон илдизмевада туплайди, киска усиш даврида генератив новда (100-120 см), тупгул хамда мул хосил уруг хосил килади; усимликни гуллашгача булган даврини узок давом этиши унинг заифлик даражаси юкори булишига, бу эса уларни мухофаза килиш шартлардан бири хисобланади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Атлас лекарственных растений СССР/ Гл.ред.акад. Н.В.Цинин. М.: Медгиз, 1962. С.14-16. 702 с.
2. Акбарова М.Х., Жураев З.Н. «Распространение видов рода *Scutellaria* L. (Lamiaceae) во флоре Ферганской долины». *JournalNX*, 2020, стр. 73-78.

3. Акбарова М. Х. и др. Оценка состояния ценотических популяций *Scutellaria comosa* Juz. (Lamiaceae) Ферганской долины // Рациональное природопользование-основа устойчивого развития. - 2020. - С. 12-17.
4. Акбарова М. Х., Жураев З. Н. У. Состояние ценопопуляций *Scutellaria adenostegia* Briq. (Lamiaceae) в Ферганской долине // Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. P.34-40
5. Давидов М. А. Биология цветения и плодоношения *Amaranthus cruentis* L. и *A. Hybridus* L. в условиях Узбекистана. - 2000.
6. Пименов М.Г. Род *Dorema* D.Don. Определитель растений Средней Азии. - Ташкент : Фан. 1983. Т. VII С.314-315.
7. Коровин Е.П. Род *Dorema* D.Don. Флора Узбекистан. - Ташкент: 1959 . Т. IV. С.443-444.
8. Тургинов О.Т., Акбарова М.Х. Распространение видовой флоры рода *Scutellaria* L. (Lamiaceae) Ферганской долины // American Journal of Plant Sciences. - 2020. - Т. 11. - С. 1533-1544.

### ЗАМОНАВИЙ ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ ШАРОИТИДА РЕСТОРАН ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ ОШИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ- ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ

*Зиявитдинов Ҳабибулло Ҳамидович*

*Бухоро Давлат Университети*

*таънч докторанти*

**Аннотация.** Ушбу тадқиқотнинг мақсади иқтисодийнинг инновацион ривожланиши шароитида ресторан бизнесидаги тадбиркорлик тузилмаларининг фаолияти ва миллий иқтисодийга таъсирини ўрганиш ва ресторан хизматлари сифатини оширишга оид тавсиялар ишлаб чиқишдир.

**Калит сўзлар:** ресторан хизматлари, хизматлар сифати, глобаллашув, тенденция, компонент.

Мамлакатимизда умумий овқатланиш корхоналари сонининг ошиб бориши билан бирга, ушбу корхоналарда кўрсатилаётган хизматларга талаб ҳам узлуксиз ўсиб бормоқда. Умумий овқатланиш корхоналарида кўрсатилаётган хизматларни янада кенгайтириш ва ривожлантириш, истеъмолчилар талабларидан келиб чиққан ҳолда ва унга мувофиқ равишда ташкил этиш муҳим аҳамиятга эгадир. Овқатланиш хизматларини тақдим этаётган хўжалик субъектлари фаолиятини ривожлантиришга инновацион ёндашиш бугунги куннинг талаби ҳисобланади.

Тадбиркорлик тузилмаларининг ушбу соҳадаги функционал юкининг кенгайиши глобаллашув жараёнларининг таъсири, иқтисодий жараёнга технологик, ахборот, бошқарув инновацияларини жорий этиш имкониятларининг пайдо бўлиши ва натижада уларнинг инвестицион жозибадорлигининг ўсиши билан боғлиқ. Шуниндек, ташқи ишбилармонлик муҳитининг динамиклиги кескин рақобатни, ресторан бизнесида тадбиркорлик тузилмаларининг яшаши ва ҳаётлийлиги учун шароитларни келтириб чиқаради.

Иқтисодиётнинг хизмат кўрсатиш соҳасининг бир қисми сифатида ресторан бизнесининг бундай жадал ривожланиши ва глобаллашуви икки гуруҳ омиллар билан боғлиқ.

Биринчи гуруҳга шартли равишда жаҳон иқтисодий муҳитининг ҳозирги тенденцияларини белгиловчи омилларни киритиш мумкин. Буларга қуйидагилар киради :

1. Истеъмолчиларнинг дидини ва уларнинг эҳтиёжларини бир хиллаштириш: «ҳамма жойда ҳамма нарса тобора ўхшаш бўлиб бормоқда, чунки афзалликнинг глобал тузилиши барқарор равишда бир хиллаштирилади». Бир хил бўлган эҳтиёжни қондирадиган ва глобал миқёсда бўладиган хизматнинг типик мисоли, стандарт сифатида маҳаллий бозор хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ихтисослашувга эга бўлиши мумкин бўлган тез овқатланиш хизматидир. Масалан, McДоналдс ресторанидаги таомнинг маълум бир мамлакатдаги имтиёзлар ва урф-одатларга қараб ўзгариши.

2. Глобал истеъмолчилар сонининг ўсиши. Трансмиллий корпорацияларнинг пайдо бўлиши, шунингдек, сўнгги ярим асрда таътил вақтининг деярли тўрт баравар кўпайиши ўз уйида кўникиб қолган ҳар қандай мамлакатда хизматларни олишни кутадиган «глобал» истеъмолчининг шаклланиши учун шароит яратди.

3. Глобал ахборот каналлари. Интернет сабабли истеъмолчи маълум бир мамлакатдаги қизиқиш нуқтасида олиши мумкин бўлган хизматлар рўйхати ва сифати ҳақида хабардор бўлади; ўз навбатида, хизмат кўрсатувчи компаниялар ўз хизматларини янада самаралироқ сотишлари мумкин.

4. Глобал миқёсдаги ижобий тежамкорлик. Хизмат кўрсатиш соҳасида ва шунга мос равишда ресторан бизнесида унинг сегментларидан бири сифатида ишлаб чиқариш кўламининг ижобий тежамкорликка эришишнинг асосий тўсиғи бу талабнинг асосий қисми географик жиҳатдан тарқоқ бўлишидир, бу эса ўз навбатида маҳаллийлаштирилган йирик

бизнесни яратишни имконини пасайтиради. Шу муносабат билан бизнес ўсишининг асосий йўналиши тармоқ ресторан тузилмаларини яратишдир.

5. Қулай логистик хизматлар. Одамларни ва юкларни ташиш харажатлари доимий равишда пасайиб бормоқда, бу эса турли мамлакатлардан келган одамлар учун маълум хизматлардан фойдаланишни осонлаштиради..

6. Давлат сиёсати. Баъзи мамлакатлар маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни ҳимоя қилиш ёки савдо балансини яхшилаш учун чеклов чораларини қўлламоқда. Бироқ, умумий тенденция хизматларнинг глобаллашувига олиб келадиган тўсиқларни олиб ташлашга қаратилган.

7. Ўтказиш мумкин бўлган рақобат устунлиги. Товарлардан фарқли ўлароқ, хизматларни патентлаш мумкин эмас, яъни улар қонуний равишда нусха кўчиришдан ҳимояланмаган. Шу муносабат билан, хизмат кўрсатиш соҳасида ноу-хауга эга компаниялар бозор майдонини эгаллаш орқали уни такрорлашга интилишади, бу амалда тармоқ тузилмаларини яратиш орқали амалга оширилади.

Ресторан бизнесининг ривожланишига ва унинг глобаллашувига бевосита таъсир қилувчи омилларнинг иккинчи гуруҳига истеъмолчиларнинг хатти-ҳаракатларини белгиловчи омиллар, яъни мотивлар ва сабаблар киради..

Инсонни ресторан хизматларининг истеъмолчиси бўлишга ундайдиган асосий сабаблар қуйидагилардир :

- ✓ жисмоний - дам олиш, саломатликни сақлаш, ўйин-кулги, психологик дам олиш зарурати;
- ✓ маданий - янгиликларни ўрганиш истаги (фольклор, мусиқа, санъат, рақс, расм, дин, табиат);
- ✓ шахслараро - одатий ҳаётдан «қочиш» истаги, дўстлар, қариндошлар, янги танишлар орттириш истаги ва бошқалар.;
- ✓ престиж - ўз ижтимоий мавқеини яхшилаш истаги (обрў-эътибор, эътирофга бўлган эҳтиёж, шунингдек, бошқа одамларнинг кўпроқ эътиборини талаб қилиш, хизматга кўра баҳоланиш истаги).

Шундай қилиб, замонавий бизнес шароитлари ресторан бизнесида тадбиркорлик тузилмаларини ривожлантириш ва уларнинг иқтисодий, ташаббускор ва ижтимоий функцияларни бажариши учун янги талабларни белгилайди. Бундан ташқари, глобаллашаётган дунёда уларнинг ижтимоий функционал юкига устуворлик берилаяпти.

Шу муносабат билан ресторан бизнесини учта компонентнинг бирлигида кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир:

1) iqtisodiy funktsiyasi moddiy manfaat olish va restoran biznesi tomonidan yaratilgan yuqori mahsulotning qoʻshilgan qiymatini oshirishni taʼminlashdan iborat boʻlgan mustaqil tadbirkorlik subʼyektlari majmua sifatida;

2) infratuzilmalarni qoʻllab-quvvatlash elementi sifatida iqtisodiy va ijtimoiy funktsiyalarni bajarish orqali boshqa tegishli tarmoqlarning oʻsishiga qoʻllab-quvvatlash;

3) aholini ish bilan taʼminlash muammosini hal qilish, jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuviga qoʻllab-quvvatlash, biznesning ijtimoiy masʼuliyatini oshirish, xalqaro doirada mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish orqali ijtimoiy funktsiyalarni amalga oshirishni taʼminlaydigan ijtimoiy institut sifatida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аванесова Г.А. Сервисная деятельность: историческая и современная практика, предпринимательство, менеджмент: учеб. пособие для-вузов / Г.А. Аванесова. – М.: Аспект Пресс, 2004. - 318 с.

2. Дегтярева Н.М., Пипко Е.Г. Управление качеством в условиях конкуренции. – Тольятти: ПТИС, 1999. – С.211.

3. Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление качеством: Учебник.- М.: Высшая школа, 2007;

## SHOYIM BO‘TAYEV HIKOYALARIDA DAVR VA QAHRAMON MASALASI

*Xolmatov Doston Abdujabbor o‘g‘li*

*Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada yozuvchi Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida davr va qahramon masalasi, hikoyalaridagi davr va ijtimoiy muhit sotsiologik metod asosida, qahramon ruhiyati esa psixologik tahlil metodi orqali tahlil qilindi.

**Tayanch so‘zlar:** ijod kayfiyati, syudjet, ijtimoiy muhit, milliylik, kontrast tasvir, davr va qahramon

**Keywords:** creativity, system, social environment, nationality, contrasting image, period and hero

**Ключевые слова:** творчество, система, социальная среда, национальность, контрастный образ, период и герой

**Kirish.** Adabiyot olami misoli bir ummon. Bu ummondan har bir yozuvchi o‘zining istedodi qadar dur-u javohirlarini teradi. Ummon qa‘ridagi dur-u javohirlar misoli so‘zlarning sarasini ipga marjondek terib, ulardan badiiy asarni yaratish esa

juda oson ish emas. Buning uchun avvalo, Alloh bergan chinakam iste'dod hamda Adabiyotshunoslikka doir yetarli ilm bo'lishi kerak. Ana shunday o'ziga xos istedod sohibi bo'lgan Shoyim Bo'tayev bugungi kun adabiyotshunosligida o'z o'rniga ega yozuvchilardan desak xato bo'lmaydi. Sh.Bo'tayevning *"Dunyoning sarhisobi bor"*, undan so'ng *"Endi bari boshqacha"* hikoyalar to'plami chop etilgan. *"Kunbotardagi bog"* qissasi asosida *"Bog"* deb nomlangan yetti qismli videofilm yaratilgan. Bundan tashqari yozuvchining *"Shox"* romani ham ko'pchilik kitobxonlarning nazariga tushib ulgurdi.

Asosiy qism. Sh.Bo'tayev ayniqsa hikoya janrida ham barakali ijod qilayotgan yozuvchilardan. Muallif hikoylarida o'zbek xalqiga xos milliy ruh, soddalik va samimiyat nafasi ufurib turadi. Hikoyalarida qahramonning faqat dard-u hasratga to'la holatlaridan ko'ra hayotdagi turli xil insonlarga xos xarakter real voqealar asosida tasvirlanadi. Yozuvchining *"Qarz"* nomli hikoyasida birgina talaba obrazi orqali butun bir qishloq odamlariga xos soddalik, samimiylik kabi xislatlar ochib beriladi. Talaba yigitning birinchi marta ko'rib turgan Anatoliy(Tolik) ismli yigitga bir so'raganidan qarz berib yuborishi soddalikning belgisi. Tolik bu shu qishloqda yashovchi urushda qatnashib, o'sha yoqda rus ayoliga uylangan Usmon ismli kishining farzandi. Ammo Usmon o'zga yurtida uzoq yashaolmay xotini va bolalarini tashab, ancha yillar ilgari o'z yurtiga qaytib kelgan. Anatoliy esa vaqti voyasiga yetgach o'z otasini izlab shu qishloqqa keladi. Tojivoyning Tolik bilan tanishishi va o'sha zahotiyoyoq vino ichish uchun qarz so'raganda talaba bo'lishiga qaramay qarz berish jarayonlari tasvirlangan. Ammo shu choqqacha barcha Tolikka shubha nazari bilan qaraydi. Uni qanaqadir jinoyat qilib qo'ygan va shuning uchun o'zga yurtdan qochib otasini izlab kelgan degan mish-mishlar tarqatishadi. Ammo Tolik alal-oqibat qarzini uzadi. Bir qarashda jo'ngina bo'lib tuyulgan hikoya g'oyasida faqatgina Tojivoy ismli talaba yigitning Tolikka qarz berishi nazarda tutilmagan. Bu yerda ba'zi odamlarning bir insonning asl maqsadini bilmay turib, bo'lar-bo'lmas uni g'iybat qilib, turli xil malomat toshlarini yog'dirganligi ham ko'rishimiz mumkin.

Shoyim Bo'tayev asarlaridagi raviy kesatiq, pichinga usta. U sho'ro davridagi rasmiy, siyoqqa munosabatlarni o'rniga qo'yib tasvirlaydi. Bir o'rinda *"bo'yniga bo'yinbog' bog'langan xiradmand"* ning qilmish qidirmishlari bo'yinbog'ga nisbatan tasvir etiladi. Adibning *"Qora tuman"* hikoyasida ijtimoiy muhit, mustamlaka davriga xos *"tumanli"* kayfiyat ham Xolbo'ta obrazi tilidan aytilgan *"qora tuman, qora tuman.."* deya takror so'zlar qa'riga singdirib tasvirlanadi. Asardagi Xolbo'ta, Saidmurod ponsod, Zokir lakot obrazi mustamlaka davri ijtimoiy muhit odamlari. Hikoyaning nomlanishida ham ramziy ma'noni uqishingiz mumkin. *"Qora bulut"* sarlavhasi orqali o'zbek xalqi

osmonidagi salkam bir asrlik, qora tumanli kunlar birgina shu nom ostiga olingandek go‘yo.

Sh.Bo‘tayeving “Yolg‘iz odam” hikoyasini o‘qir ekansiz, undagi Zulun obrazining ichki kechinmalari, dard-u hasratlari tasvirini ko‘rishingiz mumkin. Hikoyaning boshida Zulunni o‘n ikki yosh bola bo‘lgan holida qirq yashar odamlarga tenglashtiriladi. Onasining bemorligi, hayotning turli xil qiyinchiliklariyu, achchiq-chuchuk lahzalari go‘yoki o‘n ikki yosh bolani muddatidan oldin ulg‘aytirib qo‘ygandek. Bemor onasini ko‘rish uchun kelgan hamshiraning o‘zi bilan birga olib kelgan qizchasi Zulunning hayolida najot farishtasi, yupatuvchi, taskin beruvchi qiyofada saqlanib qoladi. Yillar o‘tib farzandli bo‘lib, hayot qozonida qaynab yurgan pallalarida ham ushbu nigoh hamon ko‘z oldidan ketmaydi. Ayniqsa, doim “uyda go‘sht qolmaganli-yu, turmushidan noliyveradigan” xotini uga bo‘lgan qo‘pol munosabatlari ich-etini yeb bitiradi. Garchi ko‘nglidagi bu alamlarini birovga ayta olmasa-da, uning xatti-harakatlarida, o‘y-hayollarida unga tinchlik bermaydi. Natijada unda na hayotga bo‘lgan qiziqish na ertangi kunga umid bor. Faqatgina hamon o‘sha hayolidagi najotkor va yu[atuvchi farishta timsolidagi qizchagina unga taskin berayotgandek tuyulaveradi. Ushbu hikoya orqali insonning hayoti faqat moddiy narsalarga bog‘lanib qolmasligi, insonlar bir-birlariga ruhiy jihatdan dalda bera oladigan bir yupanch bo‘lishi kerakligini xulosa qilish mumkin, chamamda.

Yozuvchining o‘zi o‘ylagan, ko‘nglidan o‘tkazgan his-tuyg‘ulari o‘z asarlariga undagi obrazlarga ko‘chadi. Bu asarlarni qanday tahlil qilish. Undan qanday xulosa chiqarish har bir kitobxonning o‘ziga bog‘liq. Chunki har bir inson o‘zgacha biro lam, takrorlanmas taqdiorlardan iborat. Zero, Tanqidchi Belinskiy aytganidek, adabiyot bu- «xalq fikrining so‘nggi va oliy ifodasi»dir. Adabiyot ijtimoiy ongning shakllaridan yoki sohalaridan biridir. Shu bilan birga, xalq fikrining o‘ziga xos bir ifodasidir.

Xulosa. Shoyim Bo‘tayeving o‘z ijodiy uslubiga, o‘ziga xos ovozga va sozga ega. Uning ijodi milliy nasrchiligimizning eng yaxshi an‘analarini jahon nasrchiligi yutuqlari bilan omuxta tarzda ifoda etishda namoyon bo‘lmoqda. Xuddi shu jihatdan uning hikoyalari e‘tiborga loyiqdir. Garchi hikoyalarda qishloq kishilari hayoti, orzu-intilishlari haqida hikoya qilsa-da, aslida xalqimiz ma‘naviyatiga xos milliy ildizlar, manbalar va hamisha yashovchan samarali an‘analarni ham ko‘z-ko‘z qiladi.

Ayniqsa, qishloq kishilariga xos fe‘l-atvor, samimiy va beg‘ubor tuyg‘ular nihoyatda go‘zal va shirali tilda, oddiy, aniq va ravon tasvirlanadi. Shular asarga joziba bag‘ishlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar

1. SH.Bo'tayev. Hayot. Sharq 2000.
2. Q.Yo'ldoshev "Yoniq so'z" Toshkent. 2006-y.
3. Q.Yo'ldoshev "Badiiy asar tahlili metodikasi" Toshkent. 2005-y.
4. B.To'xliyev "Adabiyot o'qitish metodikasi" Toshkent. 2008-y.
5. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)
6. [www.vikipe.uz](http://www.vikipe.uz)
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com)

## БЎЛАЖАК ПЕДАГОГНИ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ТАЙЁРЛАШ МУАММОЛАРИ

*Каримова Нилуфар Худайбердиевна*

*Ўзбекистон Давлат Жахон Тиллари Университети  
Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси*

**Аннотация.** Педагогик жараён қатнашчилари ўртасидаги муносабатларга демократик ва инсонпарвар тус бериш заруриятини педагогик жамоатчилик томонидан англаниши ёш мутахассисларнинг мослашиши масалаларини янгича ҳал қилишни ўрганади.

**Калит сўзлар:** педагог, педагогик жараён, касбий-педагогик фаолият, ўқитувчи, педагогик муомала.

Таъкидлаш керакки, таълимнинг инсонпарварлик қоидаларини амалга ошириш объектив ва субъектив хусусиятга эга муайян қийинчиликлар билан боғлиқ. Объектив қийинчиликлар орасида муомалани ташкил қилишга ўқитувчиларни анъанавий тайёрлаш масаласи ҳам бор. Мактабда шахслар аро муносабатларга инсонпарвар тус беришда ўқитувчи ролининг ортиши касбий-педагогик фаолиятга талабаларнинг мослашишини такомиллаштириш зарурлигини тақозо қилади.

Ўқитувчининг касбий шаклланишида олий таълим ҳал қилувчи рол ўйнайди, унинг мақсадларидан бири касбий-педагогик фаолиятга талабаларни мослаштиришдан иборат.

Ёш мутахассиснинг мослашиши муаммолари педагогика фанида турли жиҳатлардан ўрганилган. М.П.Будякина, Э.Р.Зеер, Г.И.Мельникова, Л.М.Растова, А.Д.Розенберг, А.А.Русалинованинг ишларида ёш мутахассисларнинг мослашиши назарияси ва амалиёти изчил баён қилинган. И.А.Милославов, А.В.Сахно, М.А.Славин, М.И.Скубляя, С.В.Овдей эса ижтимоий мослашишнинг турли хилларини кўриб чиққан. Таълим соҳасида ёш мутахассиснинг касбий оёққа туришининг ижтимоий-педагогик ва

психологик асослари С.Г.Вершловский, Ю.Н.Кулюткин, Л.Н.Лесохина, А.К.Маркова, Г.С.Сухобской, К.Г.Тротт, Р.М.Шерайзина ва бошқаларниг тадқиқотларида очиб берилган. О.А.Абдуллина, Н.Ф.Гоноболин, П.А.Жильцов, Г.В.Кондратьева, Н.В.Кузьмина, В.А.Сластенин, М.И.Скублий, М.Н.Падаяс ва бошқаларнинг ишларида ёш педагогнинг касбий-педагогик мослашиши босиқчлари. даражалари, шартлари кўриб чиқилган. Ўқитувчиларни касбий-педагогик тайёрлашни такомиллаштириш масалалари О.А.Абдуллина, И.Ф.Исаев, В.А.Кан-Калик, Н.В.Кузьмина, В.А.Сластенин, Л.Ф.Спирин, А.И.Шербаков ва бошқаларнинг ишларида очиб берилган. Уларда олий педагогик таълимнинг мақсади, вазифаси, мазмуни асослаб берилган, касбий-педагогик тайёрлаш тизими таҳлил қилинган. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашга янгича ёндошишлар Е.Г.Белозерцев, А.А.Вербицкий, В.С.Гершунский, В.И.Загвязинский, А.Я.Найн, М.М.Поташник, Н.М.Яковлева ва бошқаларнинг ишларида очиб берилган. Мазкур ишларда инсонпарвар педагогика ғояларининг мактабдаги ўқув-тарбия жараёнига жорий қилиниши натижаси бўлган шахслараро муносабатларнинг ўзгариши билан боғлиқ бўлажак педагогни касбий-педагогик тайёрлашга жиддий эътибор берилган.

Айни пайтда талабаларни олий ўқув юртларида касбга тайёрлаш даврида уларни касбий-педагогик фаолиятга мослаштириш махсус тадқиқ қилинган ишлар етарли эмас.

Олий ўқув юртларида шароитида касбий-педагогик фаолиятга талабани мослаштиришнинг ўрганилишини қуйидаги катор сабаблар тақозо қилади:

- педагогик касбга абитуриентлар мотивациясининг пастлиги;
- ижтимоий-иқтисодий ва касбий-педагогик шароитлар ўзгариши ва уларга шахснинг мослашиши жараёни суръатларининг номутаносиблиги;
- педагогика олий ўқув юртларида битирувчиларидан инновацион фаолиятга йўналишни, шахсий ўзига хосликларини замонавий мактаб талабларига мослаштиришни ва мана шу асосда субъект-субъект билан муносабатларнинг инсонпарварлик усулларини ишлаб чиқишни талаб қиладиган янги типдаги ўқув юртларининг Россияда пайдо бўлиши;
- мактабда шахслараро муносабатлар инсонпарвар тус олишида ўқитувчининг роли ортиши билан.

Мазкур сабаблар олий ўқув юртларида талабаларни касбий-педагогик тайёрлашни такомиллаштиришни талаб қилади.

Касбий-педагогик тайёргарликка талабалар ва ўқитувчиларнинг мослашиши муаммоларини тадқиқ қилганлар уларни ҳам ташқи, ҳам ички шартлар билан боғлайдилар. Лекин уларнинг ҳеч бири касбий-педагогик

фаолиятга талабалар мослашишига педагогик муомаланинг таъсирини тадқиқотнинг асосий мавзуси қилиб олмаган. Касбий-педагогик фаолиятга талабалар мослашишининг кўрсатилган жиҳат бўйича тадқиқ қилишнинг зарурлиги мактабдаги, шунингдек олий ўқув юртларидаги педагогик жараённинг қатнашчиларида муомалани ташкил қилишда анъанавий андозалар устунлик қилиши билан боғлиқ.

Шундай қилиб, педагогик муомаланинг анъанавий тизими ва ижтимоий-педагогик сабаблар гуруҳининг қадриятлари ўртасида зиддият бор, бу зиддият педагогик муомалани замонавий педагогик олий ўқув юртларида шароитларида касбий-педагогик фаолиятга талабаларни мослаштириш омили сифатида қарашни талаб қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Вершловский С.Г. Психолого-педагогические проблемы деятельности молодого учителя. - Л.: Знание, 1983. - 32 с.
2. Воспитание и профессиональная подготовка молодежи / Под ред. М.Е. Дуранова. - Магнитогорск: МГПИ, 1994. - 86 с.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология/ Под ред. В.В.Давыдова. М.: Педагогика, 1991.-480 с.
4. М.: Педагогика, 1991.-480 с.
5. Гальперин П.Я. Введение в психологию. - М.: Изд-во МГУ, 1976.

## **INTELLEKTIDA NUQSONI BO‘LGAN BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA GEOMETRIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING KORREKSION-PEDAGOGIK TEKNOLOGIYASI**

*N.Abidova*

*TDPU Oligofrenopedagogika kafedrasi PhD dots v\ b*

*N.Raximova*

*1-kurs magistri*

Maxsus ta'lim tizimida matematika va texnologiya fanlararo bog'lanishlar ta'limiy vazifasi o'quv faniga oid tushunchalarni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi, fanlar orasidagi bog'lanishlarni va umumiy tushunchalarni o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ta'limiy tajriba- sinov jarayonida o'qitish usullarini tanlash uning fanlararo mazmuni, korreksion-rivojlantiruvchi yo'naltirilganligi, intellektida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinflar o'quvchilarining psixofiziologik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'ldi.

Konstruksiyalash 1-sinf o'quvchilari tomonidan bo'lingan model bo'yicha, 2-sinfda bo'linmagan model bo'yicha amalga oshirildi. O'qituvchi eng oddiy konstruktiv vazifalarni taklif qildi. Masalan, "Stul" modelining namunasini o'rganishda (1-sinf, 3-chorak) o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida kollektiv jamoaviy tahlil jarayonida tanish geometrik jismlarni aniqladilar va taklif etilayotganlari orasida o'xshash detallarni topdilar. Ikkinchi sinfda bo'linmagan namunaga ko'ra, bu ish xuddi shu tarzda amalga oshirildi. Bolalar kerakli qismlarni tanlab olishdi va ulardan namunani ko'paytirish uchun foydalandilar.

Turli xil geometrik shakldagi qismlar turli xil materiallardan yasalgan:

- ✓ qog'oz bilan ishlashda - hosil bo'lgan tasavvurlarni o'zlarining tasavvurlariga binoan boshqa shakl olish (egish, kesish, chiziqlar chizib ajratish, burchaklarni yumaloqlash bilan doiralarni kesib olish);
- ✓ hajmli shakllarni tasavvurga ko'ra yasash va ularni boshqa shakllarga aylantirish (shar yasash va undan stol yuzasida qirralarni tekislash orqali kub olish va boshqalar), tabiiy materiallardan shakllarni tanlash va o'zgartirish (plastilin qo'shib g'uddadan sharsimon shaklni olish);
- ✓ mavjud bo'lgan shakllarni birlashtirish orqali tekislikdagi va hajmli shakllarni olish (uchburchaklar birlashtirib kvadratlar, ikkita

Ilgari, bolalarda turli xil analizatorlar yordamida buyumning eng to'liq tasviri yaratilgan ( tayyorgarlik bosqichida ular tabiiy ob'ektni ko'rib chiqqanlar, uni model bilan taqqoslaganlar, mushak bilan tekshirganlar). Qismlarni tanlash va tayyorlashdan so'ng o'quvchilar o'qituvchining rahbarligida yo'naltiruvchi savollaridan foydalangan holda buyumning modelini konstruksiyalashgan. Amaliy ishlarni bajarishni tashkil qilishning variantlari turli edi: unga to'liq o'xshash buyum namunaga muvofiq tayyorlangan; buyum ba'zi qismlarning turli xil ranglari yoki o'lchamlarini o'zgartirgan holda tayyorlangan.

Konstruksiyalash elementlari har bir darsga kiritilgan. 1-sinfning 1 va 2-choraklaridagi applikasiya ishlari bundan mustasno edi, chunki bu bosqichda bolalarda geometrik shakllarning tasvirlari yomon shakllangan, ularni amalda qanday qo'lga kiritishni bilishmaydi. 1-sinfning 2-choragidan boshlab o'quvchilar buyumlarning qismlarini qog'ozni bukish va kesish, shakllarni birlashtirish, yasash va boshqalar yordamida tayyorlashgan. Masalan, 1-sinfda "Uycha" applikasiyasini bajarish uchun 2-chorakda xuddi shunday shakldagi (kvadrat) qismlarni tayyorlash uchun taklif qilingan. O'quvchilar shakllarni egib, ulardan to'g'ri to'rtburchak va uchburchak shaklidagi qismlarni olishlari kerak edi. Tabiiy materiallar bilan ishlashda konstruksiyalash elementlaridan ham foydalanilgan. Zarur turkumdagi shakllarni olish uchun tayoqchalar plastilin bilan bog'langan ( masalan, "Bahor" kompozitsiyasi uchun to'rtburchaklar shaklida "Oyna" yasash, "Oltin baliq ertagi"

uchun kompozitsiyada kulba yasash uchun novdalarni burchak ostida birlashtirish). Aniqroq sharsimon shaklni olish uchun yong'oqlar va g'uddalar plastilin bilan birlashtirilgan (g'uddalardan ayiqcha boshini yasash ).

Texnologiya darsida yasash usullari geometrik materialni takrorlash, mustahkamlash va tizimlashtirishda qo'llanildi. Masalan, "Geometrik shakllar" bo'limi bo'yicha umumlashtirish darsida 1-sinf o'quvchilari turli xil materiallardan geometrik shakllarni olishning barcha amaliy usullarini qo'llashgan (yasash, qog'ozni buklash, chiziqlar o'tkazish orqali shakllarni qismlarga bo'lish, ikkita shaklni). Matematika darslarida geometrik shakllar va chizma-o'lchov asboblari yordamida ishlash usullari bilan dastlabki tanishish bo'lib o'tdi. Texnologiya darsida ular amaliy faoliyatga kiritilib, aniqlashtirilgan va mustahkamlangan. Matematika darsida o'qituvchi bolalarga geometrik shakl (shar) nomini namoyish etib, uni ("Bu - shar") deb nomladi, turli xil materiallardan tayyorlangan har xil rang va o'lchamdagi sharlarning modellarini namoyish etdi. O'quvchilarga tarqatma materiallar (turli xil rang va o'lchamdagi plastmassa va yog'ochdan yasalgan sharlar) topshirildi.

O'qituvchining iltimosiga binoan bolalar ularni qo'llariga olishdi, ushlab ko'rishdi, ko'rib chiqishdi, stol ustida yumalatib ko'rishdi. Bunda, bolalar e'tibori rang va o'lchamidan qat'i nazar, ushbu modellarning barchasi sharlar ekanligiga qaratildi ("Sharlarni qo'lingizga oling. Ularni taqqoslang. Ularning kattaligi qanaqa? Ranglari qanaqa? Barcha shakllar rangi va o'lchamlari bilan farq qiladi, lekin ular bir xil shaklda. Bu shakllarning barchasi - sharlar"). O'quvchilar turli xil materiallardan turli xil rang va o'lchamdagi sharlarni tarqatma materiallar sifatida oldilar. Bolalar ularni ushlab ko'rdilar, ularning atrofida barmoqlarini aylantirdilar, stol ustida yumalatdilar.

O'quvchilar o'qituvchi tomonidan taklif qilingan bir nechta shakllar (sharlar, kublar) orasida sharlarni shakl ("Xuddi shunday shakllarning barchasini tanlang") bo'yicha ajratib olish, har bir tanlangan shaklni nomlash ("Bu - shar") ni mashq qildilar. Sharlar bolalar tomonidan nomi bo'yicha tanlangan ("Ushbu shakllar orasidan barcha sharlarni tanlang!"). Dastlab mashqlarni bajarishda namuna bilan bir xil rang va o'lchamdagi sharlardan foydalanilgan, so'ngra ular boshqa turdagilari bilan almashtirilgan. O'qituvchi ko'rsatmalariga binoan amaliy ishlar olib borildi. ("Sharni qanday yumalayotganimni ko'ring. Plastilinni qo'lingizga oling. Yumalatib shar yasang. Plastilinning kattaroq bo'lagini oling. Yumalatib shar yasang. Uni birinchi shar bilan taqqoslang. Uning kattaligi qanday? Rangi-chi? Biz qanday shaklni yasadik? Sharlarni yumalating. Ularning barchasi rang va kattaligi bilan farq qiladi, lekin bir xil yumalaydi").

Agar tekislikdagi shakl (doira) o'rganilayotgan bo'lsa, bolalar daftarda uning konturini chizdilar, shtrixlashdi, ichki qismini bo'yashdi. Shakllar konturlari plastilindan yasalgan, simlardan egib yasalgan.

Keyinchalik matematika darsida atrofda buyumlarda o'rganilgan shakllarni ajratib ko'rsatish uchun juda ko'p sonli mashqlardan foydalanilgan ("Bu shakl qanday nomlanadi? Stoldagi narsalarni ko'rib chiqing (apelsin, olma, pomidor, 2 ta kub shaklidagi quti va 1 ta brusga o'xshash quti). Shunday shakldagi jismlarni nomlang (shar modeli). Sharga o'xshash jismlarni nomlang. Sinfdagi sharga o'xshash jismlarni toping. Ularni nomlang. Yana qanday sharga o'xshash jismlarni bilasiz?"). Shu maqsadda, masalan, doira bilan tanishishda O'qituvchi tomonidan maxsus tanlangan jismlardan (yassi likopcha, nishon, dumaloq pechene va boshqalar), sinfdagi buyumlardan (shamchiroqlar, panno va boshqalar), bolalarning kundalik hayotida uchraydigan buyumlardan (maktab oldidagi o'yin maydonchasi, dumaloq shakldagi oyna va boshqalar) foydalanilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Astapov V.M. Deti s narusheniyami v razvitiya. – M.: Mejdunarodnaya ped. akad. 1995. - 307 s.
2. Ayupova M. Logopediya. – T.: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati", 2007. - 600 b. 63-b.
3. Antonov N.P. va boshqalar. Elementar matematika masalalari to'plami. - T.: "O'qituvchi", 1975. - 456 b.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: "TDPU", 2003. - 175 b.
5. Aytmetova S.Sh. Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanishining xususiyati. - T.: "O'qituvchi", 1984. - 118.b.
6. Bedor Ye. Razvitie prostranstvennogo voobrajeniya uchashixsya vspomogatelnoy shkolı v protsesse trudovoy deyatelnosti // Defektologiya. - 2011. -№ 2. -s. 6 - 9.

### **AVLODLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Ochilova Farida Baxriddinovna*  
*Samarqand davlat universiteti doktoranti*

Tadqiqot maqsadi. Respublikamizda yosh avlodni tarbiyalashda alohida e'tibor berish yanada kuchaymoqda, bolalarning har tomonlama etuk bo'lishida ta'lim-tarbiya tizimi hamda oilada ota-onalarning mas'ulligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda. Turli yosh davrlarida bolaning

shaxsiy xususiyatlari shakllanishida oilada turli avlod vakillarining o‘zaro munosabatlari bola shaxsiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shu sababli oilada avlodlararo munosabatlarini tadbiq etish masalalari dolzarbligi bilan hozirgi davr psixologlarini ilmiy izlanishlarini amalga oshirishga muhim jihatlarini ko‘rilmogda.

Materiallar va usullar.

Oila insonlarning eng qadimiy birliklaridan biridir. Oila sinflar, xalqlar va davlatlardan ancha oldin paydo bo‘lgan. Oilaning ijtimoiy muhimligi va unga bo‘lgan qiziqishning so‘nmasligi, avvalo, oilaning hayotni – inson zotini ishlab chiqarish, farzandlarni tarbiyalash, inson ehtiyojlarini eng qulay shaklda qondirilishiga asoslanadi. Oila nikoh, qarindoshlik, ma‘naviy, iqtisodiy, huquqiy munosabatlar asosida insonlarni birlashtiruvchi jamiyatning kichik bir bo‘lagidir. Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Insonning dunyoga kelishi yangi avlodning paydo bo‘lishi – avlodlar almashinuvi asosan oilada sodir bo‘ladi. Farzand tug‘ilib, kamolga yetib, shaxs sifatida shakllanishiga qadar lozim bo‘lgan barcha ta‘lim-tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-onasi, qarindosh urug‘iga, qariyalarga, umuman atrof muhitga bo‘lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi.[1]

Oila yuqoridagi eng muhim funksional vazifalarni amalga oshiruvchi jamiyatning muhim bo‘g‘ini snalar ekan, unda yashayotgan va avloddan avlodga “tashiychi”, “etkazuvchi” vazifalarni amalga oshiruvchi avlod vakillarining oldida katta mas‘uliyatli faoliyatni amalga oshirish xarakatlari nazarda tutiladi. Nafaqat avloddan avlodga etkazilayotgan an‘ana qadriyatlar balkim psixologik individual xususiyatlarning ham namoyon bo‘lishi sayqallanadi va etkaziladi. Oilada farzandlar va katta vlod vakillari bilan bir-bibrini tushunish ruxiy qo‘llab quvvatlashga qaratilgan treninglar va davra suxbatlarini o‘tkazish jarayonida shu narsa aniqlandiki, o‘zaro munosabatlar negizi aynan xar bir oilaning o‘z oilalaridagi ko‘p qo‘llanilgan va an‘ana tarziga aylangan munosabatlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar va munozaralar.

Oilada bola shakllanar ekan oiladagi xar avlod vakillaridan katta mas‘uliyta talab etilishi lozim. Sababiki oiladagi o‘zaro munosabatdagi psixologik iqlim bola ruxiyatiga katta ta‘sirini ko‘rsatadi. Bolaga oiladagi munasabatlar namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Eng muhimi, bobo va buvilar nevaralarini tarbiyalashda ustun mavqe ota-onaga tegishli ekanligini tushunishlari kerak. Ota-onalarimiz uchun biz doimo bolalar bo‘lib qolamiz, hatto o‘zimiz ota-onalar bo‘lsak ham, ular ko‘pincha hamma narsani bizdan yaxshiroq bilamiz va biz uchun ba‘zi muhim masalalarni, shu

jumladan tarbiya bilan bog'liq masalalarni hal qila olamiz deb o'ylashadi. Ularga bu sizning farzandlaringiz ekanligini tushuntirish lozim va siz ularni qanday tarbiyalashni kelishish va bir xillik usullarini tanlash muhimdir.

Agar o'zaro munosabatlarda muammolar yuzaga kelsa, kattalar ularni o'zaro hal qilishlari kerak. Bunga bolani jalb qilish yoki aralashtirish bola shaxsini shakllanishida salbiy ruhiy buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin, chunki bunday vaziyatlarda u kattalarning harakatlariga muvofiq ishlaydi. Ota-onalar tashabbusni o'z zimmalariga olishlari va ota-onalarning umumiy strategiyasini ota-bobolari bilan muhokama qilishlari maqsadga muvofiqdir. Oilada ota-ona va katta avlod vakillarining nusabat qurilishlari bir-biriga zid ko'rinishlarda bo'lmasligi lozim..

“Innovaciya” atamasining texnik-texnologik yangiliklarni joriy etish sohasida qo'llanilishida keyinchalik kirib kelishi kuzatilgan. Mazkur atamaning mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki, har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa, o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtidan boshlab yangi sifat – innovatsiya (yangilikni joriy etish)ga aylanadi.

“Innovaciya” tushunchasi birinchi marta XX asr boshlarida xorijlik madaniyatshunoslar ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lgan va qo'llanilgan bo'lib, bir madaniyatning ayrim elementlarining boshqasiga joriy etilishini bildirgan. “Innovaciya” atamasi lotincha —”innovato” so'zidan olingan bo'lib, yangilash va yaxshilash degan ma'noni anglatadi. Umumiy mazmunda mazkur atama odamlar tomonidan, asosan, ayni paytda va muayyan vaqtda yangi deb qabul qilingan madaniyatning moddiy yoki nomoddiy qadr-qiyamati sifatida tushunilgan.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda yoshlarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelinganligi ma'lum. Bunday usul yoshlarda mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermasligi aniq. Innovაციyalarining qudrati jamiyat turmush-tarzi, salomatligini himoyalash, ilmiy salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu munosabat bilan innovაციyalardan keng va samarali foydalanish O'zbekiston davlati uchun bugungi kunda o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va rivojlantirish, xususan, korxonalar darajasida zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yishda uning ahamiyati yanada yuqori baholanadi.

Mamlakatimizda innovaciya loyihalarini amalga oshirish mustaqillik yillaridan boshlab yangi rivojlanish tarixiga ega bo'lib kelmoqda, natijada har yili mahalliy xom ashyolarni qayta ishlash asosida jahon bozoriga raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan innovaciya loyihalari ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim institutlari kafedralari, ilmiy bo'limlari olimlari tomonidan bajarilmoqda. Innovaciya loyihalarini amalga oshirish xorijiy ekspertlar ishtirokida xalqaro anjumanlarda sinovdan o'tkazilmoqda.

Yuqoridagilar asosida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- jamiyatda “innovaciya” va “innovacion faoliyat” tushunchalarini mazmun va mohiyatini anglashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan

qurollantirish ko'lamini kengaytirish;

- yangi qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning mazmun va mohiyatini

omмага etkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish;

- Yangi O'zbekiston qurishning asosini bilimlarga asoslangan innovacion iqtisodiyot tashkil etilishini nazarda tutgan holda, barcha sohalarni rivojlantirishda innovacion faoliyatga urg'u berish.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonuni. O'RQ-630-son.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 23.09.2020 yil O'RQ- 637-son.
3. Innovatsi: teoriya, mexanizm, gosudarstvennoe regulirovanie: Uchebn. Posobie /Pod red. Yu.V. Yakovtsa. – M.: RAGS, 2000.
4. Ishmuxammedov R.J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari”. Toshkent: 2000 y
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tizimida-innovatsion-texnologiyalardan-dars-jarayonida-foydalanish>

### PRAGMATIC REFERENCE

*Bekmanova Sayyora*

*Department of Romano-Germanic Philology,  
Urgench State University*

**Annotation.** In this paper, we explore the term of reference in pragmatics. We will analyze definitions of reference given by different linguists and analyze them. Based on them, at the end of this work, we will give conclusions on the role of reference in pragmalinguistics.

**Keywords:** pragmatics, pragmalinguistics, reference, inference, semiotics

Pragmatics is one of the most vibrant and rapidly growing fields in linguistics and the philosophy of language. It is a particularly complex subject with all kinds of disciplinary influences and few, if any, clear boundaries (Yan, 2016, p. 1).

Tutik, R, N. defines pragmatics as it is a sub-field of linguistics and semiotics which studies the ways in which context contributes to meaning. Unlike semantics,

which examines meaning that is conventional or "coded" in a given language, pragmatics studies how the transmission of meaning depends not only on structural and linguistic knowledge (e.g., grammar, lexicon, etc.) of the speaker and listener, but also on the context of the utterance, any pre-existing knowledge about those involved, the inferred intent of the speaker, and other factors. In this respect, pragmatics explains how language users are able to overcome apparent ambiguity, since meaning relies on the manner, place, time etc. of an utterance.

Speaker and listener are cooperating to reach same understanding during their act of communication, decoding expressions, word choices and links (between one word to others) which been utilized to describe something. And the cooperative understanding will only happen when they both successfully gain mutual interpretation of what is expressed. Word itself doesn't originally refer to something, but human do. One utilized word will not always represent a denotative meaning of it since humans' opinion takes significant role of what actually being referred, a meaning behind the meaning (Muhammad, 2018, p. 1).

In Cambridge Dictionary reference is defined as the act of mentioning someone or something in speech or writing, and a writer or a book, article, etc. that is mentioned in a piece of writing, showing you where particular information was found.

Studies in pragmatics have revealed that we rely on context when we speak or write, especially when we make reference to something or we talk about things (Aboh and Uduk, 2016; Emike, 2015; John, 2013, 2014; Barbara, 2000; Hidayat, 2016). One fundamental feature of human language is that we are able to talk about things we can see in our immediate environment or things that are abstract or imaginable (Ariel, 2008). The essence of human language is the way utterances relate to things or facts around us (Sullivan, 2012; Yule, 2002). However, this assertion cannot be said to be true or false because it is not every linguistic sign that has a corresponding object in the real world (Carlson, 2006). Verbs or prepositions which indicate doings and states do not have direct references. Words or phrases that usually depict references are demonstratives and indexical words (Grundy, 2000). Wangatiah, Ongarora & Matu (2016) observe that speakers and writers often use one thing to refer to another thing and expect their listeners and readers to make a relationship between the two things. In some instances, some references do not actually refer to anything or anyone at all even though they are meaningful when examined semantically (Odebunmi, 2006, 2008). For instance, if you say, 'I like the tall man,' you may be referring to a specific tall man on the one hand or an unspecified tall man on the other hand, but semantically there is no

specific person mentioned because there are numerous tall men in the world (Olusegun, 2020).

Mey (2001) gave the explanation of the pragmatic term “reference” as following:

Let's suppose I'm in a foreign country, sitting in my hotel room at night. There is a knock at the door. I didn't open the door, but asked: 'Who's there?' The visitor answers: 'It's me.' Now, what do I do? Basically, there are two possibilities. Either I recognize the visitor's voice, and then I can decide whether or not to open the door. Or I don't, and then I'm in a quandary. What can I do with a voice that refers to a 'me', when I don't know who that 'me' is? Since a 'me' always refers to an 'I', and every 'I' is a 'speaking me', the utterance 'It's me,' is always and necessarily true, and hence totally uninformative, when it comes to establishing a speaker's identity. In more technical terms, there is no known referent for 'me' by virtue of the linguistic expression me itself: of the referent of a 'deictic' word such as 'me' changes with the person uttering it.

Muhammad (2018) made a literature review in his article “Reference and Inference in English Pragmatics”: “Yule (1997) defined it as an action in which communicator utilizes a linguistic forms in order to direct listeners into identification of something. Sullivan (in Allan & Jaszczolt, 2012) described it as the relation that obtains between as use of linguistic expression and what it stands for or denotes. Russel (in Allan & Jaszczolt, 2012) differentiated between reference and denotation. As reference is specific and mainstream link between an expression, referent or role; referring is simply labelling or tagging something. Meanwhile according to him- denotation is a unique link between expression and something, with a satisfying specific condition and semantically well-expressed. Strawson (1950) challenged this theory by emphasizing that referring is not done by the expression, but it is a thing that can be utilized by human to do.”

If referring is to be regarded as an action that requires the hearer to pragmatically identify the referent of a description, then it is important to describe how it is that the speaker and hearer know what pragmatic identification means in a given situation (Appelt, 1987). Reference and inference is a concept on how meanings are expressed by speaker through linguistic expressions and later being inferred (interpreted) by the listeners. The expressions used to deliver the meaning are not always explicitly state the thing which been referred, a meaning behind the meaning. These meanings are influenced significantly by the collaborative understanding between speaker and listener, and all member of society. We can use words, phrase, name and even sentence to refer, but co-text will determine that the meaning is correctly caught by the listener. Under the scope of

reference and inference referential and attributive use are explored and so as anaphoric reference as feature. This topic is essential in English Pragmatics and became fascinating issue to be discussed among linguists (Muhammad, 2018, p. 4).

### References

1. Huang, Y. (2013). Introduction: What is pragmatics?
2. Tutik, R, N. Pragmatic: Reference and Inference, Academia. June 22, 2023.
3. Muhammad, Z, F. (2018, December). Reference and Inference in English Pragmatics. ResearchGate (p. 1).
4. Olusegun, O. J. (2020). Pragmatic Reference in Elvis Gbanabom Hallowell's The Dining Table. Journal of Pragmatics Research (pp. 42-43).
5. Mey, J. L., (2001). Pragmatics: An Introduction (2nd ed.). Oxford: Blackwell.
6. Appelt, D. (1987). Reference and pragmatic identification. In Theoretical Issues in Natural Language Processing 3.

## HAMMUALLIFLIKDA YARATILGAN SELEKSIYA YUTUG`INING HUQUQIY MUHOFAZASI

*Ergasheva Malika Rasulovna*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Magistratura bosqichi talabasi*  
[malikaergasheva0914@gmail.com](mailto:malikaergasheva0914@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi hammualliflik tushunchasi huquqiy tavsiflanadi. Seleksiya yutug`ini muhofaza qilish asoslari yoritiladi. Hammualliflikda yaratilgan seleksiya yutug`iga patent berish tartibi tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar:** hammuallif, seleksiya yutug`i, patentlashtirish, huquqiy muhofaza.

**Аннотация.** В этом тезисе описывается юридическое понятие соавторства. Будут освещены основы охраны селекционного достижения. Анализируется порядок выдачи патента на селекционное достижение, созданное в соавторстве.

**Ключевые слова:** соавтор, селекционное достижение, патентование, правовая охрана.

**Annotation.** This thesis describes the legal concept of co-authorship. The basics of protection of the breeding achievement will be covered. The procedure for granting a patent for a selection achievement created in co-authorship is analyzed.

**Key words:** co-author, selection achievement, patenting, legal protection.

Intellektual mulk huquqi - bu shaxsning ijodiy, aqliy faoliyati mahsuli boʻlgan obyektlarning huquqiy asoslarini oʻrganuvchi soha. Mazkur obyektlarni yakka shaxs ham, bir necha shaxslar jamoa boʻlib ham yaratishi mumkin. Biror asarni yaratgan shaxs shu asarning muallifi hisoblanadi. Intellektual mulk obyektini ikki yoki undan ortiq jismoniy shaxs birgalikda ijodiy, intellektual faoliyat natijasida yaratgan boʻlsa, ular mazkur holatda hammualliflar sifatida eʼtirof etiladi.

Intellektual mulk obyektining bir necha turlari hammualliflikda yaratilishi mumkin. Ular orasida seleksiya yutuqlari ham bor. Seleksiya yutugʻining mualliflariga tegishli huquq va majburiyatlar Oʻzbekiston Respublikasining 2002-yil yangi tahrirda qabul qilingan “Seleksiya yutuqlari toʻgʻrisida”gi Qonunida belgilab qoʻyilgan. Qonunga koʻra, seleksiya yutugʻi quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Oʻsimliklarning yangi navi.
2. Hayvonlarning yangi zoti.

Nav — oʻsimliklar guruhi boʻlib, u nasldan naslga barqaror oʻtuvchi, muayyan genotip yoki genotiplar kombinatsiyasini boshqalaridan ajratib turuvchi belgilarga qarab aniqlanadi.

Navning muhofaza qilinadigan obyektlari:

1. Klon.
2. Liniya.
3. Birinchi avlod duragayi.
4. Populatsiya.

Zot — genetik jihatdan oʻzaro bogʻliq biologik va morfologik xususiyatlari hamda belgilariga qarab aniqlanadigan hayvonlar (jumladan: parrandalar, hasharotlar, ipak qurti) yoki ularning duragaylari guruhi.

Zotning muhofaza qilinadigan obyektlari:

- |                              |                    |
|------------------------------|--------------------|
| 1. Zot guruhi.               | 5. Zot oilasi.     |
| 2. Zot ichidagi (zonal) tip. | 6. Partenoklonlar. |
| 3. Zavod tipi.               | 7. Liniyalar.      |
| 4. Zavod liniyasi.           | 8. Duragaylar.     |

Qonunga koʻra, seleksiya yutugʻini yaratishda bir nechta jismoniy shaxs ishtirok etgan boʻlsa, ularning hammasi hammualliflar deb eʼtirof etiladi. Hammualliflarga tegishli boʻlgan huquqlardan foydalanish tartibi qonunchilikda hamda ular oʻrtasidagi kelishuvda belgilanadi. Muallif (hammualliflar) oʻz nomi (nomlari) patent berish haqidagi talabnomada, patentda va seleksiya yutugʻi xususida eʼlon qilinadigan barcha materiallarda koʻrsatilishi huquqiga ega.

Seleksiya yutugʻi quyidagi talablarga javob berganda huquqiy muhofaza qilinadi:

1. Yangilik. 2. Barqarorlik. 3. Farqlanish. 4. Turdoshlik.

Seleksiya yutug`i patentlashtirish orqali muhofaza qilinadi. Quyidagilar seleksiya yutug`iga patent olishga haqli:

1. Seleksiya yutug`ining muallifi (hammualliflari).

2. Seleksiya yutug`ining muallifi (hammualliflari) merosxo`riga (merosxo`rlariga).

3. Muallif yoki uning merosxo`ri tomonidan patent berish haqidagi talabnomada yoki seleksiya yutug`i ro`yxatdan o`tkazilgunga qadar Agentlikka topshirilgan talabnoma beruvchini o`zgartirish to`g`risidagi arizada ko`rsatilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar.

4. Ish beruvchi. (Seleksiya yutug`i xodimning xizmat tartibida yartilgan bo`lsa)

Patentga layoqatlilik mezonlariga javob beradigan va O`zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan botanik va zoologik oila turkumlari hamda turlarga taalluqli seleksiya yutug`iga patent beriladi.

Seleksiya yutug`ining patenti seleksiya yutug`ining yangilik ekanligini, farqlanishini, turdoshligi va barqarorligini, shuningdek patent egasining seleksiya yutug`ining nomi, seleksiya yutug`iga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishga bo`lgan huquqini tasdiqlaydi. Patentga bo`lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) merosxo`riga (merosxo`rlariga) tegishlidir.

Agar bir nechta shaxs birgalikda bitta seleksiya yutug`i yaratgan bo`lsa, patentga bo`lgan huquq ularning hammasiga tegishli bo`ladi. Ulardan bittasining yoki bir nechtasining patentga bo`lgan huquqdan voz kechishi boshqalarining patent olish harakatlarini sodir etishiga hamda patent olish taomilida ishtirok etishiga taalluqli bo`lmaydi. Muallif (hammualliflar), agar o`zi (o`zlari) yaratgan seleksiya yutug`ini boshqalar g`ayriqonuniy o`zlashtirib olishi natijasida bu seleksiya yutug`iga talabnoma topshirilgan yoki patent olingan bo`lsa, patent berilganligiga qarshi e`tiroz bildirish yoxud patent egasi sifatida o`ziga (o`zlariga) patentning o`tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to`g`risida"gi Qonuni
2. <https://lex.uz/docs/-69237#-69458>
3. Окюлов О. Интеллектуал мулк хукуқи: умумий қоидалар ва алоҳида объектлар. Дарелик. -Т.: ТДЮИ, 2003
4. Якубова И.Б. Муаллифлик хукуқи . -Т.:2020.

**КИБЕРЖИНОЯТЛАРНИНГ МОҲИЯТИ ВА БЕЛГИЛАРИ***Миразова Шохиста Даврон қизи**Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети  
магистранти*

**Аннотация.** Мақолада кибержиноятнинг моҳияти ва хусусиятлари ёритилган, ахборот технологиялари соҳаси мутахасислари билан ҳамкорликда жиноятларга барҳам бериш масалалари бўйича мулоҳазалар билдирилган.

**Таянч иборалар:** кибержиноят, жинойий ҳодиса, жиноят, кибермайдони, технологик тараққиёт, шахсий изкуварлик маҳорати

Замонавий дунёда бутун инсоният учун ахборот соҳасидан келаётган хавфлар, хусусан турли кибер ҳужумлар хавфи ҳамон сақланиб қолмоқда. Ушбу салбий иллатларни олдини олиш ва уларга қарши курашиш бир қатор давлатлар сиёсатида стратегик вазифа сифатида катта аҳамият касб этмоқда. Таъкидлаш жоизки, ахборот жамиятини ривожлантиришнинг зарурий шarti бу киберхавфсизликни таъминлашдир ва унга хавфсизликнинг техник ҳамда қонунчилик асосларини яратиш ва такомиллаштириш орқали эришиш мумкин. Замонавий шароитда, киберхавфсизлик масалалари алоҳида компьютер воситасида ахборот хавфсизлигини таъминлаш даражасидан ҳар бир давлатнинг ахборот ва миллий хавфсизлигини таъминлаш ҳамда давлатнинг ягона киберхавфсизлик тизимини яратиш даражасигача кўтарилиб борганлигига урғу бериш лозим.

Замонавий дунёни турли хил технологиялардан фойдаланмасдан тасаввур қилиб бўлмайди. сўнги йилларда «Интернет» маконидан фойдаланувчилар сони кундан-кунга ортиб бормоқда ва шу тариқа унинг таъсири доимий равишда кенгаймоқда, натижада бутун инсоният сингари жиноят олами ҳам ривожланиб, ахборот технологиялари соҳасини мукамал ўрганган баъзи бир шахс ёки гуруҳлар томонидан жиноят содир этишнинг янги технологияларини ўзлаштирмоқдалар. Бу эса жиноятларнинг янги тури – кибержиноят юзага келганлигини англатади.

Дунё миқёсида кибержиноятларнинг тарқалиши шахдам қадамлар билан кундан кунга ривожланиб бормоқда. Шу муносабат билан кибержиноятчилик муаммосини тушуниш масалалари замонавий жамиятнинг энг муҳим вазифаларидан бири бўлиб, кибержиноятларга қарши курашишнинг самарали усулларини қўллаш учун ушбу турдаги жиноятнинг тушунчаси ва белгиларини ўрганиш ҳозирги давр талаби бўлиб қолмоқда.

Кибержиноятнинг вужудга келиши билан тадқиқотчилар ўртасида «кибержиноят» атамаси қанақа бўлиши ва ушбу атама нималарни ўз ичига олиши кераклиги ҳақида мунозаралар пайдо бўлиб, хонузгача давом этиб келмоқда.

Тадқиқотчилар ўртасидаги баҳслар давомида «кибер жиноят» ва «компютер жинояти» атамаларининг комбинацияси масаласини кўтарадиган бир неча назариячилар мавжуд, бу икки тушунча ўртасидаги муносабатлар бўйича биринчи назарияда «кибер жиноят» атамаси «компютер жинояти»га караганда кенгроқлигини таъкидлайди.

Ушбу назариянинг вакиллари – рус олимлари В.А.Номоконов ва Т.Л.Тропина ўз тадқиқотларида «кибержиноят» тушунчасини келтириб чиқарадиган сўзларнинг маъносини тавсифловчи хорижий изоҳли луғатларни таҳлил қилиб, таҳлил натижаларига кўра, «кибержиноят» атамаси «компютер жинояти»дан кенгроқ деган хулосага келишди. Улар ўз фикрларида ахборот маконида содир этиладиган жиноятларнинг моҳиятини аниқроқ ва тўғри тасвирлайдилар, бундан ташқари, тадқиқот натижаларига кўра, олимлар «кибер жиноят»га ўзларининг таърифларини беришган. Уларнинг фикрича, «кибержиноят - бу компютер тизимлари ёки компютер тармоқлари, шунингдек кибермаконга киришнинг бошқа ёрдамида ёки улар орқали кибермаконда, компютер тизимлари ёки тармоқлари воситалари доирасида ҳамда компютер тизимларига, компютер тармоқларига қарши содир этилган ҳар қандай жиноятлар мажмуидир [1].

Шунингдек бошқа бир гуруҳ олимлари – Т.Н. Шарипова ва А.А.Сидоренко ўз назариясида «кибер жиноят» атамаси «компютер тизими ёки тармоғи ёрдамида, компютер тизими ёки тармоғи доирасида, компютер тизими ёки тармоғига қарши содир этилиши мумкин бўлган ҳар қандай жиноятни» бирлаштирган деб ҳисоблайдилар [2].

Бизнингча, ахборот маконининг компютер тизимларидан анча узоқлашиб кетганлиги тўғрисидаги фикрларга қўшилмасликнинг иложи йўқ, Шу муносабат билан, «кибержиноят» атамаси «компютер жинояти»га караганда кенгроқ маънога эга деган назарияни энг тўғри деб ҳисоблаш мақсадга мувофиқ бўларди. Ушбу ёндашув вакиллари томонидан берилган таъриф кенгроқ ҳаракатлар доирасини ўз ичига олади ва замонавийлик талабларига яхшироқ жавоб беради.

Кибержиноятнинг моҳиятини яхшироқ тушуниш учун терминологиядан ташқари, ушбу турдаги жиноятларнинг ўзига хос белгиларини ҳам мукамал ўрганиш керак бўлади. Бу умумий содир этилган жиноятлардан ахборот маконидаги жиноятларни алоҳида таҳлилин олиб боришлик учун имконият

беради ҳамда кибержиноятларга қарши курашнинг энг самарали чораларини белгилаб беради.

Кўпгина тадқиқотчилар кибержиноятнинг ўзига хос хусусиятларини кўрсатиб ўтганлар. Хусусан И.Г.Чекунов ички ва халқаро ҳуқуқий ҳужжатларни таҳлил қилиш асосида кибержиноятчилигининг нафақат жинойий қилмишларининг ўзига хос белгиларининг тавсифи, балки жиноятнинг субъектлари, мақсадлари ва жиноятни фoш этишдаги мураккабликларини кўрсатиб берган. Унинг фикрича кибержиноятчиликнинг кўйидаги фарқловчи белгиларини ажратиб кўрсатади:

-жиноятчилар ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш орқали ўз мақсадларига эришилади;

-кибержиноят трансчегаравий хусусиятга эга ва виртуал усулларда содир этилади;

-кибержиноятлар яширин тарзда содир этилади ва “ҳам давомли ҳамда бир марталик” жинойий ҳолатлари бўлиши мумкин; -бундай жиноятларга оид далилларни тўплаш қийин;

-ахборот маконида жиноятлар сонининг ўсиши бевосита технологик тараққиётнинг ривожланиши ва унинг натижаларига боғлиқ;

-кибержиноятларни субъекти асосан «IT технологиялари соҳасида чуқур билимга эга мутахассислари» ҳисобланади;

-кибержиноятлар асосан жудда катта миқёсда иқтисодий фойда олиш мақсадида содир этилади;

-кибержиноятларнинг гуруҳлар таркибида содир этилишига нисбатан ортиб бораётган тенденциялари мавжуд;

-жиноятларни фақат “ҳодисадан кейинги режимда” аниқлаш мумкин [3].

Юқорида олимлар томонидан келтирилган, кибержиноятларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, шуни хулоса қилиш мумкинки, кибержиноят бу кенг кўламли, юқори ўсиш суръатларига эга бўлган, субъектлари юқори интеллектуал маълумотлар билан ажралиб турадиган, асосан иқтисодий мақсадларга эга бўлган ва уларни содир этишда жиноятчилар томонидан техника оламида энг янги тараққий этган техник воситаларидан фойдаланадиган мураккаб ҳатти-харакатлар мажмуидан иборат жинойий қилмишдир.

**Адабиётлар**

1. Номоконов В. А., Тропина Т. Л. Киберпреступность как новая криминальная угроза // Криминология: вчера, сегодня, завтра. 2012. № 24. [Электронный ресурс] URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kiberprestupnost-kak-novaya-kriminalnaya-ugroza> (дата обращения: 15.04.2020).
2. Шарыпова Т. Н., Сидоренко А. А. Киберпреступность в XXI веке // Аллея науки. 2019. Т. 2. № 1 (28). С. 978–981 // [Электронный ресурс] URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=37041615>
3. Чекунов И.Г. Киберпреступность: понятие, классификация, современные вызовы и угрозы // Журнал Молодые ученые № 3. 2012. С.178–186.

**ИССЛЕДОВАНИЕ АУДИТА БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ**

*Имамалиев Дилшод Мухаммадович*

*Старший преподаватель*

*Ташкентский государственный транспортный университет*

[\*dilimshod@gmail.com\*](mailto:dilimshod@gmail.com)

**Аннотация.** Аудит безопасности дорожного движения (АБДД) - это официальная процедура оценки потенциальной аварийности и показателей безопасности новых и существующих дорог. Аудит безопасности дорожного движения - это эффективный, рентабельный и активный подход к повышению безопасности дорожного движения. Доказано, что АБДД может спасти жизни. АБДД возникла в Великобритании и хорошо развита в таких странах, как Великобритания, США, Австралия, Новая Зеландия, Дания, Канада, Малайзия и Сингапур. В настоящее время он находится на разных стадиях реализации в развивающихся странах, таких как Казахстан, Киргизстан, Таджикистан и Узбекистан. Таким образом, аудит безопасности дорожного движения представляется идеальным инструментом для повышения безопасности дорожного движения в Узбекистане. В этом исследовании для аудита безопасности дорожного движения была выбрана автомобильная дорога общего пользования 4Р21 «Ташкентская объездная дорога». Оценка безопасности выполняется с помощью приложения iRAP, путем сбора данных о характеристиках обочины, дорожных участков, характеристиках перекрестков, а также данных о скорости и потоке.

**Ключевые слова:** Безопасность дорожного движения, аудит безопасности движения, оценка аварийности, информационно-аналитические методы.

Введение. Основная концепция “безопасной дороги” состоит в том, чтобы гарантировать, что в случае аварии транспортных средств, энергия удара останется ниже грани вероятности, приводящей к смерти или тяжким телесным повреждениям. Этот порог будет варьироваться от ситуации к ситуации в зависимости от уровня безопасности, доступного для участников дорожного движения. Ежегодно на дорогах мира погибает около 1,3 миллиона человек, что делает дорожно-транспортные происшествия (ДТП) одной из основных причин смерти во всем мире. Более 90% смертей (дети и молодые люди в возрасте 5-29 лет) в результате ДТП приходится в основном на страны с низким и средним уровнем дохода, где происходит поспешный экономический рост, который сопровождается всё возрастающей автомобилизацией и дорожно-транспортным травматизмом. Даже в странах с высоким уровнем дохода риск ДТП возрастает в группах, занимающих более низкое социально-экономическое положение. В странах с низким и средним уровнем дохода рост инфраструктуры, пересмотр политики и уровень правоприменения и регулирования не могут соответствовать темпам использования транспортных средств.

В опубликованном ВОЗ «Докладе о состоянии безопасности дорожного движения в мире за 2022 г.» представлена нижеизложенная информация о положении в области безопасности дорожного движения в 175 странах:

- Около 73% всех ДТП со смертельным исходом приходится на молодых мужчин в возрасте до 25 лет. Увеличение средней скорости движения напрямую влияет как на риски ДТП, так и на тяжесть их последствий. Например, увеличение медианной скорости движения на 1% приводит к возрастанию риска ДТП со смертельным исходом на 4% и риска ДТП с серьезными последствиями на 3%. Быстро возрастает риск смертельного исхода для пешеходов в случае фронтального наезда транспортного средства (в 4,5 раза при увеличении скорости с 50 км/ч до 65 км/ч). Риск смертельного исхода для водителей и пассажиров транспортных средств при боковом столкновении на скорости 65 км/ч составляет 85%.

- Ущерб, который несет большинство стран в результате ДТП, достигает 3% от их валового внутреннего продукта. Более половины всех смертей в результате ДТП приходится на уязвимых участников дорожного движения – пешеходов, велосипедистов и мотоциклистов. Несмотря на то, что на страны с низким или средним уровнем дохода приходится приблизительно 60% мирового парка автотранспортных средств, в них регистрируется 93% всех ДТП со смертельным исходом.

- Увеличение средней скорости движения напрямую влияет как на риски ДТП, так и на тяжесть их последствий. Например, увеличение медианной скорости движения на 1% приводит к возрастанию риска ДТП со смертельным исходом на 4% и риска ДТП с серьезными последствиями на 3%. Быстро возрастает риск смертельного исхода для пешеходов в случае фронтального наезда транспортного средства (в 4,5 раза при увеличении скорости с 50 км/ч до 65 км/ч). Риск смертельного исхода для водителей и пассажиров транспортных средств при боковом столкновении на скорости 65 км/ч составляет 85%.

- Финансовые потери из-за этих смертей в результате ДТП настолько велики, что эти развивающиеся страны теряют примерно до 5% своего валового внутреннего продукта. Несмотря на то, что ущерб от ДТП в течение многих лет является основной причиной смертельных случаев, многие из этих ДТП не только ожидаемы, но и предотвратимы.

Принимая во внимание масштаб этой проблемы в области здравоохранения и развития и вероятность положительного влияния на нее, Генеральная Ассамблея Организации Объединенных Наций приняла цель сократить вдвое к 2030 г. число погибших и травмированных в результате дорожно-транспортных происшествий во всем мире [1].

Аудит безопасности дорожного движения (RSA) определяется как «официальная проверка безопасности существующей или будущей дороги или перекрестка независимой междисциплинарной группой». Он качественно оценивает и сообщает о потенциальных проблемах безопасности дорожного движения и определяет возможности повышения безопасности для всех участников дорожного движения [2]. Как правило, этапы аудита безопасности дорожного движения можно разделить на пять этапов, таких как технико-экономическое обоснование, предварительное проектирование, рабочее проектирование, строительство и предварительное открытие [3]. Технико-экономическое обоснование на стадии изучения того, насколько хорошо предлагаемая автомобильная дорога соответствует существующей сети автомобильных дорог. Аудит на стадии завершения предварительного проектирования включает оценку горизонтальной и вертикальной разбивки, линий обзора, поперечных сечений и схемы развязок, включая разъезды, это последняя возможность изменить основные концепции проекта, если таковые имеются. Аудит на этапе завершения детального проектирования включает в себя такие вещи, как схема развязки, размещение знаков, разметки проезжей части, освещение и т. д. Аудит на этапе строительства включает проверку мер безопасности, принятых для рабочей зоны, рабочих, участников

дорожного движения и устройств управления дорожным движением, принятых на строительной площадке. Наконец, на этапе, предшествующем открытию, аудиторская группа осмотрит объект проекта как в дневное время, так и в темное, чтобы выявить опасности, характерные для эксплуатации транспортных средств. Кроме того, в течение первых одного или двух месяцев работы аудиторская группа собирает данные об инцидентах или сбоях, если таковые имеются, для принятия необходимых корректирующих мер.

В решении вышеупомянутых вопросов и в совершенствовании процесса проведения АБДД, со стороны ООН рекомендуется методология международной программе оценки дорог «International Road Assessment Programme (iRAP)» - зарегистрированной организации, занимающейся ликвидацией дорог с высоким уровнем риска по всему миру и спасением жизней. iRAP использует надежную, основанную на фактических данных стратегию для предотвращения предотвратимых смертей и страданий [3]. iRAP сотрудничает с правительствами, дорожными властями, автомобильными клубами, банками развития и другими организациями, которые проводят исследования. Типичные функции iRAP включают в себя:

1. проверку маршрутов с высоким уровнем риска и предоставление звездных рейтингов, карт рисков и инвестиционных планов для более безопасных дорог;
2. отслеживать показатели безопасности дорожного движения, чтобы финансирующие организации могли оценить преимущества своих инвестиций;
3. предоставить обучение, технологии и помощь, которые создадут и поддержат национальные, региональные и местные возможности.

Исследования по аудиту безопасности дорожного движения включают аудит показателей безопасности придорожных и разделительных ограждений с использованием записей аварий на автомобильных дорогах [5], оценку мер безопасности на выбранном участке дороги [6]. Точно так же исследования по выявлению мест повышенной опасности включают оценку индексов опасности [7], реализацию мер по управлению скоростью на сельских автомобильных дорогах [8], метод кванта аварийности, метод индекса подверженности авариям (API) и метод взвешенного индекса серьезности (WSI) [9] и применение ГИС для расследования дорожно-транспортных происшествий [10].



Рис. 1. Методология исследования.

Аудит безопасности состоит из сбора данных об особенностях автомобильной дороги. Собранные данные передаются в приложение iRAP для оценки показателей безопасности различных участников дорожного движения. Затем оцениваются показатели тяжести аварии для различных мест, подверженных авариям. В конце предлагаются меры по повышению безопасности выбранного участка дороги, а также выявленных зон, подверженных авариям.

Хотя функциональные возможности iRAP очень широки, это исследование сосредоточено на оценке звездных рейтингов для каждого 100-метрового участка (общее протяженность дороги – 22 км), выбранного автомобильной дороги 4Р21 «Ташкентская объездная дорога». Участок исследования охватывает общую протяженность 22 км, как показано на рисунке 2.




Рис. 2. Исследуемый участок дороги 4Р21 «Ташкентская объездная дорога» (iRAP).

Опрос по сбору данных состоит из подробностей о серьезности дорожного движения, таких как наличие опасного объекта с обеих сторон,

как со стороны водителя, так и со стороны пассажира, наличие или отсутствие плечевых полос, а также обочина с твердым покрытием или нет и т. д., как показано на рисунке 3. Кроме того, данные среднего блока, такие как тип проезжей части, тип медианы, осевые полосы грохота, количество полос движения, детали кривизны, такие как острая или плоская кривая, уклон, состояние дорожного покрытия и т. д. Кроме того, такие характеристики как пересечения, тип пересечения, объем пересекающихся дорог и другие.

Маркировка проезжей части	Неразделенная дорога
Стоимость улучшения	Средняя
Тип разделительной полосы	Барьерное ограждение - бетонное
Шумовые полосы на разделительной полосе	Отсутствует
Количество полос	Четыре или больше
Ширина полосы	Широкий (> = 3.25м)
Кривизна	Прямая или слегка изогнутая
Качество кривой	Хорошее
Уклон	>= 0% до <7.5%
Состояние дороги	Хорошее
Сопrotивление скольжению / сцепление	Асфальтированное покрытие - хорошее

Рис. 3. Ввод дорожных данных в модель iRAP.

Наряду с данными о дорогах и перекрестках в качестве входных данных для модели iRAP подаются данные об уязвимых участниках движения, такие как пешеходы, велосипедные объекты, данные о транспортных потоках, такие как объем, состав транспортного потока и данные о скорости. Затем модель оценивается по звездному рейтингу для участников дорожного движения, таких как транспортные средства, двухколесные транспортные средства, пешеходы и велосипедисты, для конкретного дорожного участка, как показано на рис. 4.




Рис. 4. Рейтинг безопасности для участников дорожного движения в данной автомобильной дороге.

Кроме того, модель iRAP оценивает индексы риска для всех выше участников дорожного движения на основе данных опроса, переданных в модель, как показано на рисунке 5. На рисунке показано, что разные цвета использовались для представления различных звездных рейтингов, таких как зеленый, желтый, оранжевый, красный и черный, чтобы собираются сведения о доступе к собственности. Наряду с данными о дорогах и перекрестках в качестве входных данных для модели iRAP подаются данные об уязвимых пользователях дорог, такие как пешеходы, велосипедные объекты, данные о транспортных потоках, такие как объем, состав транспортного потока и данные о скорости.




Рис. 5. Показатели риска для участников дорожного движения на автомобильной дороге 4P21.

Из рисунка 5 можно сделать вывод, что чем выше индекс риска, тем меньше будет звездный рейтинг. Кроме того, можно обнаружить, что для участников дорожного движения транспортных средств и мотоциклов небезопасная зона пересечения является более критичной, а для пешеходов переход дороги сопряжен с большим риском. Аналогично, из рисунка 6 можно сделать вывод, что для пользователей транспортных средств более вероятен выезд транспортного средства со стороны водителя, а для

мотоциклов более рискованным является перекресток с трехсторонним движением без сигнализации.




Рис. 6. Обозначение участков дороги по цветам, соответствующих по рейтингу безопасности участников дорожного движения (iRAP).

Подводя итог, основные моменты можно обсудить следующим образом: По результатам аудита безопасности дорожного движения на участке 4P21 «Ташкентская объездная дорога» 3-звездочная оценка получена для четырехколесных транспортных средств, мотоциклов и пешеходов. Кроме того, установлено, что пользователи транспортных средств и мотоциклов подвергаются большому риску на небезопасном перекрестке, а пешеходы, пересекающие дорогу, представляют большой риск.

Таким образом, чтобы повысить уровень безопасности в нашем исследовательском разделе, были предложены следующие меры:

1. эффективное ограничение скорости повышает звездный рейтинг для транспортных средств и мотоциклов;
2. тротуары и пешеходные переходы, такие как «зебра», уличное освещение и более низкие ограничения скорости, повышают рейтинг пешеходов;
3. для улучшения мест, подверженных к авариям, могут быть приняты следующие краткосрочные меры: пешеходные сооружения, такие как дорожная разметка, дорожное освещение, светоотражательные дорожные знаки.

Выводы. В этом исследовании аудит безопасности автомобильной дороги 4P21 «Ташкентская объездная дорога», проводилось с

использованием приложения iRAP. Уровни безопасности оценивались по количеству звезд (от 1 до 5 звезд). Кроме того, были предложены различные меры для повышения уровня безопасности для участников дорожного движения. Данный метод даёт возможность оценивать уровень безопасности на участках дорог с практической значимостью. Данная методология рекомендуется местным дорожно-строительным предприятиям для быстрого выявления и устранения факторов риска аварийности в дорожном движении.

#### Литература

1. UN.G.A. (74th sess.) (2020). Improving global road safety: resolution/adopted by the General Assembly. UN. <https://digitallibrary.un.org/record/3879711>
2. Devang G Patel, FS Umrigar, CB Mishra, and Amit A Vankar (2013). Road Safety Audit of Selected Stretch from Umreth Junction to Vasad Junction International Journal of Science and Modern Engineering (IJISME) 2319–6386.
3. IRC SP 88 Manual on Road safety Audit Indian Roads Congress New Delhi.
4. Nabarjun Vashisth (2016). Road safety assessment and test application of iRAP along National Highway 3 in Haiti PhD thesis Clemson University.
5. Athira Mohan and VS Landge (2017). Identification of accident black spots on national highway Int. J. Civ. Eng. Technol 8.4 588–596.
6. Y.G. Wang, K.M. Chen, Y.S. Ci, and L.W. Hu (2011). Safety performance audit for roadside and median barriers using freeway crash records: Case study in Jiangxi, China Scientia Iranica A 18 (6) 1222–1230.
7. Omkar Gholap, Nikita Shinde, Vaishnavi Shelke, Navnath Navale, Kuldeepak Deshmukh, and Ashutosh Kotkar (2018). Road Safety Audit International Journal of Engineering Research & Technology 7 Issue 04.
8. Snehal U Bobade, Jalindar R Patil, and Raviraj R Sorate (2015). Identification of Accidental Black spots on National Highways and Expressways International Journal of Research in Advent Technology (E-ISSN: 2321-9637), Special Issue National Conference ACGT 2015.
9. Stanislaw Gaca and Mariusz Kiec (2016). Speed management for local and regional rural roads Transportation Research Procedia 14 4170 – 4179.
10. Srinivasan, N. S., Iyer, V. S., Chand, M., and Srinath, K. (1987). Scientific identification and improvement of accident-prone locations on national highways in Kerala Journal of the Indian Road Congress 48 (3) 1-10.

**O'QUVCHILARDA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCH HISSINI QAROR  
TOPTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

*Abdullayeva Dilorom Nomonovna*  
*QDPI o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini qaror toptirishning psixologik xususiyatlari haqidagi ilmiy mulohazalar bayon etilgan. Muammo yechimiga oid ilmiy qarashlar, tavsiyalar maqoladan o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** o'z-oziga ishonch, psixik xususiyat, o'ziga ishonch hissi.

Hozirgi kundagi dunyo tamaduning jadal rivojlanishi va yangicha mazmun kasb etishi psixologiyaning murakkab muammosi bo'lgan shaxs muamosining yangicha qiyofa, yangicha faoliyat, yangicha xarakter kabi psixik xususiyatlar bilan namoyon bo'lmoqda. O'quvchi shaxsining psixik xususiyatlari ham ilm-fan, texnika, kommunikatsiya tarmoqlarining jadal taraqqiyoti natijasida keskin muammolarni keltirib chiqarmoqda. Psixologiyada o'quvchilarning murakkab psixik davri o'smirlik g'oyat muammoli davr sifatida tavsiflanadi. O'quvchilar psixologiyasining asosiy markaziy muammosi o'quvchini psixik jihatdan o'sishi, unga xos xususiyat va qonuniyatlarini yoritib berishdan iboratdir.

V.N.Myasishchev insonning psixik rivojlanishi uning atrof voqelik va eng avvalo boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlari tizimining murakkablashib, kengayib borishiga bog'liq, bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu g'oyaga asosan o'quvchi shaxsining ijobiy rivojlanishi va ijtimoyillashuvi ham uning yon-atrofidagi odamlar bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi.

O'quvchilarning murakkab psixik davrini xarakterlovchi psixofiziologik xususiyatlardan biri bo'lgan garmonal jadallashuvning natijasida ularning xarakter va xulqida turli o'zgarishlar kuzatiladi. Bu o'zgarishlar hissiy emotsiyalarning yorqinligi, beqarorlig, o'ziga nisbatan talabchanlik, mustaqillikga intilish, menini namoyish qilish hamda o'zini anglamagan holda o'z kuchiga ishonchsizlikning namoyon bo'lishida kuzatiladi.

Amaliy psixologiyaning muhim qonuniyatlaridan biri bolgan " Qaytish" qonuniga muvofiq aql o'ylaganini jism bajaradi. Ya'ni inson biror-bir narsaga qattiq ishonar ekan aql va idrok bu ishonch asosida butun jism va organizmni dasturlashtiradi. Shu dastur asosida esa insonning barcha psixikasi va fiziologiyasi faoliyat olib bora boshlaydi. Ana shu qonunga muvofiq o'quvchilarda ham aql idroknii tarbiyalash zarurati mavjuddir. Bu davrda ular aniq va mazmunli fikrlashga mustaqil qodir emaslar va ko'p hollarda atrofdagilarning ko'magiga va ishonchiga muxtojdirlar.

O'quvchilarda ishonchsizlik xissi ko'p hollarda muammo sifatida uchrab turadi. Bu ishonchsizlik faoliyatga kirishish ya'ni o'qish jarayoni, jismoniy faollik, boshqalar bilan munosabatlarda o'z aksini topadi.

Psixolog K.A. Gelvetsiy ta'limotiga ko'ra, hamma odamlar aqliy va axloqiy taraqqiyot uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar. SHuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Olim Inson psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar.

Yuqoridagi ta'limotga ko'ra o'quvchilarning ijobiy xulqini rivojlantirish hamda o'z-oziga ishonch asosida ularda o'qishga va faoliyatning boshqa turlariga motivni shakllantirish bu u bilan faoliyat olib borayotgan kattalarga bog'liq jarayondir. O'quvchilarda o'ziga nisbatan ishonchni tarbiyalash murakkab jarayon va uzoq davom etishi bilan xarakterlanadi.

O'quvchilarda o'z-ozida ishonch xissini tarbiyalashda avvalo o'quvchi y'ani bola shaxsini xurmat qilish masalasi g'oyat muhimdir. Rus psixologi A.S.Makarenko "Agar mendan biror kishi: siz qisqa formulada o'z pedagogik tajribangiz mohiyatini qanday qilib ta'riflab berolgansiz, deb so'rasa men: insonga iloji boricha ko'proq talab qo'yish va uni iloji boricha ko'proq talab qo'yish va uni iloji boricha hurmat qilish kerak, deb javob bergan bo'lar edim" degan edi. O'quvchilarni o'zaro munosabatlarda pedagoglar, jamoadoshlari, ota-onalari tomonidan xurmat qilinishi ularda o'ziga ishonch, atrovdagilarga nisbatan esa intilishni ya'ni munosabatlarda faollikni vujudga keltiradi. Aksincha o'quvchi shaxsini xurmat qilmaslik, unga nisbatan e'tirof etilmaslik xissini shakllantiradi. E'tirof bu o'quvchining qadr-qimmatini tan olish demaakdir. O'quvchilarni doimiy xaqorat qilish, kamsitish, mazax qilish, topshiriqni ishonmaslik, doimiy past baholar qoyish ularda o'ziga ishonchsizlik va jamiyatning unga bergan maqomiga odatlanish, ko'nish ya'ni rozilik xissini rivojlantiradi. Ko'p hollarda esa bu ularda ruhiy buzilish yani delenkivent xulqni vujudga kelishini ta'minlovchi omilga aylanib qoladi.

Komil insonni tarbiyalashda erishilgan amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki o'uvchilarda nafaqat barcha yoshdagi insonlarda boshqa bir shaxsga nisbatan taqqoslash eng yomon xodisa va yoqimsiz tuyg'udir. O'quvchilarda taqqoslashning taengdoshiga nisbatan amalga oshirilishi ularda salbiy beqaror xislarni shakllantiradi. O'quvchilarni o'ziga bolgan ishonchini tarkib toptirishda bu qoidaga amal qilish kerakligini unutmash kerak. Pedagoglar o'quvchilar bilan munosabat o'rnatayotganda o'ta ehtiyotkor bo'lishlari kerak.

O'quvchilarda o'z-oziga ishonch xissini rivolantirishda o'qituvchi va ota-onalarga quyidagi tavsiyalarga amal qilishni ta'kidlagan bo'lar edik:

-xech qachon boshqa shaxs bilan taqqoslamaslik, ayniqsa tengdoshi bilan;

-faoliyatga da'vat qilishda uning boshqalardan kam emasligini ta'kidlang;

-o'quvchi shaxsining ustun bo'lgan ijobiy tomonlarini topib maqtang;

-imkoniyatiga mos bo'lgan topshiriqlarni berishga xarakat qiling va topshiriqni bajarishida uni nazorat qilmang! Chunki unga avvalo o'zingiz ishonishingizni, u faoliyatni bajara olishiga qattiq ishonishingizni isbotlang;

-o'quvchiga ishonishingizni tez-tez jiddiy ohangda takrorlab turing;

-faoliyatini rag'batlantiring.

Yuqoridagi tavsiyalar asosida o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatilganda, unda o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqillik, o'qish jarayonida faollik va dinamik o'zgarishlar kuzatiladi.

Inson shaxsi o'z mohiyati bilan ijtimoiy zotdir. SHaxsdagi barcha psixik xususiyatlarning ijodiy faolligining rivojlanish manbaalari uning tevarak atrofdagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi determinlashgan (sababiy bog'liqlikda) bo'lib ijtimoiy turmush bilan bog'liqdir. SHaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Bu kelajakda insonning psixik xususiyatlari, ya'ni uning axloqiy sifatlari, xarakteri, irodaviy xislatlari, qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarini tashkil topishiga ta'sir qiladi. Demak o'quvchilarda ham ijobiy muhit asosida o'ziga bo'lgan ishonchni barqarorligini ta'minlash mumkin deb xulosa qilish mumkin.

**BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY  
FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PERSEPTIV  
QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

*Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lg'usi o'qituvchilarning perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati yuzasidan fikrlar, kasbga oid mahoratini shakllantirishda pedagogik-psixologik nazariyalarning ahamiyati, ma'naviyatimizning shakllanishida o'z-o'ziga ega bo'lgan ulug' insonlar faoliyati to'g'risida, ularga qo'yilayotgan talablar haqida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, perseptiv qobiliyat, ta'lim-tarbiya, e'tiqod, o'qituvchi, malaka, ma'lumot, tadqiqot, faoliyat.

Bo'lg'usi o'qituvchilarda perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish ularning o'z sohasiga munosabatini, mas'uliyatini oshirishga, dunyoqarashini o'zgartirishga, faoliyatiga ongli yondashishga, ijodkorlik, faollik, tashabbuskorlik, fidoiylilik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qator xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonda perseptiv qobiliyatlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati haqida tushunchalar berilishi natijasida, ya'ni perseptiv ko'nikmani takomillashtirish talabalarda hayotga, mehnatga, o'qishga va tarbiyaviy munosabatlarga yangicha yondashishga, o'z kasbini mukammal egallashga, o'z ustida muntazam ishlashga, ijod qilishga, o'z-o'zini nazoratini olib borishga, natijalarini tahlil qilishga ijobiy munosabatni tarkib toptirishga, o'zaro muomala, pedagogik madaniyatni egallashga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, bo'lg'usi o'qituvchilarda perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:

- ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari va shart-sharoitlariga;

- shaxslararo munosabatlarda yangicha yondashish va perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy-tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi;

-perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishda pedagogik jarayonlarning o'zaro integratsiyasi va aloqadorligini ta'minlanishi;

-ta'lim-tarbiya jarayonlarida perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ta'siri, o'ziga xos ahamiyati va zaruriyati;

-bo'lg'usi o'qituvchilarda perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligi mazkur jarayonni natijadorligini ifodalashi;

-bo'lajak o'qituvchilarning perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonlari samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligi;

- motivlashtirish jarayonida yangi ma'lumotlarning ahamiyati va roli.

Demak, bo'lg'usi o'qituvchilarda o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor talab qilayotgan birinchi omil ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda talabalar perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik ta'limning integratsiyasi bo'lib, pedagogik jarayonlarda talabalarning faolligini ta'minlashda ularning mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lim va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini-o'zi tarbiyalashi muhim ahamiyat kasb etadi va bu ahamiyat ularni perseptiv qobiliyatlarini rivojlanishiga asos sifatida xizmat qilishida o'z ifodasini topadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar, integrativ ma'ruzalar, amaliy mashg'ulot, seminar-treninglar, Veb binarlardan foydalanish bilan bir qatorda, talabalarga oldindan tarqatiladigan anketa-so'rovnomalar, tezkor savol va tezkor javob topshiriqlaridan foydalanish juda katta natija beradi. Bo'lg'usi o'qituvchilarda o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishda tashkil etiladigan amaliy va seminar mashg'ulotlarni talabalarning boshlang'ich tushunchalariga asosan, ya'ni ularning boshlang'ich tushunchalarini o'rganish va tahlil qilish orqali ular tomonidan mustaqil ravishda o'rganilgan adabiyotlar, ma'ruzalar jarayonida berilgan ma'lumotlar asosida takomillashtirilishi, o'rganiladigan asosiy tushunchalarni test va modellar ko'rinishida ifodalash uchun imkoniyat yaratadi. Bo'lg'usi o'qituvchilarda o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonlarida interfaol suhbat, ishchanlik o'yinlari, seminar-trening kabi metodlardan foydalanish talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki o'qitishning faol metodlari hisoblangan mazkur metodlar ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning faolligini ta'minlaydi, ya'ni talabalarda innovatsion va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ishchanlik o'yini jarayonida ishtirok etuvchi bo'lajak o'qituvchilar perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini tahlil qiladilar, tahlil natijalariga ko'ra xulosalar shakllantiriladi va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ishchanlik o'yini davomida

talabalarning boshlang'ich tushunchalari, fikrlashi, tafakkuri, dunyoqarashi, ko'nikma va malakalarini egallanganlik darajasi aniqlanadi hamda vujudga kelgan vaziyatlarga ko'ra topshiriqlar muvofiqlashtiriladi. Ishchanlik o'yini talabalarning reflektiv qobiliyatlari va imkoniyatlari darajasini hamda persektiv qobiliyatlarini rivojlantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.В.КАРПОВ, Е.Ф.ЯЩЕНКО.ПСИХОЛОГИЯ СПОСОБНОСТЕЙ Челябинск Издательство ЮУрГУ 2007
2. Эргашева, Н. М. Farabi's doctrine of perfecting human being / Н. М. Эргашева, Б. К. Номонов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 9 (11). — С.
3. Абдукаримова Гулчехра Баратовна Философские взгляды Абу Али ибн Сино на образование // Достижения науки и образования. 2019. №4
4. Турғунов Қ.Русча ўзбекча психология терминларининг изоҳли луғати."Ўқитувчи" нашриёти Т.1975
5. (163-б)
6. Umarov B.M.Psixologiya: darslik- Toshkent Voris-nashriyoti 2012.(74-b)
7. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya O'rta maxsus kasb hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2010. (295-b)
8. Mavlonova R,Abdurahimova D. Pedagogik mahorat:O'quv qo'llanma. – T.:Fan va texnologiya,2009.-
9. Xoliqov A. A Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011 (52-b)
10. Umarov B.M.Psichologiya: darslik- Toshkent Voris-nashriyoti 2012.(74-b)
11. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – С. 612-618.
12. Abdualievich Z. M. Effectiveness of Development of Perceptive Skills Directed to Increase the Social Activity of Students in Future Teachers //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 15. – С. 55-58.
13. Abdualiyevich Z. M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – С. 213-217.

14. Zokirov M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
15. Abdualiyevich Z. M. O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA IJTIMOY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 330-333.
16. Zakirov M. THE METHOD OF DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 29-32.
17. Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich, Yo‘ldashev Dilshodjon Mamirovich BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN PERSEPTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI // Oriental Art and Culture. 2023.
18. Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARNING PERSEPTIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK ZARURATI // Oriental Art and Culture. 2023. №1.
19. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – C. 612-618.
20. Zokirov, M. (2022).ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN DTUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN.
21. Zakirov M. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 81-85.

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 8-SINF O'QUVCHILARIGA  
INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI  
O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI**

*Nazarova Shaxnoza Shokirovna,  
Namangan muhandislik-qurilish instituti,  
"Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari"  
kafedrası stajor o'qituvchisi  
tel: +998902154990*

**Annotasiya.** Bu maqolada "Umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilariga Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning innovatsion yondashuvlari" mavzusida muhim yondashuvlar ko'rsatilgan. Bu yondashuvlar Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganishda innovatsion yaklasimlar va usullar bilan bog'liqdir. Maqola, o'qituvchilar uchun bir qadam yo'riqnoma sifatida foydalanish mumkin. Maqolada, 8-sinf o'quvchilariga Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish uchun quyidagi innovatsion yondashuvlar belgilanishi mumkin: Amaliyotga asoslangan o'qish usullari: Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda teorik bilimlarni amaliyotga o'tkazish va bu asosda o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar yaratish muhimdir. Bu usul o'quvchilarga konseptlarni tushunishda va ularni amaliyotda qo'llashda yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** interaktiv dars-usullar, massivlashtirilgan o'qitish, virtual ta'lim, online platformalar, kompyuter dasturlari bilan amaliyotlar, texnologiyalar integratsiyasi, muvofiqo'tli ta'lim dasturlari, multimedialarni ishlatish, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi aloqalar, e-grading (elektron baholash), ta'limning gamifikatsiyasi, ta'limda nutqiy va vizual yordam.

Informatika va axborot texnologiyalari bugungi kunda dunyo bo'ylab har bir soha uchun muhim va qo'llaniladigan fanlar bo'lib, shaxsiy rivojlantirishdan korxonahodimlarining kasbiy bilimlari o'qitishiga qadar o'quvchilarning hayotini ham o'zgartiradi. O'zgaruvchan va tez rivojlanayotgan axborot texnologiyalari dunyo bilan bog'liq bo'lgan har bir sohani ta'sir qilmoqda. Bu sababli, ularni o'rganish va ulardan samarali foydalanish muhimdir. Bu maqolada, umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilariga informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning innovatsion yondashuvlarini o'rgatishning ahamiyati va muhim yo'nalishlari ko'rsatiladi.

"Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning innovatsion yondashuvlari bilan bog'liq nomli bir necha muhim masalalar mavjud:

1. Interaktiv darsliklar: Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda, interaktiv darsliklar foydalanishga qo'yilgan bo'lsa, o'quvchilar

o'zlashtirilgan tajriba yasab olishadi. Bu, multimedia elementlari, animatsiyalar, video materiallar va interaktiv testlar orqali o'quvchilarni qiziqtirib, ularning bilimlarini amalga oshirishga yordam beradi.

2. Murakkab masalalar va loyihalar: Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning boshqa bir innovatsion yondashuvi murakkab masalalar va loyihalar orqali o'quvchilarni o'z fikrlarini bajarishga va yaratishga rag'batlantirishdir. O'quvchilar biron bir masala yechishda yoki o'zlariga qiziqishga olib kelgan loyiha ustida ishlashda o'zlarining muhokama, yaratish va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

3. Virtual ta'lim: Virtual ta'lim tizimlari, o'quvchilarga kompyuter orqali uzoq masofadan dars olish imkonini beradi. Virtual ta'lim orqali, o'quvchilar darslarga onlayn ravishda qatnashib, darslardan foydalanish, dars vaqtlarini rejalashtirish, interaktiv vazifalar bajarish va o'qituvchilar bilan aloqada bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Informatika laboratoriyalari: Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning innovatsion yondashuvlari orasida laboratoriya asosida o'rganish muhim o'rin tutadi. Informatika laboratoriyalari o'quvchilarga kompyuterlar, Internet, texnik vositalar va muharrirlik dasturlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu laboratoriyalar o'quvchilarga amaliyotiy bilimlarni o'rganish, dasturiy ta'minotlardan foydalanish va ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

5. Internet resurslari va onlayn platformalar: Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda onlayn resurslardan va platformalardan foydalanish, o'quvchilarga samarali o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu onlayn platformalar bilan o'quvchilar o'zlariga mos keladigan darslardan, kurslardan va o'quv materiallaridan foydalanishlari mumkin.

6. Texnik muassasalar va startaplar bilan hamkorlik: O'quvchilarni innovatsion fikrlarni amalga oshirish va loyihalar yaratishga rag'batlantirish uchun texnik muassasalar va startaplar bilan hamkorlik o'rnatish muhimdir. O'quvchilar texnik muassasalarda va startaplar ichida ishlash orqali, o'zlarining yaratuvchanlik va innovatsion qobiliyatlari rivojlanishi, boshqa sohalardagi mutaxassislar bilan hamkorlik qilish va texnik yechimlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu nomlarda ko'rsatilgan innovatsion yondashuvlar, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning samaradorligini oshiradi va o'quvchilarni muvaffaqiyatli va ko'nikmali axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar bo'lib yetishtirish imkonini beradi.

Qo'llanilgan dars-usul va texnologiyalar: Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar yo'qotilmamalik, balki yangi dars-usullar va texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Interaktiv dars

usullari, kompyuter va mobil qurilmalardan foydalanish, onlayn ta'lim vositalarini ishlatish, virtual va kamerali ta'lim vositalarini qo'llash va boshqalar kabi yangiliklar o'quvchilar uchun o'rgatish jarayonini yanada qiziqarli va o'rganishga qiziqarli qila oladi.

Tushunchalarni amaliyotga asoslash: Teorik bilimlarni o'rganish bilan birga, tushunchalarini amaliyotga o'tkazish ham ahamiyatli bo'ladi. O'quvchilar o'zlashtirilgan mashqlar va muhokama jarayonlarida o'zlarini sinashlari, muammoni hal qilish va ish yechish tajribasini olishlari kerak. Bu, ularning o'zlashtirilgan bilimlarini oshirishga va muammolar yechishda innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.

Xalqaro hamkorlik va taqiqlovchi ta'lim: Informatika va axborot texnologiyalari global dunyoga mos keluvchi sohalardir. O'quvchilar o'z fikrlarini, loyihalarini va yechimlarini xalqaro hamkorlar bilan almashish orqali qo'llanmasi mumkin bo'lgan texnologiyalar bilan taqiqlovchi ta'limni o'rganishlari kerak. Bunday ko'rsatmalarga qatnashish orqali, ular dunyodagi yangiliklardan, boshqalar bilan tajribalar almashish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Loyihalar va maslahatlar: Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganish jarayonida o'quvchilarga shaxsiy loyihalar yaratish imkoniyati berish juda muhimdir. O'quvchilar boshqalarga fikr bildirish, maslahat olish va o'z loyihalarini ijro etish orqali o'zlarini rivojlantirishlari mumkin bo'ladi. Maslahatlar olish jarayonida o'quvchilar uchun mentordan yoki professional axborot texnologiyalari mutaxassisidan yordam olish, loyihalarni amaliyotga o'tkazish va natijalarni baholashning yanada samarali usullarini qo'llash tavsiya etiladi.

Yaratuvchanlik va qo'llanuvchilik: Innovatsion yondashuvlarni o'rganish jarayonida yaratuvchanlik va qo'llanuvchilikni oshirishga e'tibor berish muhimdir. O'quvchilarning o'zlarining fikrlarini o'zgartirish, yangiliklarni qabul qilish va ularni muammolarni yechish uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llashga o'rgatish orqali ularni o'zlarini yangilashga va inobatga olishga qo'llab-quvvatlash kerak.

Xulosa: Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning innovatsion yondashuvlari, o'quvchilarning fikrini o'zgartirish, loyihalar yaratish va amaliyotga o'tkazishni qo'llab-quvvatlash orqali ularni rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon o'quvchilarni eng so'nggi texnologiyalarni o'rganishga, dunyodagi yangiliklardan foydalanishga va ularning mustaqil fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi. Bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga, kelajakdagi hayotlarida ilg'or vazifalarni bajarishga va muvaffaqiyatli fuqarolar sifatida faol ishtirok etishga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Turgunov, S. T., and M. A. Umaralieva. "Development of professional skills and competencies of teachers." Tashkent" Sano-standart". Tashkent.–2012 (2012).
2. Ismoilov, T. I. "The importance of forming youth life strategy in an informed society." EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) 6.8: 536-538.
3. Islamovich, Ismailov Temurbek. "Democracy and youth: formation of democratic values." European science review 5-6 (2019): 112-114.
4. Ниязова, Н. А., and Ш. Ш. Назарова. "Техника олий таълим муассасаси битирувчисининг рақобатбардошлигини ривожлантириш." Research Focus 1.1 (2022): 86-91.
5. Турдалиев, В. М., С. Р. Комилов, and Ш. Ш. Назарова. "Ўқлараро масофаси ўзгарувчан занжирли узатманинг ўқлараро масофасини ҳисоблаш." механика ва технология илмий журнали 3 (2021): 29.
6. Nazarova, Sh, MB Madraximova, and IA Nazarov. "Kasb-hunar ta'limi maktablari o'qituvchilarida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari." Экономика: 181-184.

## УЧАСТИЕ АДВОКАТА В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ КАСАЮЩИХСЯ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ ДЕТЕЙ

*Курбанов Рустам Бобурбекович*

*Магистрант Самаркандского государственного университета имени  
Шарофа Рашидова.*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены основы участия адвоката в защите законных прав и интересов несовершеннолетних в гражданском судопроизводстве, в том числе нормативно-правовые акты регулирующие данный процесс в Республике Узбекистан.

**Ключевые слова:** Гражданское судопроизводство, адвокат, дети в контакте с законом, защита законных прав и интересов детей.

В научно исследовательских работах, проблеме адвокатской деятельности по оказанию юридической помощи несовершеннолетним в гражданском процессе, авторы уделяют недостаточно внимания, делая акцент на особенностях деятельности адвоката по защите прав и интересов несовершеннолетнего в уголовном процессе. В первую очередь, это связано с общим количеством дел с участием адвоката в гражданском судопроизводстве. Для наглядности, необходимо привести таблицу с соотношением рассмотренных гражданских дел, долю в которых участвовали адвокаты. Данная таблица была создана на основе открытых данных

предоставленных Палатой Адвокатов и Верховным Судом Республики Узбекистан.



Основываясь на данных цифрах, можно сделать вывод что количество дел с участием несовершеннолетних и адвоката в качестве законного представителя крайне мала, но это не уменьшает приоритетность изучения данных категорий дел в гражданском судопроизводстве.

Гражданский процессуальный кодекс Республики Узбекистан содержит нормы, регулирующие порядок гражданского судопроизводства, и выделяет следующие стадии гражданского процесса:

Возбуждение гражданского дела.

Подготовка гражданского дела к судебному разбирательству.

Судебное разбирательство.

В силу закона Республики Узбекистан "Об адвокатуре", адвокат, наделен полномочиями, получить необходимые сведения для ведения дела. Деятельность адвоката по оказанию помощи несовершеннолетнему в гражданском деле, в досудебной стадии включает: предварительную оценку перспектив гражданского дела. Куда входит изучение материалов дела, фактических обстоятельств дела, изучение судебной практики. Далее адвокат определяет, какие нормативно-правовые акты подлежат использованию в деле, круг необходимых доказательств по делу для оказания юридической помощи несовершеннолетнему.

По согласованию с доверителем, адвокат может провести переговоры по примирению сторон и разрешение дела мирным путем, или же воспользоваться восстановительным правосудием.

При подготовке дела к рассмотрению в суде, адвокату необходимо определить подведомственность, и подсудность гражданского дела подготовить необходимые ходатайства, составить исковое заявление и направить его в суд.

Процессуальные полномочия адвоката-представителя предусмотрены в ст. 69 ГПК РУз. Как усматривается из этой статьи, в гражданском процессе адвокат выполняет функции представителя стороны или третьего лица для оказания юридической помощи и защиты нарушенных и оспариваемых прав и законных интересов несовершеннолетнего. Для осуществления действий по распоряжению правом представляемого (отказ от иска, признание иска, заключение мирового соглашения, медиация, т.д.) адвокат должен иметь специальную доверенность. Полномочия адвоката могут удостоверяться также ордером, выданным соответствующим адвокатским образованием, который дает ему право только на совершение процессуальных действий, не связанных с распоряжением материальными правами доверителя.

С полным перечнем прав и порядком назначения представителя можно ознакомиться в Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан «О применении судами норм гражданского процессуального законодательства о представительстве», от 14.05.2010 г. № 05.

Разумеется, родители могут обеспечить защиту прав ребенка самостоятельно. Но для того, чтобы рассчитывать на успех, необходимо иметь юридическое образование и практический опыт ведения подобных дел. Участие квалифицированного адвоката в разрешении спорных ситуаций обеспечит защиту прав несовершеннолетнего всеми доступными правовыми средствами. Полагаем, что мнение Е. Н. Калачевой, о том, что несовершеннолетние должны получать квалифицированную юридическую помощь, независимо от материального благополучия семьи, независимо от территориального нахождения, подчеркивает проблематику данной темы.

#### Литературы

1. Статистика Верховного Суда Республики Узбекистан по гражданским делам. <https://stat.sud.uz/fib.html>
2. Отчёт о проделанной работе Палаты адвокатов Министерству Юстиции РУз <https://paruz.uz/uploads/2023/02/j-ucun-hisobot23>
3. Гражданский процессуальный кодекс Республики Узбекистан (Утвержден Законом РУз от 22.01.2018 г. N ЗРУ-460).
4. Калачева Е.Н. Деятельность адвоката по оказанию юридической помощи несовершеннолетним; Монография Москва; Федеральная палата адвокатов, 2017. – 175 с.
5. Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан, от 14.05.2010 г. № 05. / <https://lex.uz/ru/docs/2414105#2415165>.
6. Проблемы реализации несовершеннолетними права на квалифицированную юридическую помощь в гражданском процессе.

[Электронный ресурс] / Е.Н. Калачева // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА) .— 2014 .— №1 .— С. 96-101 .— Режим доступа: <https://rucont.ru/efd/468363>

**GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY  
FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER  
METODINING QULAYLIKLARI ("O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kursi  
misolida)**

*Atabayeva Mavjuda Rustamovna*  
*UrDU akademik litseyi geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Geografiya darslarida o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini takomillashtirish uchun muammoli vaziyatlar asosida dars tashkil etish eng samarali uslubdir. Demak darsliklarimizda o'quvchi yoshiga mos shunday metodlarga tayanishimiz kerakki, u o'quvchiga tanqidiy fikrlashni o'rgatibgina qolmasdan, o'z ustida ishlashga, loyihalar tuzishga undasin, bir so'z bilan ijodkor va faol avlodni tarbiyalasin. Natijada o'quvchilar geografiyani kundalik hayotimizning ajralmas bo'lagi ekanligini tushunib, mantiqiy fikrlash darajalari o'sadi. Ushbu maqolada kelajak avlodni ana shunday bilim berish usullari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'z:** muammoli ta'lim, amaliy mashg'ulotlar tabiat qo'ynida bajarish, o'quv atlalari, xarita, yozuvsiz xaritalar, klaster metodi, tanqidiy fikrlash ko'nikmasi.

Geografiya eng qadimgi fan sifatida kishilik jamiyatining ilk kunlaridan u bilan hamroh, sirdosh, ko'makdosh sifatida rivojlanib kelayotgan mantiqlar jamlanmasidir. Zero, u turli davrlar tabiati va xo'jaligini o'z vaqtiga mos ravishda ifodalab kelmoqda. Inson xo'jalik faoliyatini yuritar ekan, hamisha unga geografik ma'lumotlar zarur bo'ladi. Bu esa har zamon odamlaridan tabiatni anglash orqali xo'jalik yuritish zarurligini his etishga undaydi.


1. Yuqorida ta'kidlaganimdek geografiya tabiatdan xo'jalikda foydalanish amaliyotini ishlab chiqadi. Demak darsliklarimizdagi bilimlarni o'quvchiga o'rgatish jarayonida o'quvchi yoshiga mos shunday metodlarga tayanaylikki, u o'quvchiga darslik matnidagi bilim ko'nikmalar haqida tanqidiy mulohaza yuritib, loyihalar tuzishga undasin, bir so'z bilan ijodkor kreativ avlodni tarbiyalasin.


2. Dars jarayonida amaliy mashg'ulot darslarida tabiat qo'ynida bajarishga mo'ljallangan topshiriqlar bazasini shakllantirish lozimki, bu o'quvchilarda mahalliy hudud, ona vatanining geografiyasini har tomonlama mukammal kashf etilishga undasin.

3. Oquv atlaslari, xaritalar va yozuvsiz xaritalar geografiya fanining eng muhim qurollaridir. Ularning o'rnini boshqa biror ko'rgazma bosa olmaydi. Atlas, yozuvsiz xarita, topografik xarita har bir o'quvchi qo'lida bo'lishi zarur. Afsuski atlas va qo'shimcha kartalarimiz hali hanuzgacha ijara tizimiga kiritilmasdan kelyapti, bu esa o'quvchilarda uni doimo sotib olishda noqulaylik tug'dirmoqda, fikrimcha ushbu qo'llanmalarni erkin savdodan ijara tizimi safiga tortilishi juda o'rinli.

4. Mahalliy geografiyani, ya'ni ona vatan tabiatini o'rganishni kuchaytirish zarur.

5. O'zbekiston tabiiy geografiyasida o'lkamiz tuproq, o'simliklari va hayvonot olami mavzusida darslik matnidagi ma'lumotlar qiyinchilik tug'diradi, bu ma'lumotlarni jadvali yoki klasterli sxema shaklida berilsa yanada qiziqarliroq va o'rganish uchun osonroq bo'lardi. Masalan: Mamlakatimiz tuproqlarini rasmi klaster ko'rinishida berilib undan so'ng qiziqarli ma'lumotlarini klaster ko'rinishda davom qildirilsa tez va oson o'zlashtiriladi.





Shu o'rinda aloxida ta'kidlash joizki, geografiya darslarida o'quvchilarning mustaqil tanqidiy fikrlashini takomillashtirish uchun muammoli vaziyatlar asosida dars tashkil etish metodikaning eng samarali uslubidir.

Demak, dars jarayonida quyidagi klasteri topshiriq sifatida berilsa, matndagi manbalar asosida klasteri davom qildirilsa dars jarayoni bahs-munozarali tarzda o'tadi. Ko'rinib turibdiki, dars jarayonini bahs-munozarali tarzda shakllantirish uchun interfaol metodlarni qo'llash katta ahamiyat kasb etadi, xususan klaster metodiga rasmi klasteri tadbiiq qilgan holda topshiriqlarni shakllantirsak mavzuni o'rganish yanada osonlashadi, va o'quvchilar o'rtasida tanqidiy fikrlash va bahs-munozarali muhit shakllanadi, hamda dars qiziqarli tarzda o'tadi. Umuman olganda, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan noan'anaviy texnologiyalar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, hamkorlik muhitini shakllantiradi va ularga ijodiy erkinlik, o'z-o'zini hurmat qilishlik hissini beradi. "Ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizda har bir farzandni "bu mening farzandim, ertangi kunimning poydevori, zamini" deb tarbiya qilsak albatta natijaga erishamiz"<sup>1</sup>. Albatta kelajak avlodimiz bo'lmish yoshlar tarbiyasida aslo xatoga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

<sup>1</sup> 29-dekabr.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro kongress markazida o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvidagi nutqidan.

**Foydalangan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 29-dekabrda Xalqaro kongress markazida o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvidagi nutqidan
2. Tolipov O'. Pedagogik texnologiya (Nazariya va amaliyot) Toshkent : "Fan" 2005
3. Zagashev I., Zair-Bek S. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi [matn]/ I. Zagashev, S. Zair-Bek.- Sankt-Peterburg.: "Skifiya" va "Alyans Delta", 2003 - 284 b.
4. Mushtavinskaya, I.V. Darsda va o'qituvchi tayyorlash tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi [matn]/ I. V. Mushtavinskaya. – M.: Karo, 2009. - 144 b.

**TALABALARNING GAPIRISH MALAKASINI BAHOLASHDA  
NAZORAT TAMOYILLARI**

**Turobova M.**

*O'zDJTU tayanch-doktorant*

**Kalit so'zlar:** nazorat tamoyillari, baholash, kommunikativ yondashuv, dialogic nutq, monologik nutq.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish va ularning metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etayotganligidan kelib chiqqan holda, shularni alohida qayd etishimiz lozimki, ta'lim tizimini takomillashtirish borasidagi o'zgarishlarni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni egallagan yetuk kadrlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-sonli «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi «Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 610-son qarori, shuningdek, boshqa bir qator - hujjatlarda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitishning sifatini va samaradorligini oshirish borasida ko'plab vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalar qatorida, «xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini

rivojlantirish» asosida ta'lim sifatini yanada oshirish masalasi muhim o'rin tutganligini qayd etishimiz lozim.

Chet tillarini o'rgatishning xorijiy usullari bo'yicha test nazorati muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy lingvodidaktik testning istiqbolli yo'nalishlaridan biri kommunikativ kompetensiyani baholashga asoslanadigan kommunikativ nazorat usullaridir.

Kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: 1) samarali muloqot qilish maqsadi, 2) muloqot qilish uchun tilni o'rganish, 3) ma'no va to'g'ri foydalanishga e'tibor berish, 4) ravonlik va aniqlikka e'tibor berish, 5) haqiqiy materiallardan foydalanish. real hayotiy vaziyatni aks ettiradi va 6) to'rtta ko'nikma (gapirish, yozish, o'qish va tinglash) integrasiyasi.

O'qituvchi assesmentning samarali, kurs kontentiga bog'langan, foydali va autentikligini bilishda besh tamoyilga yuzlanadi. Mazkur tamoyillar assesment turining o'rinligini baholashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Bular samaradorlik (Practicality), ishonchlilik (Reliability), yaroqlilik (Validity), qayta aloqa (Washback) va autentiklik (Authenticity).<sup>2</sup>

Tamoyillarning birinchisi samarador, aniq va tushunarli bo'lishi uchun bir qancha misollar keltiramiz. O'qituvchi assesment tuzish jarayonida quyidagi omillarga ahamiyat berishi shart:

- 1) assesment tashkillashtirishda sarflanadigan mablag';
- 2) assesment tuzishga va tekshirishga ketadigan vaqt;
- 3) assesment jarayonini kuzatish;
- 4) assesment natijalarini baholashda ishlatiladigan vositalar.<sup>3</sup>

Yuqorida keltirilgan omillar inobatga olinsa, assesment samarali bo'ladi, aks holda samarasiz deb tan olinadi. Misol uchun talabalarining gapirish malakasini baholash maqsadida o'tkaziladigan assesment jaraenida har bir talaba bilan yuzma-yuz suhbat o'tkaziladi. Ammo guruhda 30 nafar talaba mavjud. O'qituvchi bir talaba bilan suhbat o'tkazguncha qolgan 29 talaba bekor o'tiradi. Demak, bunday assesment samarasiz bo'lib, unga ajratilgan vaqt samarali taqsimlanmagan.<sup>4</sup>

Tamoyillarning ikkinchisi – ishonchlilik (reliability). Bu tamoyil assesmentning ishonchli va izchil bo'lishini taqozo etadi. Arthur Huggesning fikriga ko'ra, assesmentning ishonchsizligi uning aniq bo'lmasligiga olib keladi. Uning ta'kidlashicha, assesment turi natijaning doimiyligini ta'minlab bersa,

<sup>2</sup> Мурадқасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабалар кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари: Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. –Т.: 2019

<sup>3</sup> Brown Ch. Principles of language Assessment. –2002.

<sup>4</sup> Мурадқасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабалар кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари: Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. –Т.: 2019

ishonchli bo'ladi, ya'ni talaba bir assesmentni turli vaqt oralig'ida, turli sharoitda topshirsa-da, natijasi o'zgarmasa bunday assesment ishonchlidir.<sup>5</sup>

Dialogik nutqning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda uning ikki darajasini hisobga olish kerak. Birinchi darajada, joriy nazorat ob'yektlari nafaqat fonetik, leksik bilan ishlash qobiliyatidir va grammatik material, balki muloqot vaziyatida, ma'lum bir mavzuda yoki namunaviy matn bilan berilgan takrorlash qobiliyati. Ikkinchi bosqichda tayyorlanmagan dialogda dialogik nutqning nutqiy malakalari takomillashtiriladi va yuqoridagi barcha ko'nikmalar o'z umumiyligida, shuningdek, o'zaro ta'sir ko'nikmalari yakuniy nazoratdan o'tkaziladi.

Monologik va yozma nutq ko'nikmalari ikki darajaga ko'ra shakllanadi – reproduktiv va produktiv. Reproductiv darajada joriy nazorat ob'yektlari monolog va yozma nutqni amalga oshirishning rasmiy ko'rsatkichlari (masalan, so'zning hajmi), lingvistik to'g'rilik, shuningdek, nutqni qurish mantig'i, boshlash qobiliyati, Har xil turdagi monologlardan foydalangan holda, muloqot sharoitida, ma'lum bir mavzuda yoki namunaviy matn bilan berilgan nutqni kengaytirish va tugatish. Samarali darajada yuqoridagi barcha ko'nikmalar namunaga tayanmasdan tayyorlanmagan bayonotda yakuniy nazoratdan o'tkaziladi.

Bizga ma'lumki, chet tili o'qituvchilari dars jarayonida ikki vazifani amalga oshirishlari lozim: ta'lim berish va nazorat qilish. Fan o'qituvchilari talaba testni yoki imtihonni topshira olishi, kurs mazmuni va dars berish jarayonining samarali kechishi haqida o'z mulohazalarini bildirishadi.

Nutq ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi, ochiq va rivojlanadi va bu o'quvchilardan nafaqat tilning ma'lum nuqtalarini (grammatika, talaffuz yoki lug'at) yaratishni bilishni emas, balki lingvistik kompetensiyani, shuningdek, qachon, nima uchun, va tilni qanday yo'llar bilan ishlab chiqarish (ijtimoiy lingvistik kompetensiya).

#### Adabiyotlar ro'yhati

1. Мурадқасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабалар кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари: Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. –Т.: 2019
2. Brown Ch. Principles of language Assessment. –2002.
3. Мурадқасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабалар кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари: Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. –Т.: 2019
4. Arthur H. Testing for language teachers. – Cambridge University Press; Second edition, 2003. – P.75-82.

<sup>5</sup> Arthur H. Testing for language teachers. – Cambridge University Press; Second edition, 2003. – P.75-82.

**KIBER JINOYATCHILIK GLOBAL MIQIYOSDA TEZ  
RIBOJLANAYOTGAN JINOYAT SHAKLI SIFATIDA***Baxtiyorjon Mirzaolimov**Toshkent davlat yuridik universiteti**Kiber huquq fakulteti magistiri**E-mail: mirzaolimovbaxtiyorjon@gmail.com**Tel: 99 690 65 12*

**Annotasiya.** Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda kiberjinoatlarning soni va turlari kundan kunga ko'payib, turli xil muammolarga, shuningdek ba'zi hollarda esa aholi orasida o'zlarining shaxsiyati va mol-mulki kiber jinoyat obyektiga aylanib qolishidan qo'rquv paydo bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida O'zbekistonda kiberjinoatlar, hozirgi muammolar va kiberjinoatlarga qarshi kurashish, kiber jinoyatchilikning turlari, ularning alomatlari, ular aholining qaysi qatlami orasida ko'proq sodir bo'layotgani, ulardan qanday himoyalani zarurligi, kiber jinoyatchilikka qarshi aholining barcha qatlami orasida huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish, ya'ni fuqarolarga kiber jinoyatchilikning tashqi belgilari va ulardan qanday birlamchi himoyalani mumkinligi haqida ma'lumotlarni yetkazish orqali imunitet hosil qilish masalalari tahlil qilingan. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun chet davlatlari tajribalari, hozirgi kunda sodir etilayotgan kiber jinoyatchiliklarning tahlili, sodir etilgan kiber jinoatlarga keltirilgan misollar va tahlil natijasida ularning eng ma'qulini aniqlash bo'yicha ish amalga oshirilgan.

**Annotation.** As we all know, today the number and types of cybercrimes are increasing day by day, causing various problems, and in some cases, fear among the population that their identity and property will become the object of cybercrime. is happening In this master's thesis, the types of cybercrime, their symptoms, among which strata of the population they occur more often, how to protect against them, the development of legal awareness and culture among all strata of the population against cybercrime, that is, external signs of cybercrime to citizens and the issues of creating immunity by providing information on how to protect themselves from them were analyzed. In order to carry out this analysis, the experience of foreign countries, the analysis of cyber crimes committed at present, the examples of cyber crimes committed and the analysis of the best ones were carried out.

Kiber jinoyatchilik nima va uning qanday turlari bor?

Kiberjinoat - bu kompyuter, tarmoq qurilmasi yoki tarmoq bilan bog'liq har qanday jinoiy faoliyat. Aksariyat kiberjinoatlar foyda keltirish maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa-da, ba'zi kiberjinoatlar to'g'ridan-to'g'ri kompyuterlar yoki

qurilmalarga zarar etkazish yoki o'chirish uchun amalga oshiriladi. Boshqalar zararli dasturlar, noqonuniy ma'lumotlar, tasvirlar yoki boshqa materiallarni tarqatish uchun kompyuterlar yoki tarmoqlardan foydalanadilar.<sup>6</sup> Ba'zi kiberjinoyatlar ikkalasini ham qiladi, ya'ni kompyuter virusi ularni yuqtirish uchun kompyuterlarni nishonga oladi, keyinchalik u boshqa mashinalarga va ba'zan butun tarmoqlarga tarqaladi. Kiberjinoyatning asosiy ta'siri moliyaviydir. Kiberjinoyatlar daromadga asoslangan jinoiy faoliyatning ko'plab turlarini, jumladan, to'lovga qarshi hujumlar, elektron pochta va internetdagi firibgarlik va shaxsiy ma'lumotlarga oid firibgarliklarni, shuningdek, moliyaviy hisob, kredit karta yoki boshqa to'lov kartasi ma'lumotlarini o'g'irlashga urinishlarni o'z ichiga olishi mumkin. Kiberjinoyatchilar o'g'irlik va qayta sotish uchun shaxsning shaxsiy ma'lumotlarini yoki korporativ ma'lumotlarini nishonga olishlari mumkin. Misol uchun, pandemiya tufayli ko'plab ishchilar uzoqdan ishlash tartibiga o'tilganligi sababli, 2021-yilda kiberjinoyatlar tez-tez o'sishi kuzatildi, bu esa ma'lumotlarning zaxira nusxasini himoya qilish ahamiyatini oshirdi.<sup>7</sup> AQSh Adliya vazirligi (DOJ) kiberjinoyatlarni uch toifaga ajratadi: hisoblash qurilmasi nishonga olingan jinoyatlar - masalan, tarmoqqa kirish uchun; kompyuterdan qurol sifatida foydalaniladigan jinoyatlar - masalan, xizmat ko'rsatishdan bosh tortish (DoS) hujumini boshlash; va kompyuter jinoyatga qo'shimcha vosita sifatida qo'llaniladigan jinoyatlar - masalan, noqonuniy olingan ma'lumotlarni saqlash uchun kompyuterdan foydalanish. AQSH imzolagan Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konventsiyasi kiberjinoyatchilikni keng qamrovli zararli harakatlar, jumladan, ma'lumotlarni noqonuniy ushlab, tarmoq yaxlitligi va mavjudligiga putur yetkazuvchi tizim aralashuvlari va mualliflik huquqining buzilishi sifatida belgilaydi. Internetga ulanish zarurati kiberjinoyatchilik faoliyatining hajmi va sur'atini oshirishga imkon berdi, chunki jinoyat sodir etganda jinoyatchi jismonan hozir bo'lishi shart emas. Internet tezligi, qulayligi, anonimligi va chegaralarning yo'qligi to'lov dasturi, firibgarlik va pul yuvish kabi moliyaviy jinoyatlarni, shuningdek, ta'qib qilish va bezorilik kabi jinoyatlarni kompyuterga asoslangan o'zgartirishni osonlashtiradi. Kiberjinoyatchilik faoliyati nisbatan kam texnik malakaga ega bo'lgan shaxslar yoki guruhlar tomonidan yoki yuqori darajada uyushgan global jinoiy guruhlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin, ular orasida malakali ishlab chiquvchilar va tegishli tajribaga ega bo'lgan boshqalar ham bo'lishi mumkin. Aniqlash va jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatlarini yanada kamaytirish uchun kiberjinoyatchilar ko'pincha

<sup>6</sup> <https://www.linkedin.com/pulse/who-most-likely-victim-cybercrime-andrew-hartley>

<sup>7</sup> <https://www.google.com/search?q=experience+against+cybercrime&oq=experience+against+cybercrime+&aqs=chrome..69i57j33i160l5.74097j0j7&client=ms-android-xiaomi-rev1&sourceid=chrome-mobile&ie=UTF-8#ip=1>

<sup>8</sup> <https://www.coe.int/en/web/cybercrime/glacypus>

kiberjinoyat qonunlari zaif yoki mavjud bo'lmagan mamlakatlarda faoliyat yuritishni afzal ko'radilar. Kiberjinoyat hujumlari raqamli ma'lumotlar, imkoniyat va motiv mavjud bo'lgan joyda boshlanishi mumkin. Kiberjinoyatchilar orasida kiberbulling bilan shug'ullanuvchi yolg'iz foydalanuvchidan tortib, Xitoy razvedka xizmatlari kabi davlat tomonidan homiylik qilinadigan aktyorlargacha bo'lishi mumkin. Kiberjinoyatlar odatda vakuumda sodir bo'lmaydi; ular ko'p jihatdan tabiatda tarqalgan. Ya'ni, kiberjinoyatchilar odatda jinoyatni yakunlash uchun boshqa aktyorlarga tayanadilar. Bu kodni sotish uchun qorong'u Internetdan foydalanadigan zararli dastur yaratuvchisimi, virtual pullarni eskrowda saqlash uchun kriptovalyuta brokerlaridan foydalangan holda noqonuniy farmatsevtika vositalarini tarqatuvchimi yoki intellektual mulkni (IP) o'g'irlash uchun texnologiya subpudratchilariga tayanadigan davlat tahdidi aktyorlarimi. Kiberjinoyatchilar o'zlarining kiberhujumlarini amalga oshirish uchun turli hujum vektorlaridan foydalanadilar va doimiy ravishda o'z maqsadlariga erishish uchun yangi usullar va usullarni izlaydilar, shu bilan birga aniqlash va hibsga olishdan qochadilar. Kiberjinoyatchilar ko'pincha o'z faoliyatini zararli dasturlardan va boshqa turdagi dasturiy ta'minotdan foydalangan holda amalga oshiradilar, ammo ijtimoiy muhandislik ko'pincha kiberjinoyatlarning aksariyat turlarini amalga oshirish uchun muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Fishing elektron pochta xabarlari ko'plab kiberjinoyatlarning yana bir muhim tarkibiy qismidir, lekin ayniqsa maqsadli hujumlar uchun, masalan, ishbilarmonlik elektron pochta kelishuvi (BEC), bunda tajovuzkor xodimlarni soxta hisob-fakturalarni to'lashga ishontirish uchun elektron pochta orqali o'zini biznes egasi sifatida ko'rsatishga harakat qiladi.<sup>9</sup>

Yuqorida aytib o'tganimizdek, kiberjinoyatlarning ko'p turlari mavjud. Aksariyat kiberjinoyatlar tajovuzkorlar tomonidan moliyaviy foyda olishni kutish bilan amalga oshiriladi, ammo kiberjinoyatchilarning pul olish usullari har xil bo'lishi mumkin. Kiberjinoyatlarning ayrim turlariga quyidagilar kiradi:<sup>10</sup>

Kiber tovlamachilik: hujum yoki hujum tahdidi va hujumni to'xtatish uchun pul talab qilish bilan bog'liq jinoyat. Kiber tovlamachilik shakllaridan biri bu to'lov dasturi hujumidir. Bu erda tajovuzkor tashkilot tizimlariga kirish huquqiga ega bo'ladi va uning hujjatlari va fayllarini har qanday qiymatga ega bo'lgan narsalarni shifrlaydi to'lov to'lanmaguncha ma'lumotlarga kirish imkoni bo'lmaydi. Odatda, bu bitkoin kabi kripto valyutasining qandaydir ko'rinishida bo'ladi.

<sup>9</sup> <https://www.routledge.com/Cybercrime-and-its-victims/Martellozzo-Jane/p/book/9780367226701>

<sup>10</sup> <https://www.rusi.org/explore-our-research/publications/occasional-papers/experience-cybercrime-georgia-awareness-victimisation-and-reporting>

Cryptojacking: foydalanuvchining roziligisiz brauzerlarda kriptovalyutalarni qazib olish uchun skriptlardan foydalanadigan hujum. Cryptojacking hujumlari qurbonning tizimiga kriptovalyutani qazib olish dasturini yuklashni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, ko'plab hujumlar, agar foydalanuvchi brauzerida zararli saytdagi yorliq yoki oyna ochiq bo'lsa, brauzerda qazib olishni amalga oshiradigan JavaScript kodiga bog'liq. Zararli dasturiy ta'minotni o'rnatish shart emas, chunki ta'sirlangan sahifani yuklash brauzer ichidagi kodni amalga oshiradi.

Shaxsni o'g'irlash: shaxs foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish uchun kompyuterga kirganida sodir bo'ladigan hujum, keyinchalik ular ushbu shaxsning shaxsini o'g'irlash yoki bank va kredit kartalari kabi qimmatli hisoblariga kirish uchun foydalanadilar. Kiberjinoyatchilar moliyaviy hisoblarni, 11 shuningdek, video oqim xizmatlari, veb-pochta, video va audio oqimlar, onlayn auksionlar va boshqalar kabi boshqa hisob turlarini taklif qilib, darknet bozorlarida shaxs ma'lumotlarini sotib oladi va sotadi. Shaxsiy sog'liq ma'lumotlari shaxsiy o'g'irilar uchun yana bir tez-tez nishonga olinadi.<sup>12</sup>

Kredit kartalari bo'yicha firibgarlik: xakerlar o'z mijozlarining kredit kartalari yoki bank ma'lumotlarini olish uchun chakana sotuvchilar tizimlariga kirib kelganida sodir bo'ladigan hujum. O'g'irlangan to'lov kartalarini ommaviy ravishda kredit kartalarini o'g'irlagan xakerlik guruhlar quyidagi darajadagi kiberjinoyatchilarga sotish orqali daromad olishadi, ular shaxsiy hisoblarga nisbatan kredit kartalari bilan firibgarlik yo'li bilan foyda ko'rishadi.

Kiberjosuslik: Hukumat yoki boshqa tashkilot tomonidan saqlanadigan maxfiy ma'lumotlarga kirish uchun tizimlar yoki tarmoqlarga buzib kiber jinoyatchi ishtirokidagi jinoyat. Hujumlar foyda yoki mafkura asosida bo'lishi mumkin. Kiberjosuslik faoliyati ma'lumotlarni to'plash, o'zgartirish yoki yo'q qilish, shuningdek, maqsadli shaxs yoki guruhlariga josuslik qilish va aloqalarni kuzatish uchun veb-kameralar yoki yopiq elektron televizor (CCTV) kameralari kabi tarmoqqa ulangan qurilmalardan foydalanish uchun har qanday kiberhujumni o'z ichiga olishi mumkin. Elektron pochta xabarlar, matnli xabarlar va tezkor xabarlar.

Dasturiy ta'minot qaroqchiligi: Tijoriy yoki shaxsiy foydalanish maqsadida dasturiy ta'minot dasturlarini noqonuniy nusxalash, tarqatish va ulardan foydalanishni o'z ichiga olgan hujum. Savdo belgilarining buzilishi, mualliflik huquqining buzilishi va patent buzilishi ko'pincha ushbu turdagi kiber jinoyatlar bilan bog'liq.

<sup>11</sup> <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/kriminal-viktimologiya-asosla>

<sup>12</sup> <https://www.google.com/search?q=experience+against+cybercrime&oq=experience+against+cybercrime+&aqs=chrome..69i57j33i160l5.74097j0j7&client=ms-android-xiaomi-rev1&sourceid=chrome-mobile&ie=UTF-8>

Chiqish firibgarligi: Qorong'u veb, ajablanarli joyi yo'q, chiqish firibgarligi deb nomlanuvchi eski jinoyatning raqamli versiyasini keltirib chiqardi. Bugungi shaklda qorong'u veb ma'murlari bozordagi depozit hisoblarida saqlanadigan virtual valyutani o'z hisoblariga asosan, jinoyatchilarning boshqa jinoyatchilardan o'g'irlashiga yo'naltiradi.<sup>13</sup>

Kiber jinoyatchilarning tashqi belgilari va ularni ajrata olish masalalari

Tez-tez uchraydigan kiberjinoyat hujumlaridan ba'zilar tizimlar va tarmoqlarni o'chirish uchun ishlatiladigan taqsimlangan DoS (DDoS) hujumlarini o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi hujum tarmoqning ulanish so'rovlariga javob berish qobiliyatini oshirib, unga qarshi tarmoqning o'z aloqa protokolidan foydalanadi. DDoS hujumlari ba'zan shunchaki zararli sabablarga ko'ra yoki kiberto'plash sxemasining bir qismi sifatida amalga oshiriladi, ammo ular qurbon tashkilotni bir vaqtning o'zida amalga oshirilgan boshqa hujum yoki ekspluatatsiyadan chalg'itish uchun ham ishlatilishi mumkin. Tizimlar va tarmoqlarni zararli dasturlar bilan yuqtirish tizimga zarar etkazish yoki foydalanuvchilarga zarar etkazish uchun ishlatiladigan hujumga misoldir. Bu tizimga, dasturiy ta'minotga yoki tizimda saqlangan ma'lumotlarga zarar etkazish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ransomware hujumlari shunga o'xshash, ammo zararli dastur to'lov to'lanmaguncha jabrlanuvchi tizimlarini shifrlash yoki o'chirish orqali harakat qiladi. Fishing kampaniyalari korporativ tarmoqlarga kirish uchun ishlatiladi. Bu tashkilotdagi foydalanuvchilarga soxta elektron pochta xabarlarini yuborish, ularni biriktirmalarni yuklab olishga yoki havolalarni bosishga undash orqali bo'lishi mumkin, bu esa viruslar yoki zararli dasturlarni o'z tizimlariga, tizimlari orqali esa kompaniya tarmoqlariga tarqatadi. Hisob ma'lumotlariga hujumlar - bu kiberjinoyatchi jabrlanuvchining tizimlari yoki shaxsiy hisoblari uchun foydalanuvchi identifikatorlari va parollarini o'g'irlash yoki taxmin qilishni maqsad qilganida. Ular keylogger dasturlarini o'rnatish yoki jabrlanuvchining hisob ma'lumotlarini fosh etishi mumkin bo'lgan dasturiy ta'minot yoki apparatdagi zaifliklardan foydalanish orqali qo'pol kuch hujumlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Kiberjinoyatchilar kontentni o'zgartirish yoki o'chirish yoki ruxsatisiz ma'lumotlar bazalariga kirish yoki o'zgartirish uchun veb-saytni o'g'irlashga ham urinishi mumkin. Masalan, tajovuzkor veb-saytga zararli kodni kiritish uchun Strukturaviy so'rovlar tilini (SQL) in'ektsiya ekspluatatsiyasidan

<sup>13</sup> <https://it.rutgers.edu/2022/10/17/cybersecurity-report-finds-cybercrime-victims-are-often-millennials-and-gens-zers/>

<sup>14</sup> <https://it.rutgers.edu/2022/10/17/cybersecurity-report-finds-cybercrime-victims-are-often-millennials-and-gens-zers/>

<sup>15</sup> <https://www.google.com/search?q=the+victims+of+cybercrime&oq=the+victims+of+cyber&aqs=chrome.2.69i57j0i512j0i22i30l13.60019j0j7&client=ms-android-xiaomi-rev1&sourceid=chrome-mobile&ie=UTF-8#ip=1>

foydalanishi mumkin, bu esa veb-sayt ma'lumotlar bazasidagi zaifliklardan foydalanish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa xakerga yozuvlarga kirish va ularni buzish yoki ruxsatsiz kirishga imkon beradi. mijoz parollari, kredit karta raqamlari, shaxsiy identifikatsiya qilinadigan ma'lumotlar (PII), tijorat sirlari va IP kabi nozik ma'lumotlar va ma'lumotlarga. Kiberjinoyatning boshqa keng tarqalgan misollari orasida noqonuniy qimor o'yinlari, noqonuniy narsalarni sotish, masalan, qurollar, giyohvand moddalar yoki kontrafakt tovarlar va bolalar pornografiyasini so'rash, ishlab chiqarish, egalik qilish yoki tarqatish kiradi.

Kiberjinoyatning haqiqiy narxini aniq baholash qiyin. 2018-yilda McAfee kiberjinoyatning iqtisodiy ta'siri to'g'risidagi hisobotini e'lon qildi, unda jahon iqtisodiyotiga yillik zarari 2014-yildagi 45 milliard dollardan qariyb 600 milliard dollarga baholangan. Kiberjinoyatlar tufayli moliyaviy yo'qotishlar sezilarli bo'lishi mumkin bo'lsa-da, korxonalar jinoiy kiberhujumlar natijasida boshqa halokatli oqibatlar olib kelishi mumkin, jumladan: xavfsizlik buzilishidan keyin investor idrokiga zarar yetkazilishi kompaniya qiymatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Aktsiyalar narxining potentsial pasayishiga qo'shimcha ravishda, korxonalar kiberhujum natijasida qarz olish xarajatlarining oshishi va ko'proq kapitalni jalb qilishda katta qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Maxfiy mijozlar ma'lumotlarining yo'qolishi o'z mijozlarining ma'lumotlarini himoya qila olmagan kompaniyalar uchun jarima va jarimaga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ma'lumotlar buzilganligi sababli korxonalar sudga tortilishi mumkin. Kiberhujumdan keyin buzilgan brend identifikatori va obro'sini yo'qotish mijozlarning kompaniyaga bo'lgan ishonchini va kompaniyaning moliyaviy ma'lumotlarini xavfsiz saqlash qobiliyatini yo'qotadi. Kiberhujumdan so'ng firmalar nafaqat hozirgi mijozlarini yo'qotadilar, balki yangi mijozlarni orttirish qobiliyatini ham yo'qotadilar. Korxonalar, shuningdek, jinoiy kiberhujum natijasida to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni, jumladan, sug'urta mukofotining oshishi va kiberxavfsizlik kompaniyalarini hodisalarga javob berish va bartaraf etish uchun yollash, shuningdek, jamoatchilik bilan aloqalar (PR) va hujum bilan bog'liq boshqa xizmatlarni olishi mumkin.

Kiberjinoyatlar jamoat salomatligi va milliy xavfsizlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa kompyuter jinoyatlarini DOJning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantiradi. AQShda, federal darajada, Federal Qidiruv Byurosining (FQB) Kiberbo'limi DOJ tarkibidagi kiberjinoyatlarga qarshi kurash bilan shug'ullanadigan agentlikdir. Milliy xavfsizlik departamenti (DHS) kibermakonning xavfsizligi va mustahkamligini mustahkamlashni muhim milliy xavfsizlik missiyasi deb biladi. AQSh Maxfiy Xizmati (USSS) va AQSh Immigratsiya va bojxona nazorati (ICE) kabi agentliklar kiberjinoyatlarga qarshi kurashga bag'ishlangan maxsus

bo'limlarga ega. USSSning Elektron jinoyatlar bo'yicha ishchi guruhi (ECTF) elektron jinoyatlar, xususan, mamlakatning moliyaviy va muhim infratuzilmalariga hujumlar bilan bog'liq ishlarni tekshiradi. USSS shuningdek, shtat va mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari, sudyalari va prokurorlarni kompyuter sud ekspertizasi bo'yicha o'qitishni ta'minlaydigan Milliy Kompyuter Sud-tibbiyot Institutini (NCFI) boshqaradi. FBI, Milliy Oq yoqali jinoyatlar markazi (NW3C) va Adliyaga yordam byurosi (BJA) o'rtasidagi hamkorlik bo'lgan Internetdagi jinoyatlar bo'yicha shikoyat markazi (IC3), internet jinoyatlari qurbonlari yoki manfaatdor uchinchi shaxslarning onlayn shikoyatlarini qabul qiladi.<sup>16</sup>

### XULOSA

Internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Shu bilan birga xavfsizlik borasida ham muammolar kamaygani yo`q. Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog`lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to`g`ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo`ladi. Aynan mana shu borada ular kattalar, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma`naviy-ruhiy ko`magiga muhtoj. Shunday ekan, yoshlarga sog`lom axborot muhitini yaratib, ular ma`naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Zero, yoshlar ma`naviyatiga daxldor yumushlarda beparvolikka yo`l qo`yib bo`lmaydi. Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog`lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to`g`ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo`ladi. Aynan mana shu borada ular kattalar, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma`naviy-ruhiy ko`magiga muhtoj. Biz o`sb kelayotgan yosh avlodning media savodxonligi va Internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirishimiz lozim.

### Foydalanilgan manbalar

1. A.Abduqodirov "Axborot texnologiyalari" Toshkent 2003 yil
2. "Ziyonet" axborot ta`lim portal.
3. Multimediya.uz sayti
4. Avast! Free Antivirus: <https://www.avast.com/>
5. AVG Antivirus: <http://www.avg.com/affiliate/ww-en/free-antivirusdownloa>

<sup>16</sup> <https://f3magazine.unicri.it/?p=316>

## TIL O‘QITISH KONTEKSTIDA TALABALARNING MADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Badelbayeva Yulduz Orifjonovna*

*Toshkent shahridagi Adju universiteti o‘qituvchisi  
[yulduz.badelbaeva@mail.ru](mailto:yulduz.badelbaeva@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik zaruriyatlari, xususiyatlari, hamda talaba-yoshlarning madaniy tajribasini boyitish, talabalarning madaniy kompetensiyalarining rivojlantirishda berilayotgan yangi imkoniyatlar, shuningdek pedagogik xususiyatlar o‘rni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** talabalar, madaniy kompetensiya, integrativ yondashuv, pedagogik zaruriyat, pedagogik xususiyat, madaniy tajriba.

Talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy - pedagogik zaruriyatlar qanchalik muhim bo‘lsa, psixologik jihatdan ham muhim o‘ringa ega. Madaniy kompetentli talabalar, pedagogik xususiyatiga ega bo‘lishi kerak.

Shuni takidlash mumkinki, talaba-yoshlarning madaniy tajribasini boyitish, madaniy to‘siqlarni bartaraf etish, madaniyatlararo muloqot orqali o‘z madaniy boyligini o‘zga(lar) madaniyati durdonalari hisobiga orttirish natijasida, madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo‘lish, dunyoni tasavvur qilish, uni anglab yetish borasida so‘z bormoqda. Bu degani, begona (chet) lingvosotsium madaniyati ko‘zguisida o‘zining in’ikosini nazardan o‘tkazish yo‘li bilan ikkinchi lisoniy shaxs shakllanishiga erishiladi. J.J. Jalolov takidlashicha, madaniyatlararo muloqot va madaniyatshunoslik nazariyasida istifoda qilinayotgan madaniyat so‘zi inson tafakkuri va faoliyati mahsuli ma’nosida ta’rif tavsif etilmoqda [3].

N.M.Ahmedova fikricha, bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining yaxlitligini ta’minlash shaxsning madaniy tajribasi yaxlitligi, uning obyektiv va subyektiv jihatlari yaxlitligi haqidagi qoidaga asoslanadi. Mazkur kompetentlikni rivojlantirish yaxlit jarayoni, shu tariqa, o‘zga tilli madaniyat va ingliz tili o‘qitish sohasida to‘plangan ijtimoiy-madaniy metodik tajribani egallash jarayonlari birligi; shuningdek, talaba shaxsining kasbiy lingvistik ta’limda kasbiy faoliyat subyektivi sifatida rivojlanish yaxlitligini ta’minlashga chaqirilgan [1].

Har bir ta’lim muassasasining o‘zining talablari mavjud. Ana shu talablar asosida talaba shakllanadi. Biroq ta’lim tomonidan shakllanish yetarli emas, psixologik tomondan ham rivojlanish asoslidir. Bunda pedagogik va psixologik

yoʻnalishlar koʻmakchilar rolini bajaradi. Pedagogik xususiyatlarni rivojlantirishda avvalam bor, madaniy tarbiya bilan bogʻliqliklarga katta eʼtibor qaratilishi kerak.

I.L.Bim “Madaniyatli shaxsni tarbiyalashda chet tilini oʻqitishning rolini kuchaytirish, chet tilining butun taʼlim salohiyatidan talabalarni jahon madaniyati bilan tanishtirishga hissa qoʻshadigan fanlararo fan sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi deb taʼkidlagan [2].

Barcha taʼlim muassasalariga zamonaviy bilim va yuksak maʼnaviy-ahloqiy fazilatlarga ega, til va madaniyat birligi, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qodir boʻlgan professional pedagog kadrlarni yetkazib berish vazifamizdir.

A.M. Magrupova [4] aytganidek, taʼlim insonning jamiyatda faol hayot kechirishini taʼminlovchi ijtimoiy pedagogik hodisa. U jamiyatni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Inson hayotni mustaqil oʻzgartirishga tayyor boʻlishi uchun yetarli tarzda taʼlim tarbiya olish, bu jarayon esa uning oʻzini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.


Pedagogikada tarbiyaning ham metodlari bor: yaʼni ular soʻz orqali ifodalash hamda koʻrgazmalilik, amaliy naʼmuna, ragʻbatlantirish, jazo, tushuntirish va hokozolar tushuniladi [5]. Shu metodlar orqali talabani psixologiyasini oʻrganish muhim. Tajribalarimizdan yaʼni talabalar bilan qoʻllaydigan shaxsiy psixologik yoʻnalishlardan biri bu- talabalar bilan yakka holda, maqsadini aniq bilish uchun gaplashish yoki savolnoma asosida erishmoqchi boʻlgan istaklarini amalga oshira olamiz.

Aytish kerakki, motivatsiyasiz ilhomlanish aslo boʻlmaydi. Demak, taʼlimda talabani maqsadga yetaklash uchun motivatsiya pedagogik yoʻnalishradan biri. Shuningdek, bu usullar madaniy kompetensiyani va integrativ yondashuv asosida taʼlim, psixologiya va pedagogikani yahlitlanishiga olib keladi va yangilik yaratishimizga asos boʻla oladi.

Akademik kurslarning (darslarning) xilma xilligi bilim komponentining tushunarli boʻlishiga asoslanadi. Talabalarga xilma-xillik haqida ilmiy tushunchalarni taqdim etish hamda ularni tushuntirish oʻz qadrlarining qimmatini hamda oʻtilayotgan darslarning maqsadiyu kelajagini koʻrsatish mumkin.

Uy vazifalari orqali ham talabalarining madaniy kompetensiyalarining integrallashuviga sabab boʻla oladi. Muammo shundaki, tafovutlarni (muommolarni) muhokama qilish uchun zarur boʻlgan koʻnikmalar koʻpincha aralashib qoladi. Buning natijasida talaba yoshlarda boʻshliq hosil boʻladi.

Bizning fikrimizcha, talabalarining madaniy kompetensiyaga tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini oʻrganishga eng samarali pozitsiyalar quyidagilardir:



*1-rasm. Madaniy kompetensiyani amalga oshirish pozitsiyalari.*

Madaniyatning bir qismi, bir tomondan uni oziqlantirsa, ikkinchi tomondan, inson orqali uning saqlanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun oliy ta'lim jarayoni boshqa narsa emas talabalarni dunyo boyliklari va o'zga til bilan qanday tanishtirish madaniyat, uning qadriyatlarini ichkilashtirish, madaniy jihatdan mos turmush tarzini tanlash va amalga oshirish bilan belgilanadi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash kerakki, talabalarning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida kommunikativ yondashuvni kulturologik yondashuvdan ajratib bo'lmaydi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish talabalar, bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ ko'nikma va malakalarini oshirishga xizmat qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. Diss...(Ph.D) 2020. 67-b.

2. Бим И.Л. Основные направления организации обучения иностранным языкам на старшей ступени полной средней школы. ИЯШ. -2002. -№5. – с.7-11.
3. Jalolov J.J. Umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishda chet tillarning roli // Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – B. 143-151.
4. Magrupova A.M. Ta’lim muassasasida innovatsiyalarni joriy qilish strategiyalari va rahbarning roli/J.Zamonaviy ta’lim.-№2.-T., 2017 y-24.
5. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения.- М.: Педагогика, 1988.-
6. 510 с.

### AN’ANAVIY VA KREDIT-MODUL TIZIMI XORIJIY TIL TA’LIMINING KONSEPTUAL ASOSLARI

*Majidova Nozima Dilmurod qizi*

*Toshkent shahridagi Adju universiteti o‘qituvchisi*

[nozima.majidova92@mail.ru](mailto:nozima.majidova92@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’limida kredit-modul tizimiga o‘tishda Yevropaning ECTS kredit-modul tizimi tanlash sabablari shuningdek, yangi tizimning an’anaviy ta’limdan farqli jihatlari yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** kredit-modul tizimi, ECTS, o‘quv jarayoni, individual ta’lim, uzluksiz ta’lim

Davlat rahbari 2022-yil 28-yanvar kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida aytganlaridek, „Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. .... chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz” [3]. Darhaqiqat, ta’limni isloh qilish va yangi bosqichga (tizimga) o‘tilishi rivojlangan mamlakatlarda bundan yarim-bir asr ilgari boshlangan va yuqori natijalarga erishib, davlatning turli sohalarini gullab-yashnashiga sabab bo‘lgan.

O‘zbekiston dunyo kredit ta’lim modellarini tadqiq qilgan holda, Yevropaning ECTS kredit-modul tizimini tanladi. Bunga quyidagilarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin: ECTS kredit-modul tizimining ko‘plab xorijiy mamlakatlar tomonidan tan olinganligi; O‘zbekiston va qardosh mamlakatlarda ham ushbu tizimning yo‘lga qo‘yilganligi (professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvini ta’minlashda ancha yengillikka ega bo‘ladi); ta’lim bosqichlarining o‘xshashligi; mazkur tizimning ta’limda samarali natijalarni ko‘rsatganligi.

A.A.Bo‘riboev fikriga ko‘ra, individual ta’limda o‘quv jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa quyidagi natijalarni kafolatlaydi:

- talabaning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini saqlab qolish va ularni yanada rivojlantirish;
- o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtira olmaslikning oldini olish uchun har bir talaba tomonidan o‘quv dasturlaridagi mustaqil ta’limni bajarishda individuallashtirish vositalaridan foydalanish;
- har bir talabada uning yaqin kelajakda rivojlantirishi uchun tayanch bo‘ladigan umumiy ta’limiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish va ularda bilishga bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirish;
- o‘quvchilarda mustaqillik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, fikrlash va ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirish [1; 894-b.].

L.K.Iliyeva uzluksiz ta’limda lingvodidaktik tizim tarkibi quyidagi kategoriyalardan iboratligi keltirilgan: (1) ta’lim sharoiti (kim, qayer, qancha vaqt ajratilgan, qanday jihozlangan); (2) ta’lim maqsadi - o‘quvchi-talabalarning nima maqsadda til o‘rganishlari yoki ularga xorijiy til kelgusida qanday foyda keltirishi; (3) ta’lim mazmuni - nimani o‘rgatish/o‘rganish; (4) ta’lim metodi, prinsipi, texnologiyasi - qanday qilib yoki qaysi usul va yo‘llar bilan tilni o‘rgatish/o‘rganish; (5) ta’lim vositalari - nima yordamida o‘rgatish/o‘rganish [2; 53-b.].

Quyidagi jadvalda keltirilgan qiyoslash an’anaviy va KMT xorijiy til ta’limining konseptual holatini aniqlashga imkon beradi.

*An’anaviy ta’lim va kredit-modul ta’limining konseptual asoslari*

An’anaviy ta’lim	Kredit-modul ta’limi
O‘qituvchi asosiy qoidalar, tushunchalar yuzasidan fikr bayon etadi.	O‘qituvchi aniq maqsad qo‘yadi, ta’lim oluvchilar bilan vazifalarni shakllantiradi va taxminiy natijani oldindan ko‘ra biladi.
Barcha o‘quv materiallari darslik muallifi tomonidan aniqlanadi.	O‘quv materiali qiyinchiliklar darajasiga ko‘ra modullarga bo‘linadi.
Talabalar tanlovi mavjud emas, qat’iy belgilangan o‘quv reja va dasturga ko‘ra mashg‘ulotlar tashkil etilgan.	Talabalar tomonidan fanni va o‘quv materialini tanlash imkoniyati mavjud.
O‘qituvchi doimiy nazoratni olib boradi.	O‘qituvchi maslahat beruvchi vazifasini amalga oshiradi.
Mustaqil ta’limga nisbatan auditoriya soati ko‘proqni tashkil etadi.	Auditoriya soatiga nisbatan mustaqil ta’lim soati ko‘proqni tashkil etadi.
Grammatika va o‘qishga katta e’tibor berilgan.	Tinglab tushunish va gapirishga kasbiy-sohaviy mashqlarga asosiy e’tibor qaratiladi.
Talabalarni matn o‘qib tarjima qilishga yo‘naltirilgan.	Talabalarni akademik va texnik muloqotga yo‘naltiriladi.

Fikrimizcha, modulli ta'limda ham pedagogika nazariyasi va amaliyotida qo'llanilgan an'anaviy ta'limning ba'zi metodlari saqlanib qoladi. Ushbu tizimda ular integrallashadi va informatsion texnologiyalar asosida ro'yobga chiqariladi. Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimida dasturlar tuzish, dars jadvalini shakllantirish, ta'lim jarayonini nazorat qilish va talabalarni baholashni tashkil etishda xorijiy til fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish maqsadga muvofiqdir. Kredit-modul tizimida xorijiy til o'rgatish-o'rganish xususiyatlarini hisobga olish talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularda ijodiy faollikni kuchaytiradi va bilim olishga o'zini safarbar qilishga yo'naltiradi hamda ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. O'qituvchilarga o'qitish-o'rgatish mahoratini va talabalarga o'rganish qobiliyatlarini keng miqyosda almashishlari imkoniyati kengayadi. Bir tomondan, talabalarni kredit-modul tizimi asosida o'qitish ularning mustaqil ta'limini rivojlantirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, o'qituvchilarni BB, AIS va boshqa texnologiyalar ustida ishlash, darslarda foydalanish hamda innovatsion texnologiyalarni egallashga undaydi. **Faollik, mustaqillik va kreativlik o'quv jarayoni qanday tashkil etilishiga bog'liq. Shunga ko'ra, talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish ta'limning mazmuni, shakli, metod va vositalarini rivojlantirishni talab etadi.**

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'riboev A.A. Kredit-modul tizimida individual ta'limning o'rni / "Science and Education" Scientific Journal, ISSN 2181-0842, April 2022, Volume 3 Issue 4. – B. 892 - 895. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz).
2. Iliyeva L. Linguodidactics Changes–Educational Process–Educational and Methodological Support //International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT), Spanish. – 2019. – T. 17. – №. 1.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi. Toshkent, 2022-yil 28-yanvar. <https://yuz.uz/uz/news/maktab-talimini-rivojlantirish-boyicha-ustuvor-vazifalar-belgilandi?view=talim-tarbiya--bu-bizning-kelajagimiz-hayot-mamot-masalasi--shavkat-mirziyoev>
4. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet.

## DESCRIPTION AND SPECIFIC ASPECTS OF CRIMES RELATED TO INFORMATION TECHNOLOGIES

*Mukhammatkulov Shohruhbek Erkin o'g'li*  
*Researcher*

Crimes related to information networks are referred to as cybercrime. Cybercrime is criminal activity that either targets or uses a computer, a computer network or a networked device. Most cybercrime is committed by cybercriminals or hackers who want to make money. However, occasionally cybercrime aims to damage computers or networks for reasons other than profit.

Cybercrime, also called computer crime, the use of a computer as an instrument to further illegal ends, such as committing fraud, trafficking in child pornography and intellectual property, stealing identities, or violating privacy. Cybercrime, especially through the Internet, has grown in importance as the computer has become central to commerce, entertainment, and government.

Because of the early and widespread adoption of computers and the Internet in the United States, most of the earliest victims and villains of cybercrime were Americans. By the 21st century, though, hardly a hamlet remained anywhere in the world that had not been touched by cybercrime of one sort or another.

An important aspect of cybercrime is its nonlocal character: actions can occur in jurisdictions separated by vast distances. This poses severe problems for law enforcement since previously local or even national crimes now require international cooperation.

Types of cybercrime include:

Email and internet fraud.

Identity fraud (where personal information is stolen and used).

Theft of financial or card payment data.

Theft and sale of corporate data.

Cyberextortion (demanding money to prevent a threatened attack).

Ransomware attacks (a type of cyberextortion).

Cryptojacking (where hackers mine cryptocurrency using resources they do not own).

Cyberespionage (where hackers access government or company data).

Interfering with systems in a way that compromises a network.

Infringing copyright.

Illegal gambling.

Selling illegal items online.

Soliciting, producing, or possessing child pornography.

For example, if a person accesses child pornography located on a computer in a country that does not ban child pornography, is that individual committing a crime in a nation where such materials are illegal? Where exactly does cybercrime take place? Cyberspace is simply a richer version of the space where a telephone conversation takes place, somewhere between the two people having the conversation. As a planet-spanning network, the Internet offers criminals multiple hiding places in the real world as well as in the network itself. However, just as individuals walking on the ground leave marks that a skilled tracker can follow, cybercriminals leave clues as to their identity and location, despite their best efforts to cover their tracks. In order to follow such clues across national boundaries, though, international cybercrime treaties must be ratified.

In 1996 the Council of Europe, together with government representatives from the United States, Canada, and Japan, drafted a preliminary international treaty covering computer crime. Around the world, civil libertarian groups immediately protested provisions in the treaty requiring Internet service providers (ISPs) to store information on their customers' transactions and to turn this information over on demand. Work on the treaty proceeded nevertheless, and on November 23, 2001, the Council of Europe Convention on Cybercrime was signed by 30 states. The convention came into effect in 2004. Additional protocols, covering terrorist activities and racist and xenophobic cybercrimes, were proposed in 2002 and came into effect in 2006. In addition, various national laws, such as the USA PATRIOT Act of 2001, have expanded law enforcement's power to monitor and protect computer networks.

#### How to protect yourself against cybercrime

Given its prevalence, you may be wondering how to stop cybercrime? Here are some sensible tips to protect your computer and your personal data from cybercrime:

##### Keep software and operating system updated

Keeping your software and operating system up to date ensures that you benefit from the latest security patches to protect your computer.

##### Use anti-virus software and keep it updated

Using anti-virus or a comprehensive internet security solution like Kaspersky Total Security is a smart way to protect your system from attacks. Anti-virus software allows you to scan, detect and remove threats before they become a problem. Having this protection in place helps to protect your computer and your data from cybercrime, giving you piece of mind. Keep your antivirus updated to receive the best level of protection.

##### Use strong passwords

Be sure to use strong passwords that people will not guess and do not record them anywhere. Or use a reputable password manager to generate strong passwords randomly to make this easier.

Never open attachments in spam emails

A classic way that computers get infected by malware attacks and other forms of cybercrime is via email attachments in spam emails. Never open an attachment from a sender you do not know.

Do not click on links in spam emails or untrusted websites

Another way people become victims of cybercrime is by clicking on links in spam emails or other messages, or unfamiliar websites. Avoid doing this to stay safe online.

Do not give out personal information unless secure

Never give out personal data over the phone or via email unless you are completely sure the line or email is secure. Make certain that you are speaking to the person you think you are.

Contact companies directly about suspicious requests

If you are asked for personal information or data from a company who has called you, hang up. Call them back using the number on their official website to ensure you are speaking to them and not a cybercriminal. Ideally, use a different phone because cybercriminals can hold the line open. When you think you've re-dialed, they can pretend to be from the bank or other organization that you think you are speaking to.

Be mindful of which website URLs you visit

Keep an eye on the URLs you are clicking on. Do they look legitimate? Avoid clicking on links with unfamiliar or URLs that look like spam. If your internet security product includes functionality to secure online transactions, ensure it is enabled before carrying out financial transactions online.

Keep an eye on your bank statements

Spotting that you have become a victim of cybercrime quickly is important. Keep an eye on your bank statements and query any unfamiliar transactions with the bank. The bank can investigate whether they are fraudulent.

**ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИНГ КОММУНИКАТИВ  
КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МОҲИЯТИ**

*Мирзаева Холида Нормуродовна  
Навоий вилояти педагогларни янги  
методикаларга ўргатиш миллий маркази  
"Педагогика ва психология, таълим  
технологиялари" кафедраси ўқитувчиси*

**Аннотация.** Мақолада халқ таълими ходимларининг коммуникатив компетенцияларини такомиллаштириш моҳияти кўриб чиқилган. Ходимларнинг касбий чет тилини билиш жараёнинг компетентлик ёндашувининг долзарблиги ҳам ички таълимнинг халқаро таълим маконига кириб бориши билан боғлиқ ҳолда амалга оширилади.

Ҳозирги глобал тенденциялар шароитида халқаро ва маҳаллий меҳнат бозорида мутахассисларнинг ҳар томонлама рақобатбардошлигини таъминлаш мақсадида халқ таълим тизимини модернизациялаш, таълим сифатига қўйиладиган талабларни халқаро стандартларга мослаштириш, таълим тизимида ахборот коммуникация технологияларини қўллаш, таълимни рақамлаштириш бўлажак мутахассисларни касбга йўналтиришда долзарб ёндашув эканлиги бугунги кун талаби ҳисобланади.

Келажакда халқ таълим битирувчисининг касбий рақобатбардошлиги атамаси остида, биз муваффақиятли ва кафолатланган касблар бўйича профессионаллик ва муайян мутахассисликлар соҳасида ўзига хос шахсий мослашиш қобилияти, маданий ва ижтимоий нормалар ва жамият анъаналари, самарали ижодни амалга ошириш ва узлуксиз ўз-ўзини ривожлантириш учун тайёр, қийинчиликларни бартараф эта олиш, ижодий фаоллик, касбий детерминацияга қарши тура олиш ва касбий фаолият субъекти сифатида шахснинг ўзлигини сақлаб қола олишлигини тушунамиз.

Халқ таълимни модернизациялаш жараёни талабларига жавоб берадиган таълим тизимини яратиш давр талаби ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, ёндашадиган бўлсак, биз тизим остида педагогик воқеликнинг таркибий ва функционал элементларининг муайян муносабатларини тушунамиз ҳамда уларнинг ўзаро муносабатлари талабаларнинг ўқув фаолияти давомида фан орқали келажакдаги вазифаларини янада мустақил, ижодий ва самарали ҳал қилиш, шахсни ривожлантириш ва такомиллаштиришга қаратилган. Шу муносабат билан, компетенцияга асосланган таълимнинг асосий мақсади, замон талаблари ва таълим ўртасидаги узилишдан ўтишдан иборат. Бу талабалардан ўқув жараёнида маълум бир босқичдаги эгалланган билимларни келажакда мутахассислар

халқ таълимнинг ўқув жараёнида олинган компетентликлар жамланмасини амалга ошириш учун, касбий фаолият, ўз саъй-ҳаракатларини жамоада кўрсата олиши, меҳнат бозорида рақобатлаша олиши зарур. Чунки бугунги кунга келиб, шахс фақатгина билим ташувчиси сифатида кадрланмайди, балки унинг фаолияти муҳим ҳисобланади.

Ходимларнинг касбий чет тилини билиш жараёнининг компетентлик ёндашувининг долзарблиги ҳам ички таълимнинг халқаро таълим маконига кириб бориши билан боғлиқ ҳолда амалга оширилади.

Тадқиқот ишимизнинг мақсадини аниқлаш, асослаш халқ таълим муассасалари ходимларини касбий чет тили билиш жараёнида ходимларнинг компетенциясини шакллантиришнинг мазмун ва шартларини амалга ошириш, айтиб ўтилган тоифаларни назарий аниқлаш ва уларнинг муносабатлари таҳлилидан иборат. Бизнинг фикримизча, бу кўп маданиятли муҳитда бошқа мамлакатлар мутахассислари билан маданиятлараро мулоқотни амалга ошириш учун шахсни шакллантиришнинг асосий хусусиятларини кўриб чиқиш зарур. Шу муносабат билан, ушбу категорияларнинг ўзаро боғлиқлигини халқ таълим муассасалари ходимларининг тил билиш даражасини характерловчи хусусият деб қараш лозимдир.

Компетенция тузилмаси махсус, шахсий, лингвистик, ижтимоий ва алоҳида компонентлар бирлигида таҳлил қилинади ҳамда таълим бериш жараёнида компетентлик ёндашувини амалга оширилиб, турли нуқтаи назарларни чуқур таҳлил қилиш, “келажақдаги халқ таълим муассасалари ходимларининг компетентликлари” концепциясининг таркибида қуйидаги шахсий фазилатларни ажратиш имконини беради:

Компетентлик мутахассиснинг касбий фаолияти билан характерланади, ходимнинг иш фаолиятидаги лавозим билан белгиланади, деб таъкидлаш лозим. Ўз навбатида, мутахассислиги ва умумий иш тажрибаси билан боғлиқ бўлган, танлаган касб тармоғи ва меҳнат фаолияти тури соҳаси билан ҳам боғлиқдир.

Компетентликнинг “чуқур билим”, “ҳақиқий фаолиятни амалга ошириш қобилияти”, “етарли вазифани бажариш ҳолати” каби мавжуд талқинлари ушбу тушунчанинг мазмунини тўлиқ очиб бермайди. Кўпинча, бу концепция юқори даражадаги малака ва профессионалликни ифодалаш учун интуитив равишда ишлатилади.

Бугунги кунда мамлакатимиздаги халқ таълим муассасаларида мутахассисларнинг компетенциясини ривожлантириш муаммоси унинг

мураккаблиги, турли хизмат вазифаларини бажариш бўйича масъулияти таҳлил қилинишини талаб қилади ҳамда тавсифланади.

Ходим фаолияти онгли мақсадларга эришиш ва масъулиятни бажаришга қаратилган эҳтиёжлар билан бевосита боғлиқдир. Унинг фаолияти махсус ҳаракатлардан иборат бўлиб, уларнинг ҳар бири аниқ бир вазифани, яъни муайян мақсадни ҳал қилиш ва мақсадга яқинлаштирувчи оралиқ натижани олишга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир. Ушбу ҳаракатлар натижалари мақсадга эришишни таъминлайди, уни ҳаракатларни амалга ошириш йўллари деб айтишимиз мумкин. Шунингдек, муҳандислик фаолияти моддий ва ишлаб чиқариш фаолияти билан ўзаро узвий боғлиқ бўлиб, мутахассисликнинг хусусиятлари – унинг билимлари, ғоялари, лойиҳалари ва режаларини ишлаб чиқариш амалиётида бевосита амалга ошириш билан боғлиқ фаолият, мавзу, маҳсулдорлик ва амалий йўналиш, ижодий ва трансформацион моҳият кабилар орқали амалга оширилади.

Кенг маънода олиб қарайдиган бўлсак, ходим қатор муаммоларни, лойиҳалашни ўрганиш ва ҳал қилишга қаратилган бўлиб, касбий билимларга асосланган билим ва технологияларни кенг қўллашни, фаолиятнинг самарали ҳамкорлигини бошқариш ва таъминлашни, касбий фаолиятининг таъсирини тушунишни, шунингдек, иктисодиёт ва ижтимоий соҳада муҳандислик фаолиятининг ҳуқуқий, молиявий ва бошқа жиҳатларини, муҳандислик касби вакилларининг жавобгарлик ҳиссини англашига риоя қилиши кабилар тушунилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Mirzaeva M.N. Formation of the concept and technology of intercultural competition among students in universities. International scientific journal "Scientific Horizons" No.5 / 2018- P. 81-84p
2. Mirzaeva M.N. Technology forming professional competence of students of the technical university in the lessons of foreign languages // International scientific journal "Scientific Horizon" No. 8/2019 -27-31s.
3. Bazarova U.M. The role of spiritual and moral education of students of technical university in the lessons of foreign languages //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 614-616.
4. Bazarova U.M. The state of the problem of moral and aesthetic education of students by means of a foreign language at the present stage //International scientific journal" Scientific Horizons" no. – Т. 1.
5. Bazarova U.M. Improvement of mechanisms of moral and aesthetic education of students in foreign language lessons of a technical university //Asian

Journal of Research in Social Sciences and Humanities. –2021.T.11.– №11.– с. 7-9.

6. Mansurova Dilfuza Zokir kizi, Abduganiyev Firdavs Sherzod ugli, & Bazarova Umida Mamurjanovna. (2022). Features of the classification of types of geotechnological terminology in the English language. Youth, Science, Education: Topical Issues, Achievements and Innovations, Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6643026>

## РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИДА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ АҲАМИЯТИ

*Комилов А.А*

*Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби докторанти*

*Комилов А.А. ((93)-398-69-66)*

Бугунги кунга келиб, рақамли технологиялар иқтисодиёт тармоқларининг ажралмас бир қисмига айланиб улгурди. Рақамли технологиялардан кенг миқёсида фойдаланиш ўз навбатида “Рақамли иқтисодиёт” атамасининг қўлланишига ва бу атаманинг борган сари оммалашуви сабаб бўлмоқда.

Рақамли иқтисодиёт бу миллиардлаб одамлар, бизнеслар, қурилмалар, ахборотлар ва жараёнларнинг ўзаро алоқаларини ташкил этувчи иқтисодий фаолиятдир. Рақамли иқтисодиётнинг асоси гипербоғланишдир, бу интернет, мобил технологиялар ва буюмлар интернетини натижасида одамлар, ташкилотлар ва машиналарнинг ўзаро боғлиқлигини англатади [1].

Осиё тараққиёт банки томонидан рақамли иқтисодиёт куйидагича тавсифланади: рақамли иқтисодиёт бу ишлаб чиқаришнинг асосий омиллари сифатида рақамли ахборот ва билимлардан фойдаланадиган иқтисодий фаолиятнинг кенг доирасини назарда тутди. Интернет, булутли ҳисоблаш, Биг Дата, финтек ва бошқа янги рақамли технологиялардан ахборотни рақамли равишда йиғиш, сақлаш, таҳлил қилиш ва алмашиш ҳамда ижтимоий ўзаро муносабатларни ўзгартириш учун фойдаланилади [2].

*1-жадвал*

*Рақамли рақобатбардошлик индекси*

Рейтинг	Мамлакат номи	Балл
1	Дания	100
2	АҚШ	99.81
3	Швеция	99.81
4	Сингапур	99.48
5	Швецария	98.23

6	Финландия	97.85
7	Нидерландия	96.60
8	Жанубий Корея	95.20
9	Гонг-Конг	94.36
10	Канада	94.15

*Манба: Халқаро бошқарув ва ривожланиш институти маълумотлари*

Ўзбекистонда ҳам рақамли иқтисодиётни ривожлантириш борасида амалга оширилаётган ишлар ўзининг ривожланиш палласига кириб улгурган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.10.2020 йилдаги ПФ-6079-сон ““Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони бунинг яққол мисоли бўла олади. Фармонга кўра Рақамли Ўзбекистон стратегияси рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари, унинг узоқ ва ўрта муддатли вазифаларни белгилабгина қолмай, БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадларига мувофиқ равишда рақамли инновация ва технологияларни янада кенг жорий этишга асос бўлади. Бу ўз ичига рақамли инфратузилмани ривожлантириш, электрон ҳукуматни ривожлантириш, рақамли иқтисодиётни ривожлантириш, рақамли технологиялар ва хизматлар миллий бозорини ривожлантириш, ахборот технологиялари соҳасида кадрлар тайёрлаш ва малакасини оширишнинг устувор йўналишларини қамраб олади [3].


Иқтисодиёт рақамлашгани сари, транспорт соҳасининг аҳамияти янада ортиб боради. Ҳар қандай бизнес субъектлари омборхона ёки сотув бўлимлари мавжуд бўлган ҳудудда фаолият юритибгина қолмай, ўз маҳсулот ва хизматларини бутун дунёга таклиф этишлари мумкин. Албатта, рақамли технологиялар ёрдамида ташкил этилган мақсадли маркетинг ва виртуал дўкон воситасида амалга оширилади. Бу ўз навбатида харидорларга уйларидадан чиқмасдан туриб ёки чет элга бормасдан туриб маҳсулотларнинг хилма-хил танловига эга бўлиш имконини яратади.

Транспорт ва логистиканинг аҳамиятига оид тадқиқотларда иқтисодиётни ривожлантириш учун транспортнинг аҳамияти унинг инсон фаолиятининг турли шакллари билан кўп томонлама боғланишидан келиб чиқиши эътироф этилади. Инвестициялар ва маҳсулдорликнинг ўсиши узоқ муддатли иқтисодий ўсишнинг асосий шартидир. Транспорт инфратузилмасига инвестициялар иқтисодий ўсиш учун рағбатлантирувчи омил ҳисобланади. Транспорт инвестицияси мамлакатда капитал ресурсларини кўпайтириш орқали бевосита иқтисодий ўсишга ёрдам беради. Бундан ташқари, транспорт иқтисодий ўсишга билвосита ҳам ҳисса қўшиши

мумкин. Буни кўпинча транспортнинг тармоқдан ташқари самараси ҳам деб юритилади.

Транспорт компаниялари маҳсулоти сифатида такомиллаштирилган транспорт хизматлари қулайлик, бозорни ривожлантириш ва бизнес тузилмасидаги ўзгаришларнинг афзалликлари туфайли самарадорликни оширишга ёрдам беради ва улар маҳсулдорлигининг ўсиши бутун иқтисодиёт учун фойда келтиради [4]. Транспорт самарадорлигини ошириш иқтисодиётда ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш учун ишлаб чиқариш омилларидан самаралироқ фойдаланиши ёки бир хил даражадаги ишлаб чиқариш учун камроқ ресурслар жалб этилишини англатади. Транспортнинг ишлаб чиқариш ва айирбошлаш соҳасидаги жараёнларга таъсири ялпи ички маҳсулотнинг ўсиш суръати энг юқори бўлган ривожланаётган мамлакатларда кўпроқ намоён бўлади [5].

Транспорт тизимига, хусусан, инфратузилмага инвестициялар тўғридан-тўғри ва билвосита таъсир кўрсатади. Биринчи тоифани аниқлаш ва унга миқдоран баҳо бериш нисбатан осон, чунки у пул оқимлари билан боғлиқ. Иқтисодий фаолликни рағбатлантирадиган, самарадорликни оширадиган, рақобатбардошликни оширадиган иккинчи гуруҳ таъсирини баҳолаш уларни интеграл ўлчов – пул кўринишига келтириш мураккаб масала ҳисобланади. Транспорт инфратузилмаси инвестицияларининг билвосита таъсири транспорт секторидан ташқарида содир бўлади. Улар ресурсларни қайта тақсимлаш, ресурслардан самаралироқ фойдаланиш, шунингдек, атроф-муҳитга таъсир қилиши мумкин. Бундай таъсир, тўғридан-тўғри имтиёзларга қўшимча равишда, маълум даражада анъанавий транспортни баҳолашнинг бир қисми сифатида кенгроқ иқтисодий таъсир деб аталади [4].



1-расм. Транспорт тизимининг иқтисодиётга бевосита  
Манба: Муаллифнинг ўзининг чизмалари

Макродаражадаги иқтисодий таъсирга қуйидагилар киради:

а) Минтақавий таъсирлар. Улар асосан ишлаб чиқариш омилларининг ҳаракатчанлигига боғлиқ бўлган минтақалараро юк ва йўловчи оқимларини ва уларнинг иқтисодий кўрсаткичларининг ўзгариши билан тавсифланади;

б) Меҳнат бозорига таъсири. Ушбу таъсирлар транспорт харажатлари камайтирилганда ушбу бозорлар жонлаши билан боғлиқ [4].

Узоқ муддатли истиқболда транспорт соҳасига инвестициялар ўзаро боғлиқ бўлган турли хил иқтисодий жараёнларни рағбатлантириш орқали иқтисодиёт ривожланишга ҳисса қўшади, бу эса маҳаллий ва минтақавий даражада синергетик самарадорликни келтириб чиқаради.

Транспорт хизматлари транспорт инфратузилмаси билан биргаликда таклиф этилади ва “истеъмол қилинади”. Транспорт секторининг яна бир ажралиб турадиган хусусияти шундаки, унинг вазифаси, биринчи навбатда, бошқа кўплаб иқтисодий фаолиятлар учун рағбатлантирувчи фактор бўлиб хизмат қилади. Мисол учун, корхоналар маҳсулотларни тарқатиш марказлари ва чакана савдо нуқталарига ташийди; ташкилотлар ўз ходимларини мижозлар, этказиб берувчилар, тартибга солувчилар ва ҳамкасблар билан учрашиш учун юборади; одамлар ишлаш ва дам олиш учун саёҳат қилишади. [7]

Транспортни хизматларини самарали ташкил этиш, корхоналарнинг харажатларни тежашга эришиш учун ишлаб чиқариш ва тарқатиш каналларини қайта ташкил этишга қатор имкониятларни тақдим этиши мумкин. Транспорт харажатларининг қисқариши, самарадорликни ошириш, янада рақобатбардош нархларни таклиф қилиш ва узоқроқ бозорларда сотиш учун рақобатлашиш учун энг мос етказиб берувчиларни танлаш қобилияти каби бошқа имкониятларни ҳам тақдим этиши мумкин.

Рақамли технологиялар транспорт тизими фаолиятига ҳам жорий этилганда бир қатор афзалликларни беради. Улар жумласига ташиш жараёни хусусиятларининг фаол ўзгариши ва етказиб беришлар занжирининг турли бўғинларида ахборот интеграциясини таъминлаш натижасида унинг мослашувчанлиги ҳамда транспорт-логистика хизматлари кўрсатиш ҳажмини ошишини киритиш мумкин. Ўз навбатида транспорт корхоналари фаолиятини рақамли трансформациялаш инновацияларни жорий этиш ва ташиш технологияларини рақамли иқтисодиёт шароитларига мослаштириш орқали хизмат кўрсатиш жараёнларини сифат жиҳатидан яхшиланишни таъминлайди

Транспорт корхонаси фаолиятини рақамлаштиришда моддий-техника салоҳияти даражаси ва уни модернизациялаш зарурати, шунингдек,

корхонанинг кадрлар салоҳияти ва ходимларнинг малакавий кўникмаларини оширишни рағбатлантириш тизими имкониятларини ҳисобга олиш лозим.

Масалан, ахборот технологияларидан фойдаланиш: иш жараёнларини ўзгартиради ва ишлаб чиқариш цикли давомийлигини қисқартириш орқали операцион самарадорликни оширади; эксплуатацион харажатларини камайтириш ва ёқилғи тежамкорлигига эришиш; транспорт воситаларининг туриб қолиши сони ва давомийлигини камайтириш, уларнинг юкланиш даражасини ошириш; транспорт-логистика хизматлари кўрсатиш ҳажми ва сифатининг ошишини таъминлайди.

Транспорт тизимида рақамли технологиялардан самарали фойдаланиш унинг субъектлари фаолияти ривожланишнинг сифат жиҳатидан янги даражасига олиб чиқиш билан бирга, бошқарувнинг барча поғоналарида эркин ўзаро таъсир ва тайёргарликка асосланган бошқарув қарорларини кўллашга имкон беради. Чунончи, ягона электрон платформада юк ва йўловчи ташиш жараёнларини ташкил этиш ва бошқаришнинг автоматлаштирилган тизимини жорий этиш, йўловчилар учун мобил иловалар, ақилли (смарт) бекатлар ва бошқалар аҳоли ва иқтисодиёт тармоқлари учун керакли ҳажмда, оқилона баҳоларда кафолатланган ва сифатли транспорт хизмати кўрсатишга эришишни таъминлайди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi pf-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni;
2. Deloitte Digital., Telstra corporation limited., Taking leadership in a digital economy // Australia 2012. -№ 9. -p13;
3. Asian Development Bank., Capturing the Digital Economy: A Proposed Measurement Framework and Its Applications// № IV 2021. – p17.
4. Koźlak, Aleksandra. (2017). THE ROLE OF THE TRANSPORT SYSTEM IN STIMULATING ECONOMIC AND SOCIAL DEVELOPMENT. Zeszyty Naukowe Uniwersytetu Gdańskiego. *Ekonomika Transportu i Logistyka*. 72. 19-33. 10.5604/01.3001.0010.6873.
5. Ministry of Transport of New Zealand., Contribution of transport to economic development Economic development and transport project // New Zealand. – 2016.
6. Lakshman, T. R., The wider Economic Benefits of Transportation: an Overview // International Trasport Forum// - Boston University, USA. – 2008. pp. 3-14.

## “XOTIN-QIZLAR SPORTI” TA’LIM YO‘NALISHIDAGI TALABA- QIZLARNI KELGUSIDAGI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK ZARURATI

*Raimov Xamid Soatovich*

*Termiz davlat universiteti “Sport boshqaruvi” kafedrası o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Zamonaviy ayollar sportida pedagogik va fiziologik tomondan bir qator hal etilmagan muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal qilish davlatimiz tomonidan belgilab berilgan dolzarb vazifadir.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar sporti, talabalar, sport, didaktika, jisminiy tarbiya, jismoniy rivojlanish, modernizatsiyalash, universal texnologiyalar, vaznning oshishi, kamqonlik, ortroz, anemiya kasalliklari.

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar kishilik jamiyatining oliy maqsadi bo‘lib kelgan - jismonan va axloqan barkamol, aqlan yetuk, ma’naviy boy insonni tarbiyalash muammosining yechimini topishga qaratilgan bo‘lib, bunda xotin-qizlar sportini rivojlantirish, bu yo‘nalishda talaba qizlarni kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik asoslarini takomillashtirish, kadrlarni tayyorlash tizimining natijali samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirib borish vazifasini qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qarori asosida jismoniy tarbiya va sport muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlangan davlatlar tajribasini respublikamizda joriy etish va sinab ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi va har bir sport turining va sportchilarning yillik reytingini o‘lchaydigan ishlanma yaratish, mamlakatimizda sport muassasalari faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish alohida dolzarblik kasb etadi.

Talaba qizlarni kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlashda jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda o‘rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib, aynan mana shu omillar tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Universal texnologiyalar bilan bog‘liq globallashtirish jarayoni, ijtimoiy hayotda texnikaning jadallashuvi insonlar orasida kam harakat qilish, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga rioya qilmaslik (yog‘li, xamirli maxsulotlarni me‘yoridan ortiqcha ist‘mol qilish, spirtli ichimliklarni ichish, tamaki chekish va h.k.) natijasida inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan turli kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Xotin-qizlarning sport bilan shug‘ullanmasligi natijasida ularning talaygina qismida (30

yoshdan soʻng) vaznning oshishi, kamqonlik, ortroz, anemiya kasalliklari koʻzga chalinmoqda. Bu esa, kelajak avlodning sogʻlom kamol topishiga xavf solmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda soʻnggi yillarda buyuk mʻnaviyatimizni tiklash barobarida sogʻlom turmush tarzini barcha fuqarolarga, eng avvalo, yoshlarga va qizlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yoʻnalish qilib belgilanishi, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalaridagi singari uzluksiz taʼlim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan oʻqituvchilarni zamon talablari va jahon andozalari asosida tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ular tarbiyalayotgan yoshlarda jismoniy sifatlar, yuksak maʼnaviy madaniyat, axloq va maʼrifat fazilatlarini shakllantirish va singdirish muammolarining echimini topishni davr taqozo etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3031-sonli Qarori asosida jismoniy tarbiya va sport muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlangan davlatlar tajribasini respublikamizda joriy etish va sinab koʻrish muhim ahamiyat kasb etadi va har bir sport turining va sportchilarning yillik reytingini oʻlchaydigan ishlanma yaratish, mamlakatimizda sport muassasalari faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqishni yoʻlga qoʻyish alohida dolzarblik kasb etadi.

Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini, yaʼni talaba-qizlarni kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlashda jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda oʻrgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri boʻlib, aynan mana shu omillar tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri- maʼnaviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sogʻlom, Vatan sarhadlarini himoya qilish uchun jismonan chiniquqan, fidoyi insonni tarbiyalash, taʼlim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy gʻoya asosida jismoniy, maʼnaviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga etkazishga ijtimoiy zarurat tugʻilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev oldimizga mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va maʼnaviy sogʻlomlikning asosi ekanini targʻib qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga oʻz qobiliyat va isteʼdodlarini roʻyobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalarni qoʻydi.

Jismoniy tarbiya va sportga qiziqish, e'tibor qaratish, sportning biror-bir turi bilan shug'ullanish mantiqan fikrlash, xotira va diqqatni charxlaydi, bo'g'imlarning harakatchanligi yaxshilanib, kuch, tezlik, chidamlilik va qobiliyatni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, qizlar uchun yuqori elka kamari, oyoq-qo'llar mushaklari ishi faollashib, organizmning hamma a'zolari va tizimlari ishi rag'batlantiriladi. Insonga ana shunday bebaho imkoniyatlarni beradigan sportga bolalarni qiziqtirish, ularni sport bilan mashg'ul qilish, avvalambor, oiladan boshlansa maqsadga muvofiqdir.

Talaba yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilish L.R.Ayrapetyans, T.S.Usmonxo'jaev, R.Abdumalikovlarning ishlarida o'rganilgan va muhim manba vazifasini o'tamoqda.

Adabiyotlar, ilmiy ishlanmalar tahlillaridan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligi aniqlandi: mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish; yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va aniqlik darajasini aniqlash; yangilikni tadbiiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish; yangilikni tadbiiq etadigan tashkilotning innovatsion qobiliyatiga baho berish. Shu yo'nalishda qator dissertatsiyalar, ilmiy ishlar tahlil etildi.

Xulosa. Shunday qilib, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari, ya'ni "Xotin-qizlar sporti" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlarni kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini didaktik faoliyati natijasida talabalarning jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o'rganilib chiqiladi, tadbirlarda jismoniy chiniqishga mo'ljallangan uzluksiz didaktik tizimni ta'minlaydigan metodik majmualar yaratiladi; turli musobaqalar, sog'lom turmush tarzini reklama qiluvchi tarbiyaviy tadbirlar: suhbatlar, kechalar, sport-shoular uyushtirilib, sport to'garaklariga jalb qilinadi, tahsil oluvchilarning jismoniy, ruhiy hamda intellektual qobiliyatlari o'stiriladi; oiladagi, sinf va maktabdagi pedagogik hamda psixologik muhit atroflicha o'rganilib, ularning hamkorligi rivojlantiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 3 iyundagi PQ-3031-sonli Qarori.
2. Karimjonov.A. Erta yoshdagi bolalarda pnevmoniyaning kechishida Vaksinasiya BSJ .175,b

3. Karimov I.A. Sogʻlom avlod kelajagimiz mevasi // Xalq soʻzi, 2013, №4, B. - 3.
4. Masharipov Y. Sport psixologiyasi. – Samarqand: SamDu nashr-matbaa markazi, 2013. - 127 b.
5. Айрапетянц Л.Р. Развитие силовой категории студентов. Ташкенть: Укитувчи, 2017.- 122с.
6. Usmonxoʻjaev T., Xoʻjaev F. 1001 oʻyin. – T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2015. - 352 b.

## XX ASRDAN KEYINGI XITOIY VA VYETNAM DAVLATLARI OʻRTASIDAGI ZAMONAVIY ALOQALAR

*Sharipov Baxodir Faxridinovich*  
*Yuqori chirchiq tumani 34- maktab*

**Annotatsiya.** 1979-yildagi urush bu ikki davlat oʻrtasidagi munosobatlarga jiddiy putur yetkazdi. 1991-yildan imzolangan shartnomadan keyin esa bu davtlar asta-sekinlik bilan munosabatlarida ijobiy siljishlar roʻy bera boshladi. Aynqisa yangi asrdan boshlab bu ikki davlatlar koʻplab bir-birini qoʻllab-quvvatlovchi shartnomalar imzoladilar.

**Kalit soʻzlar:** Sotsialistik, kommunistik, iqtisodiy, ijtimoiy, assambleya

3) G'ayriodatiy birikmalarning baholash vazifasi. G'ayriodatiy birikmalar faqatgina insonning aqliy intellektual salohiyati-fikrlash qobiliyatigagina emas, balki uning hissiy olamiga dunyoni, voqelikni qay darajada estetik qabul qilish jihatiga bog'liq holda dunyoga keladi. a) *neytral ma'no ifodalovchi birikmalar: og'ir-bosiq gaplar, toza shabada, mavsumiy gap, temir parda, loqayd tomchilar, shom yegan oy*. Zulmat quyuqlashib bozar, loqayd tomchilarni purkar edi. ("Bahor qaytmaydi" 27-bet) Sening hukumating butun mamlakat ustiga temir parda tortgan! – dedi. (A.Qahhor "Dumli odamlar" hikoyasi 175-bet) Mamlakat bo'ylab esgan toza shabadani o'tkinchi mavsumiy gap deb biladi! (S.Ahmad "Jimjitlik" ) b) *salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan birikmalar: dahshatli to'lqinlar, o'kirgan dengiz, alvasti mish-mish, haqorat balchig'i, qora qatlamlar, xira, irkit oy, pishqirayotgan shamol, xiyonatkor yulduzlar, tajang qichqiriq*. Xiyonatkor yulduzlar xoinlarcha ko'z qisishar, xiyonatkor shamol xoinlarcha xoinona qiqir-qiqir kular edi. (O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" Hiyonat 28-bet) . Xuddi haqorat balchig'i orasida qolgandekman. (A.Qahhor "Dahshat") Mahallaga alvasti mish-mish bosh

tiqdi. (A.Qahhor “Muhabbat” qissasi 19-bet) d) *ijobiy bo`yoqqa ega bo`lgan birikmalar: nurli tuyg`ular, g`olib kulgu, toza odam, issiq bir iftixor tuyg`usi, mayin iliqlik, kulgi toshib chiqayotgan lablari, shirin tuyg`ular* kabi. Qo`shiq uni allalar shirin tuyg`ularga g`arq etardi. (Bahor qaytmaydi” 24-bet) Kulgi toshib chiqayotgan lablaridan o`pgan. Qani endi shu kunlar qaytib kelsa! (S.Ahmad “Ufq” trilogiyasidan “Qochoq” 194-bet)

Har qanday holatda ham g`ayriodatiy birikmalar yozuvchining hissiyotini mukammal darajada ifodalashga xizmat qiladi. Shu qatorda voqea-hodisa, shaxs va narsalarning salbiy hamda ijobiy xususiyatlarini aks ettirish vazifasi ijodkorning ixtiyori bilan g`ayriodatiy birikmalarga yuklatiladi. Ayrim g`ayriodatiy birikmalar o`quvchi tasavvurida o`ta mavhum, tushunarsiz gavdalanadi. Ularning mazmuni matndagina ro`yobga chiqishi mumkinligi kuzatiladi. Matn bilan tanishgandagina ularning qanday maqsad bilan yaratilganligi va aniq ma`nolari ravshanlashadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Akbarova M. Badiiy matnda uchraydigan g`ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik xususiyatlari . Comparative turkish dialects and literatures, 2022, 1 (2) , 25-31 .
2. Serebrennikov B.A. Nominatsiya i problema vibora // Yazikovaya nominatsiya (Obshnye voprosi). –M.: Nauka, 1977. –s147.
3. O`zbek tilining izohli lug`ati, 3-jild. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent.2007.

### JANUBIY SURXONDARYO O`ZBEK SHEVALARI PAREMALARIDA LINGVOMADANIY KODNING IFODALANISHI

*Mansur Xamidov*

*TerDU o`qituvchisi, erkin tadqiqotchi*

[mansurimomali1991@mail.ru](mailto:mansurimomali1991@mail.ru)

+998996709196

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Janubiy Surxondaryo hududidan yig`ilgan o`zbek shevalari barqaror birikmalaridagi lingvomadaniy kodlar xususida fikr yuritilgan. Ularning o`ziga xos jihatlari va ahamiyati haqida lingvistik mushohadalar aks etgan.

**Annotation.** This article discusses the linguistic and cultural codes in stable combinations of Uzbek dialects collected from the Southern Surkhandarya region. Linguistic observations about their specific aspects and importance are reflected.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются лингвокультурные коды в устойчивых сочетаниях узбекских диалектов, собранных из Южной

Сурхандарьинской области. Отражены лингвистические наблюдения об их специфических аспектах и значении.

**Kalit soʻz va tushunchalar:** Lingvomadaniy kodlar, joy nomlari, dialektal parametrlar, lingvostatistika.

**Key words and concepts:** Linguistic and cultural codes, place names, dialectal parameters, linguistic statistics.

**Ключевые слова и понятия:** Лингвокультурные коды, топонимы, диалектные параметры, лингвистическая статистика.

Surxondaryo azal-azaldan oʻzbek shevasining hazinalaridan biri boʻlib, milliy madaniyatimizni akslantiruvchi xususiyatlari bilan alohida ajralib turgan. S.Rahimovning taʼkidlashicha, voha shevasi qipchoq lahjasining beshinchi tipidagi janubiy oʻzbek ž –lovchi guruhiga kiradi.<sup>19</sup> Lingvogeografik jihatdan Surxondaryo janubiy hududiga Qiziriq, Angor, Jarqoʻrgʻon, Termiz tumanlari va Termiz shahri qamrab olinadi. Olimning tadqiqotida dialektal obyekt qilib faqat Jarqoʻrgʻon tumani Jarqoʻrgʻon posyolkasi (boʻlim/qishloq), Minor qishlogʻI, Oqtepa qishlogʻI, Surxon posyolkasi, Angor tumani Tallimoron qishlogʻI, Termiz tumanining esa Manguzar qishlogʻI, (hozirgi kunda shahar mahalla tipiga oʻtkazilgan. Taʼkid bizniki – X.M.), Salo(a)vo(a)t (Surxondaryo viloyat Oila va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash boshqarmasining 13.07.2022-yildagi maʼlumotnomasi ishga ilova qilinadi) – Soli obod qishlogʻI va Chigʻatoy qishloqlari olingan.

Hozirgi kunda Qiziriq tumanida 31 ta, Angor tumanida 36 ta, Termiz tumanida 29 ta, Termiz shahrida 37 ta, Jarqoʻrgʻon tumanida 66 ta mahallalar (Surxondaryo viloyat Oila va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash boshqarmasining 13.07.2022-yildagi maʼlumotnomasi) mavjud boʻlib, bu hududlarda yashovchi oʻzbek urugʻlari shevasidagi maqol-matallarning bir-biriga oʻxshash va farqli jihatlari mavjud. Har bir tuman aholi nutqida lingvomadaniy kodlarning tegishli talqini kuzatiladi. Masalan, Vötiniḡni tändirdan äjamä, nāni:ḡdi külgä täjämä; tüssiz xāmī:r tändi:rda türmas; tändir gošdän žemäpsi:z, bü dünjāya kemäpsiz (Ang. “Gilambob” va Jar. “Istiqlol” (xalq tilida “Tandir qishloq”) mahallalarida yashovchi aholi nutqidani). Pblari tarkibidagi “tandir” leksemasi oʻz manosida va ikkilamchi bilvosita (non+tandir+goʻsht) aloqadorlik xususiyatiga ega.

Paremiologik birliklarda ifoda topgan lingvomadaniy kodlar tegishli millatga mansublik (taom nomlari, umuman isteʼmol mahsulotlarining nomlari) belgisini namoyon etadi: atälädän süjäk čī:ḡi:pti; tüssi:z aši:m, dossi:z bāšim; öz üji:dä keskan kesalmägän, bira:gä ü:mač ü:i:šni örgatibti; žezzāni:ḡ ži:zi:dän, tāyani:ḡ toqīrrdayi yāxši shular jumlasidan.

<sup>19</sup> Рахимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. монография. – Тошкент: Фан. – Б. 9-10.

LMK (lingvomadaniy kod) barqaror birikma (BB)lar tarkibini yaxlit bir milliy maydon, milliy til atmosferasida jamlaydi. O‘zbek urug‘lari mavjud bo‘lgan dahalarning turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlarini, kundalik hayoti, ijtimoiylashuv omillari va boshqa ko‘rsatkichlari aynan PB orqali, aniqrog‘I, ular tarkibida keluvchi lingvomadaniy kodlar bilan ochiqlanadi. MK (madaniyat kodi) insoniyatning arxetipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o‘zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari<sup>20</sup> bo‘lib, lingvistik xususiyatlariga ko‘ra madaniyat kodlari bir necha turlarga bo‘linadi:

V. Krasnix tasnifi: somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma’naviy kod<sup>21</sup>;

V. Maslova tasnifi: antropomorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, me’moriy kod, sport kodi, 176omponent kod, 176omponent176176 kod, kiyim-kechak kodi<sup>22</sup>;

J. Krasnobaeva-Chyornaya tasnifi: mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kod<sup>23</sup>;

D. Xudoyberganova tasnifi: madaniyat kodlari, somatik kod, vaqtga doir kod, makoniy kod, predmetli kod, ma’naviy kod, biomorf kod<sup>24</sup>.

Inson o‘zini bilish barobarida olamni, borliqni anglay boshlagan. Bu dunyoni madaniylashtirishga bo‘lgan daslabki birlamchi harakat edi<sup>25</sup>. Bunda inson o‘zidagi mavjud tana a‘zolarining harakati, tuzilishi, o‘zaro va olam bilan aloqadorligi, vaqtga va makonga xosligi, hayvonot olami bilan munosabati va boshqa bir qator jihatlar inobatga olingan. Olamni anglash qatorida o‘ziga eng aziz va qadrlil tuyg‘u va tushunchalar, narsalarni ajrata boshlagan. Pirovardida, tildagi: bāš aman bosä doppi tāpilar; källäni: desä sälläni: āp kelädi kabi Bblarni shunga doir misol deb olish mumkin. Ular tarkibidagi “bosh” va “kalla” somatizmlari “do‘ppi” va “salla” predmetli kodlarini ifodalashning asosini tashkil etgan. Doppi (üjürmä šāmal uč:rsä, toppi:ñdi asmandä kör), shuningdek, ton (tonži:lüvi:ni: egäsi bilädi), chopon (ži:rti:q čāpandi:ñ issiyi žoq) hamda ro‘mol, belbog‘ kabilar umumtil madaniyatini aks ettiruvchi predmetli kodlar tarkibida turadi. Musulmonlarda “salla” leksemasi diniy istiloh sifatida faqat erkaklar boshiga

<sup>20</sup> Худойбергано́ва Д. Лингвокультуро́логия терми́нларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Туронзамин зиё, 2015. – Б. 29.

<sup>21</sup> Красних В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание. Коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – С.16.

<sup>22</sup> Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского//Метафизика. – М., 2016. –№4. – С. 83.

<sup>23</sup> Краснобаева Ж.В. Пространственный код культуры ценностной картины мира (на материале русской, украинской, английской и немецкой фразеологии) // Сибирский филологический журнал. – 2018. –№4. – С.169.

<sup>24</sup> Худойбергано́ва Д. Лингвокультуро́логия терми́нларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б.46.

<sup>25</sup> Худойбергано́ва Д. Тил. Маданият. Тафаккур. илмий рисола. – Тошкент: Нодирабегим. – Б. 32.

o‘raladigan matoni anglatadi. Oq, yashil, kulrang matolardan, ko‘pincha dokadan iborat bo‘lib, do‘ppi, kuloh ustidan o‘raladi, deb izohlanadi<sup>26</sup>. Janubiy Surxondaryo hududlarida esa salla ayollarning ham bosh kiyimi bo‘lib, uni farzand ko‘rgan qo‘ng‘irot ayollari, momolari kiyishgan. Bunda do‘ppi shakldagi “kiygich”ni kiyib, ustidan olti-yetti metrli salla o‘rashgan. Sallani bosh deb ham atashgan (Rasulova Qirmiz – Jar. “Qoraburo” qishlog‘i).

Janubiy Surxondaryo shevalari paremiologik birliklarida lingvomadaniy kodlarning barcha turlari mavjud. Ular orasida somatik, narsa-buyumlar, kiyim-kechak, zoomorf, fitomorf, oila bilan bog‘liq, ma‘naviy kodlar bilan bog‘liq paremiologik birliklar salmoqli o‘rin tutadi. Masalan, Qo‘ng‘irot urug‘idagi qipchoq lahjasi vakillari nutqida uchrovchi ki:ji:t ki:jgän qudag‘i:j, bomañ bi:zdän žudayi:j paremiologik birliklari o‘z tarkibida keladigan daha dialektizmlari orqali sof areal-individual xususiyatga ega bo‘lgan lingvomadaniy kod tashuvchi lingvistik vosita hisoblanadi.

Pblar tarkibida keluvchi predmet nomlari o‘z ma‘nosidan bilvosita va bevosita chekina ham, predmet ifodalagan asl ma‘no – uning harakati, tashqi va ichki dinamikasi, o‘xshash yoki farqli jihatlari, rang-tusi va boshqa shu kabi xil-xususiyatlari bilan boqliq ravishda ifoda topadi. Masalan, Kesāvi uzunning qo‘li kuymas” maqolidagi ke:sāv tandirdagi cho‘g‘ni kovlash vositasi bo‘lib, non pishirayotgan kishiga qulaylik tug‘dirish va qo‘lni kuydirmasligi uchun uzun holda tayyorlanadi. Paremani 177omponent177, ya‘ni o‘z ma‘nosida qo‘llanganda ham, undan imkoniyati ko‘p mazmuni oson anglashiladi va uni qo‘li uzun, qo‘li hammayoqqa yetadi kabi ibora ko‘rinishlarida ham ifodalash mumkin. Shu kabi, predmet kodi nān, supra||surpa leksemalarida ifoda topib, ular ishtirokidagi Bblarda e‘tibor ko‘p ham predmet ifodalagan mazmunga qaratilmaydi, aksincha, shu predmet bilan bog‘liq o‘xshash holatlar, qadriyatiy tushunchalar belgisi bo‘rttiriladi. Masalan, supragä tüşgän či:čqāndi:ñ bāši āg‘armāj qāmās paremasini olsak. Ma‘lumki, un elash, xamir yoyish, nonning zuvalasini tayyorlash ishlari suprada bajariladi. Unning ichiga sichqon oralamasligi uchun devorga ilib qo‘yiladi. Agarda sichqon kirib qolgudek bo‘lsa, albatta, boshi undek oqaradi. Bu nisbat kishining biror nojoiz ishga bosh suqqanida salbiy harakati belgisiz qolmasligiga, biror salbiy asoratni keltirib chiqarishiga ishora.

Surxondaryo dialektal leksikonida mavjud bo‘lgan so‘z va jumlar shu hududga tegishlilik belgisini paremalar orqali mujassam etadi. čanqāvuz čalma yey jari:m, boldi meni:ñ bolaori:m – tinglovchiga murojaat va o‘ziga xos undalma tipidagi maqolda yaramni yangilama, yaramga tuz sepma mazmuni, shuningdek,

<sup>26</sup> Ислом энциклопедияси. Зухриддин Хусниддинов тахрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 206.

tavbasiga tayanmoq kabi ma'nolar anglanishidan tashqari ikkilangan ma'noga ega. Bunda maqol tarkibida kelgan čanqāvuz – qadimiy milliy cholg'u asbobi lingvomadaniy predmetli-ma'naviy kod yadrosi vazifasini o'taydi. men ni:mä di:jmän, qobī:zi:m ne di:jdi paremasidagi “qo‘biz” predmetli kodi va shu maqolga variantdosh sifatida men nima deyman-u do‘mbiram nima der, shuningdek, do‘mbira kalla Bblaridagi do‘mbira predmetli kod vazifasini o'tashi bilan bir qatorda, vazifa semasiga ko'ra inson aqliy yetilganlik darajasini ifodalovchi mezon hamdir.

Burnimda tillo letiba, oyog'im muzlarga qotiba (Malika Mardayeva – Qiz. “Yangikent” mahallasi) – paremasida kelgan leti:bä – burunga taqiladigan isirg'a (Janubiy Surxondaryo aholisi nutqida so'z oldidan tovush orttirib talaffuz qilish ko'p uchraydi. Ta'kid bizniki – M.X.) bo'lib, predmetli kodni ifodalamoqda. Bu Pbnning ma'nosi adabiy tilimizdagi ko'rpaga qarab oyoq uzatmoq iborasiga teng keladi. Shu kabi, predmetli kod aks etgan quyidagi misolda ham aslida ma'naviy kodning qaror topganligi kuzatiladi: aqlli adām azmājdi, ži:γali ki:ji:m tozmājdi–paremasidagi ji:γa – kiyim (ko'ylak, chakmon, jelak, chipkan va boshqalar)ning yoqasi demakdir. Ushbu maqolning ikkinchi qismi birinchi qism uchun o'xshatish asosi vazifasini o'tagan.

Janubiy Surxondaryoning Qiziriq, Angor, Termiz shahri(tumani) va Jarqo'rg'on tumanlaridagi turli urug' vakillari nutqiga xos paremalardagi lingvomadaniy kodlarga etalon leksemalar aholi mental xususiyatlariga ochqich vazifasini bajaradi. Biroq mazkur urug'lar tili areal farqliklarga ega bo'lsa-da, ayrim lingvomadaniy kodlar aholi mental qarashlaridagi umumiylikka ishora qiladi, bu esa paremiologik fondning milliy lisoniy manzaradagi umumiy va xususiy belgilarini aniqlashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. монография. – Тошкент: Фан. – Б. 9-10.
2. Худойбергано́ва Д. Лингвокультуро́логия терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Туронзамин зиё, 2015. – Б. 29.
3. Красних В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание. Коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – С.16.
4. Краснобаева Ж.В. Пространственный код культуры ценностной картины мира (на материале русской, украинской, английской и немецкой фразеологии) // Сибирский филологический журнал. – 2018. – №4. – С.169.

5. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского//Метафизика. – М., 2016. –№4. – С. 83.
6. Худойберганаева Д. Тил. Маданият. Тафаккур. илмий рисола. – Тошкент: Нодирабегим. – Б. 32.
7. Ислом энциклопедияси. Зухриддин Хусниддинов тахрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 206.
8. Турсунов С., Пардаев Т., Махмадиёрова Н. Сурхондарё – этнографик макон. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 128.
9. Ишаев А. Ўзбек шевалари лексикасидан материаллар тўплаш учун сўроқлик. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 208.

### **ЁШЛАРНИНГ ДУНЁҚАРАШИ ВА ХУЛҚ-АТВОРИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР**

*Баходиров Азизбек Аваз ўғли*

*Тошкент давлат педагогика университети магистранти*

*+99896 076-77-67*

*azizkhan.bakhadirov@gmail.com*

**Аннотация.** Ушбу мақолада ёшларни дунёқараши ва хулқ атворига таъсир этувчи омиллар сирасига глобллашув шароитида ахборот хуружлари, турли салбий таъсир қилувчи ижтимоий тармоқлар, ён атрофидаги “салбий” дўстлар, ота-онанинг фарзандга салбий таъсир доираси, “оилавий муҳит”, “оилавий ажримлар” кабиларнинг ёшлар дунёқараши ва хулқ-атворига таъсири ҳақида фикрлар билдириб ўтилган.

**Таянч сўз ва тушунчалар:** ёшлар, интернет, ахборот хуружи, ахборот босими, оила, маҳалла, жамият, таълим, маърифат, маданият, шакллантириш, ҳимоя, бузғунчи таҳдидлар, дунёқараш, хулқ-атвор, психология.

Шарқ мамлакатларида оилага жуда катта эътибор қаратилган. Оилада авалло шахс деб аталмиш ижтимоий мавжуддот бўлган фарзанднинг дунёга келиши, фарзанд тарбияси, фарзанднинг келакжақда комил инсон бўлиб вояга етишда бот-бот “оила”га бориб мавзулар тақалмоқда. Жамият шу тариқа барпо бўлади, ривож топади, ижтимоий тараққиёт вужудга келади. “Бола туғилган кунидан бошлаб оила муҳитида яшайди. Оилага хос анъаналар, қадриятлар, урф-одатлар бола зуваласини шакллантиради. Энг муҳими, фарзандлар оилавий ҳаёт мактаби орқали жамият талабларини англайди, ҳис этади<sup>27</sup>” Шунингдек, Ислом диннинг муқаддас манбааси бўлган Қуръони Каримда ҳам “оила”, “фарзанд”, “тарбия” сўзларининг

<sup>27</sup> Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ 1998, 4-б.

мазмун-моҳиятига алоҳида урғу берилган бўлиб, жумладан “Эр ўзлари ва оиласига тааллуқли барча нарсалар тўғрисида доимо хотини билан бамаслаҳат иш қилиши лозим, чунки улар сўзсиз равишда тенг шерикдирлар (3-сура, 159-оят)”<sup>28</sup>. “Аллоҳ сизларни оналарингиз қорнидан бирон нарса билмаган ҳолингизда чиқарди ва шукур қилишингиз учун сизларга кулоқ, кўзлар ва дилларни берди (16-сура, 78-оят)”<sup>29</sup>. “Эркаклар хотинлари устида раҳбардурлар. Бунга сабаб Аллоҳ уларнинг бировларини бировларидан (яъни, эркакларни аёллардан) ортиқ қилгани ва эркаклар (хотинлари ва оилалари учун) ўз мол-мулкларидан сарфхаражат қилганларидир. Бас, ибодат-итоатли ва эрлари йўқлигида Аллоҳнинг ҳифзу ҳимояти билан (эрларининг мол-мулкларини ва ўз ифбатларини) сақловчи хотинлар яхши хотинлардир<sup>30</sup>”. Дарҳақиқат аёл зотига берилган таъриф ўлароқ оиланинг боши, раҳбар деб эркак киши назарда тутилишида ҳам ўзаро боғлиқлик мавжуд бўлиб, оиладаги барча моддийнинг келиб чиқишини олдини олиш, фарзандларининг тарбияси билан шуғулланиши, аёл киши эса фарзандларининг таълимига кучли эътибор қаратиш, кийим бошини озода сақлашда шарқ мамлакатларида аёлни ўрни катта. Оиладаги ижтимоий носоғлом муҳит орқали фарзанд ё жамиятда “фойдали” ёки “фойдасиз” инсон бўлиб вояга етиши табиий ҳолатдир. Кўплаб тадқиқотлар шуни кўрсатадики жамиятдаги кўплаб “носоғлом” оилаларнинг яъни “ота”сиз ёки “она”сиз вояга етиши, ёхуд отанинг “моддий” билан узлуксиз таъминлаш оқибатида фарзанд дунёқарашига салбий таъсир ўтказади. Бу ҳолат эса бора бора фарзанднинг хулқ-атворида салбий таъсир ўтказиб, кибр-ҳаволи, манмасираган, бошқаларнинг ўзидан паст санаш каби иллатлар ёш авлоднинг келажагига “болта” урмоқда.

Таниқли АҚШ психологи Г.Оллпортнинг фикрича, шахс “ички тизим”, “динамик қурилма”, “Мен”, “қандайдир метапсихологик Мен” ўзида олдиндан мақсад ва диспозицияни акс эттирувчи, инсон тафаккури ва хулқ-атворида мутаносиб равишда қарор топтирувчи жонзотдир”. Худди шу боисдан шахснинг синфий-тарихий жиҳатдан яққол баҳоланиши очилмай қолади, ижтимоий таҳлил ўрнини психологик талқин эгаллайди”, дейди.<sup>31</sup> Дарҳақиқат ёшларда “Мен” тушунчаси нотўғри шаклланиши оқибатида эса хулқ-атворида салбий таъсир кўрсатади. Ёшлар дунёқарашини эса ҳар бир мамлакатнинг эртанги ҳал қилувчи кучи бўлиб шаклланади.

<sup>28</sup> Қуръони карим. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т.: «Чўлпон». 49-б.

<sup>29</sup> Шу нашр. «Нахл» сураси, 190-б

<sup>30</sup> «Нисо» сураси, 34-оят, 59-б.

<sup>31</sup> Ш.Баратова ва бошқалар / Психология назарияси ва тарихи / 2019 й. 121-б.

Жаҳон ахборот тармоғига кираётган ёшлар сони соат сайин ортмоқда. Масалан, Ўзбекистонда интернетдан фойдаланувчилар сони 2008 йилда 2 миллион бўлса, 2015 йилда 10,2 миллиондан<sup>32</sup>, 2020 йилда эса 22,5 миллиондан<sup>33</sup> ошгани, уларнинг аксарияти ёшлар эканини алоҳида қайд этиш лозим. Асосий масала интернетдан ким қандай фойдаланишида. Ҳозир ёш бола ҳам компьютерни бемалол ишлата олади. Бир қарашда, бунинг ёмон жойи йўқдай. Аммо ҳаддан ошилса, назорат бўшашса, оқибати аянчли бўлади.

Айниқса, глобал тармоққа қўл телефони орқали кириш имконияти пайдо бўлгандан кейин кўпчилик унинг асирига айланмоқда. Ҳозир кўп инсонлар, айниқса ёшлар уйида ҳам, йўлда ҳам ва ҳатто иш ва ўқишда ҳам бутун фикри зикрини телефонга қаратган. Бу ҳозирги кунда инсониятга хавф солаётган глобал муаммога айланди. Халқаро муносабатларда “ахборот уруши”, “ахборот хуружи”, “ахборот босими” каби хатти-ҳаракатлар кучаяётгани сабабли, ёшларни бундай таҳдидлардан ҳимоялаш бўйича аниқ мақсадли ишлар қилишни даврнинг ўзи талаб этмоқда.

Инсон кундалик ҳаётида турли нарсалардан фойдаланади. Инсон уларни истеъмол қилар экан ҳар гал муайян тартиб-қоидалар, содда қилиб айтганда, маданиятга риоя қилади. Айтайлик, кийим-бош кийиш ёки озиқ-овқат истеъмол қилишнинг ўзига хос маданияти бор. Бугунги кунда ахборот ҳам истеъмол қилинадиган товарга айланган экан, ҳар бир инсон ёки алоҳида олинган жамият ўзида уни истеъмол қилиш маданиятини тарбиялаши лозим.

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш жоизки, фан-техника ривожланиши ахборот технологияларининг беқиёс даражада тараққий этишини тезлаштириб юборди. Ҳаётга шиддат билан кириб келган глобаллашув ўз ортидан баъзи салбий оқибатларни келтириб чиқармоқда. Мураккаб бир даврда “ахборот хуружи” ўзининг салбий оқибатларини намоён этмоқда. Бугунги глобаллашув даврида ёшлар маънавиятини асраш, ёш авлоднинг қалби ва онгини турли зарарли ғоялар таъсиридан сақлаш ҳамда мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш долзарб вазифадир. Албатта, ёшларни бузғунчи ғоялар таъсирига олишни истайдиган кучлар жуда кўп. Афсуски, хорижда бундай ҳаракатларни молиялаштираётган, “чироғига мой қуяётган”лар ҳам оз эмас. Шу боис ёшларни ёмон кўзлардан асраш, уларнинг бузук ғоялар билан заҳарланишини олдини олиш доимий эътиборда бўлиш лозим. Буюк маърифатпарварлар бўлган Жалолиддин Румий ҳазратлари “..кумушнинг ташқи кўриниши оппоқ

<sup>32</sup> Мухаммад Амин Яхё // Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя // Тошкент / Мовароуннахр нашриёт // 2016 й. / 5-б.

<sup>33</sup> <https://mitc.uz/uz/stat/4>

бўлса ҳам, кўлда ва чўнтакда кўп ушланса, қора юқтиради. Шунга ўхшаш баъзи одамларнинг сўзлари зохирида кумуш каби порлоқ ва тоза кўринса ҳам, лекин қайғу ва зарар келтиради” деган эдилар. Ҳар бир ахборотни ажрата олиш эса фақат илму-маърифат билан ҳосил бўлади. Шундай экан, интернетдан эзгулик, илм-фан, тараққиёт йўлида фойдалансак, мақсадга мувофиқ бўлади. Ёшлар – ҳал қилувчи куч ва она Ватан келажаги эканини, аввало, ўзлари юракларидан ҳис қилиб, илм-маърифат олишлари керак. Ҳар бир фарзанд эътиқоди софлиги учун ақл-идроқини ишлатиши зарур. Бунинг учун ёшлар оқни қорадан, ҳидоятни залолатдан ажрата олиши лозим.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарк 1998, 4-б.
2. Куръони карим. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т.: «Чўлпон». 49-б. “Наҳл” сураси, 190-б “Нисо” сураси, 34-оят, 59-б.
3. Ш.Баратова ва бошқалар / Психология назарияси ва тарихи / 2019 й. 121-б.
4. Муҳаммад Амин Яҳё // Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя // Тошкент / Мовароуннаҳр нашриёт // 2016 й. / 5-б.
5. <https://mitc.uz/uz/stat/4>

## TURIZM VA SPORT TURIZMI TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHİYATI

*G'ofurov Azizbek Umarjonovich*

*Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada turizm va sport turizmi tushunchalarining mazmun-mohiyati pedagogik zarurati, bugungi kunda turizm faoliyati har bir mamlakat uchun muhim ijtimoiy sohaga aylanganligi, sport turizm sohasining individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o'rganilib rivojlantirish to'g'risidagi fikr mulohazalar yoritib berilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** jismoniy tarbiya, yangi taraqqiyot, sport turizm, innovasion g'oyalar, jismoniy madaniyat, Yevropa mamlakatlarida, barkamol inson, ta'lim standartlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy-metodik.

Turizm orqali estetik tarbiyalashning omillaridan biri ekoaxloqiy va ekoestetik faoliyatdir.[4] Bugungi kunda inson tabiatga va jamiyatga bo'lgan munosabatidan biri turizm faoliyati bo'lib, zamonaviy estetik tarbiya faoliyatini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Bulardan biri ekoaxloqiy muammolardir. Falsafiy fanlar sohasida estetikaning asosiy masalalarini o'rganishga qaratilgan

san'at va badiiy-estetik faoliyat, san'at turlari xususiyati, badiiylik muammolari, san'at taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari, birinchidan, san'atning ijtimoiy mohiyati, san'atning ichki taraqqiyot qonunlari, san'atning estetik tarbiya vositasi sifatidagi xususiyatlari hisoblansa, turizmning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan estetik jihatlari: ko'rish, eshitish, ta'm bilish orqali badiiy voqe'liklardan uzoqlashib real voqealarga asoslangan, ijtimoiy-madaniy munosabatlar orqali borliqni anglashdir. Estetik idrok turizmning ayrim turlari jumladan, gastronomik, etnik, ziyorat, ekoturizm kabilarning asosini tashkil etadi.

Umuman olganda, shaxsni estetik jihatdan tarbiyalash murakkab va serqirra jarayon hisoblanib, insonning tafakkuri, dunyoqarashi bilan bog'liq jarayondir. Bu jarayonlarda estetika amaliy jihatdan o'zini turizm madaniyati orqali ham namoyon etishi mumkin. Inson tabiatga sayohat qilishi natijasida go'zallikdan, ulug'vorlikdan bahramand bo'lishi bilan birga, uni nafosatli tarzda o'zlashtiradi. Turizm kishilarda insoniyat tomonidan bunyod etilgan ijob namunalarini nafaqat faol o'zlashtirish, balki ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtiradi. Kishilarda tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga estetik munosabatda bo'lish madaniyatini rivojlantirib, tarixiy ma'naviy merosimizga ulug'vorlik hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli turizm moddiy hamda ma'naviy go'zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Turizm faoliyatini baholashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularni ma'lum turdagi turizm uchun funksional muvofiqlikni hisobga olgan holdagi texnologik baho, farovonlik darajasini ko'rsatuvchi ijtimoiy-madaniy, estetik tarbiya ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

Turizmning estetik tarbiya xususiyatlari ma'lum ma'noda uning asosiy vazifalarini ham belgilab beradi. Ushbu vazifalar quyidagilardir:

Forig'lantirish - turizmning asosiy vazifasi. Sayohat inson qalbini poklaydigan ma'naviy jarayon vazifasini o'taydi. Safar jarayoni insondan yomon axloqdan voz kechib xushfe'llik fazilatlarini shakllantiradi.

Tarbiyaviylik vazifasi. Tarbiyachi sifatida turizm inson hissiyotlariga ta'sir qiladi, estetik kechinmalar uyg'otadi va shu orqali ezgulikdan yovuzlikni farqlay bilish ko'nikmasini shakllantiradi. Turizmning tarbiyaviy yo'nalishdagi vazifasi - shundan iboratki, inson sayohat natijasida tajriba ortiradi turli fanlarga oid bilimlarni egallaydi turli qiyinchiliklarni bartaraf etib, hayotga optimistik munosabatda bo'ladi. Mamlakatini sog'inish natijasida insonda vatanparvarlik tuyg'usi yuksaladi. Boshqa xalqlar an'analariga xurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganadi. Turizm insonning dunyoqarashini o'sishiga, ma'naviy yetuklikka erishishda ahamiyati katta.

Huzurbaxshlik - turizmning ijtimoiy vazifasi. Turizmni estetik ehtiyoj ekanligini alohida aytish mumkin. Huzurbaxshlik vazifasi turizmning g'oyaviy-badiiy yaxlitligini ta'minlaydi, uni ajdodlardan avlodlarga asrab yetkazadi.

Ijtimoiy tadqiqotlarga ko'ra, har bir talaba o'ziga ma'qul bo'lgan davlatni yurtdoshlariga maqtaydi, keyingi yilda o'zi qaytib tashrif buyurishi hamda uning sharofati bilan boshqalar ham kelishi mumkin. Bundan tashqari, 18-24 yoshdagilarning ko'pchiligi sanatga qiziqadi. Demak ular uchun muzeylar, ko'rgazmalar katta qiziqish uyg'otar ekan. Bu orqali talabalarni turistik faolyatga yo'naltirish oson bo'ladi.

O'zbekistonda bu turdagi turizmni yo'lga qo'yish uchun barcha chet davlatlar ta'lim dargohlari, korxonalari bilan shartnomalar tuzilib, qiziqarli turlar tashkil etib sayyohlarni jalb qilish mumkin. Bunda talabalar imkoni bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar boshqa davlatga sayohat qilishadi va u yerda ta'lim olishadi.

Turizmning sport mahorati tabiiy to'siqlarni engib o'tish, to'siqlarni engib o'tishning turli taktikasi va usullarini qo'llashdan iborat.[8] Sport turizmi, birinchi navbatda, sport sayohatlari-bu o'zaro yordam va o'zaro yordam, sport intizomi, o'zini takomillashtirish va bilim va tajribani o'zaro o'tkazish an'analari kuchli bo'lgan jamoaviy sport turi hisoblanadi. Sport turizmiga bo'lgan ishtiyoq sizga turli mamlakatlar va xalqlarning madaniyati va hayoti, tabiatning ajoyib va ko'pincha hatto noyob burchaklari, qiziqarli diqqatga sazovor joylari bilan tanishish, muloqot qilishdan zavqlanish va ishonchli o'rtoqlar topish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти бош котиби Талеб Рифаининг ЮНВТО Ижроия Кенгаши 99-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқим//“Туркистон” газетаси.
2. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Тошкент, 2008 йил. –Б. 222-223
1. Мирзарахимов Б.Х. Турзмнинг гносеологик вазифалари ва уларнинг фалсафий таҳлили // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2020. № 1. – Б. 121-130.
2. UNWTO – WYSE 2011, The Power of Youth Travel, Volume 2 Available [http://florianopoliscvb.com.br/MyFiles/amreports\\_vol2\\_thepowerofyouthtourism\\_eng\\_lw.pdf](http://florianopoliscvb.com.br/MyFiles/amreports_vol2_thepowerofyouthtourism_eng_lw.pdf) Accessed: 11-02-2014.

**BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA  
TAYYORLASHNING DIDAKTIK ASPEKTLARI**

*Kadirova Shoista Abduvasit qizi*  
*Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak biologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentsiyaga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish muammosining didaktik va uslubiy aspektlari aspektlar yoritilgan. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga yo'naltirishda kompetentsiyaga yo'naltirilgan texnologiyalar va topshiriqlardan foydalanishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentsiyaga yo'naltirilgan texnologiyalar, tamoyillar, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash, kompetentsiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar.

**Аннотация.** В статье освещены дидактические и методические аспекты проблемы использования компетентностно-ориентированных технологий при подготовке будущих биологов к профессиональной деятельности. Разработаны практические рекомендации по использованию компетентностно-ориентированных технологий и задач при ориентации будущих специалистов к профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** компетентностно-ориентированная технология, принципы, подготовка будущих специалистов, компетентностно-ориентированные задание.

**Annotation.** The article highlights the didactic and methodological aspects of the problem of using competence-oriented technologies in the preparation of future biologists for professional activities. Practical recommendations have been developed on the use of competence-oriented technologies and tasks in the orientation of future specialists to professional activities.

**Key words:** competence-oriented technology, principles, training of future specialists, competence-oriented task.

Respublikamiz ta'lim tizimida bilish paradigmasidan kompetentli yondashuv paradigmasiga o'tish, fan - ta'lim - ishlab chiqarish integratsiyasi asosida oliy malakali pedagog kadrlar tayyorlash, kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish sohasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda kompetentli yo'naltirilgan ta'limga o'tish ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kompetentli mutaxassislarning malaka modelini takomillashtirish, o'qitish tizimining barcha komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan kompetentli yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va bo'lajak biolog-mutaxassislarning metodik tayyorgarligini zamonaviy talablarga

moslashtirish maqsadida “biologiya yo‘nalishlarida samarali o‘quv jarayonini tashkil etish”<sup>34</sup> dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Respublikamizda bo‘lajak mutaxassis-kadrlar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga oid nazariy, metodik tadqiqotlar: Yu.M.Asadov, N.A.Muslimov, B.Z.To‘raev, T.T.Shaymardonov, I.A.Eshmamatovlar; talabalarni kasbiy-metodik tayyorlash muammolari: S.S.Babadjonov, I.M.Rasulov, Sh.R.Urakov, D.O.Himmataliyevlar; biologiya o‘qitish metodikasini rivojlantirish, biologiya o‘qituvchilarini kasbiy hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari: J.O.Tolipova, O.Mavlonov, G.S.Ergasheva, A.Raximov, I.Azimov, M.N.Ibodova, N.J.Toshmanov, S.Najimova, Sh.B.Xasanovalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan;

Hamdo‘stlik mamlakatlarida ta’lim muhitini takomillashtirish, o‘qituvchilar kasbiy, pedagogik faoliyati xususiyatlari: S.L.Atanasyan, L.G.Axmetov, N.V.Basalaeva, G.A.Berulova, V.P.Bespalko, Bondarevskaya, Ye.I.Bulin-Sokolova, L.V.Vedernikova, Vershinskaya, T.A.Zagrivnaya, Ye.V.Kagankevich, Ye.B.Petrova, T.V.Pushkareva, A.A.Starseva, I.V.Robert, V.A.Fedorov, M.V.Shingarevalar; biologiya o‘qitish metodikasini takomillashtirish, bo‘lajak biologiya mutaxassisilarning metodik tayyorgarligini orttirish masalalari: N.G.Bobrova, T.V.Golikova, M.N.Mirnova, L.N.Orlova, L.V.Pivovarova, N.Z.Smirnova, O.V.Berejnaya, L.N.Suxorukova, T.V.Syasin, Ye.V.Titov, V.S.Shagan va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy davlatlarda biologiya ta’limi jarayoniga axborot ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, kompetensiyaviy yondashuv asosida

<sup>34</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020 y., 07/20/4805/1174-son.

takomillashtirish, metodik tayyorgarlikni orttirish sohasida N.V.Gorbunova va E.V.Mokeeva, A.V.Dubakov, I.O.Igropulo, A.A.Lyubotinskiy, A.N.Pechnikov, A.V.Prenzov, O.A.Plaksina va T.A.Matveeva, M.K.Smith, A. Sorgo, K.Steffens, J.H Hageman va boshqalar tadqiqot olib borgan.

Mazkur tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish muammosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, kompetentli ta'lim paradigmasiga muvofiq bo'lajak mutaxassislarni kompetentli–yo'naltirilgan texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqotimizning maqsadi: bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentli –yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak biolog-mutaxassislarda kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirishda kompetentli - yo'naltirilgan o'quv jarayonining tashkiliy-didaktik aspektlari ta'lim oluvchilarda shaxsiy, metapredmetli, fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan asoslangan;

bo'lajak biolog-mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentli –yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkillashtirish maqsadli mazmunli, tashkiliy-boshqaruv komponentlarining integrativ modeli kompetentli - yo'naltirilgan texnologiyalarni fan mazmuniga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

kompetentli – yo'naltirilgan texnologiyalar asosida biolog-mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlanganlik darajasining mezonli-diagnostik apparati va diagnostikalash metodikasi ishlab chiqilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyasini yaratishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va ularning samaradorlik darajasi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biologiyadan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentli yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish metodikasining pedagogik-psixologik, metodik jihatlari zamonaviy yondashuvlarini maqsadi, mazmuni, tashkiliy tasnifiga muvofiq holda ilmiy asoslanganligi; kompetentli - yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkillashtirishning maqsadli mazmunli, tashkiliy-boshqaruv komponentlarining integrativ modeli ishlab chiqilganligi; kompetentli - yo'naltirilgan texnologiyalarni fan mazmuniga integratsiyalash orqali kasbiy tayyorgarlikning rivojlanganligi diagnostikasi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak biolog-mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentli yo'naltirilgan o'quv amaliy

imkoniyatlarini aniqlashtirilganligi, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda kompetentli - yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanishning metodik ta'minoti ishlab chiqilganligi va samaradorligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tavsiyalar:

1. "Biligiyaning konseptual asoslari" fani dasturi, monografiya, o'quv qo'llanmalar mazmunida talabalarni egallagan bilimlarini aniq hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishga o'rgatuvchi manbalardan kengroq foydalanish.

2. Tabiiy hodisa va biologik jarayonlarni ilmiy izohlashga o'rgatuvchi kompetensiyaviy-yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarni bajarish yo'llari, sxema model, animatsiyalarini ishlab chiqish va ta'lim tizimiga joriy qilish.

3. Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish maqsadida yaratilgan yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, shuningdek, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kompetensiyaviy-yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish bo'yicha variativ dasturlar ishlab chiqish.

4. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kompetentligini rivojlantirishning elektron dasturlari va veb saytlar yaratish.

5. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kompetensiyaviy- yonaltirilgan topshiriqlardan foydalanishga qaratilgan darajali topshiriqlar tayyorlash metodikasini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq.

#### **Foydalanilgan aadabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020 y., 07/20/4805/1174-son.
2. Берестнева О. Г. Компетентностно-ориентированное образование: от технологии обучения к технологии развития человека / О. Г. Берестнева, Л. И. Иванкина, О. М. Марухина // Известия Томского политехнического университета. 2011. Т. 319. № 6. С. 172–176
3. Вахтина Е.А., Артюхина А.И. Компетентностно ориетированные задания в самостоятельной работе студентов-медиков. Электронный научно-образовательный журнал ВГСПУ «Грани познания». № 3 (30). 2014. URL: <http://grani.vspu.ru/jurnal/35>

## MUNDARIJA

<b>Буранова Н.Ш.</b> Психолого-педагогические аспекты организации исследовательской деятельности учащихся 6-8 классов.....	3
<b>Хасанов С.С.</b> Dorema microcarpum korov. (ariaceae) ontogenezi.....	6
<b>Зиявитдинов Ҳ.Ҳ.</b> Замонавий ҳўжалик юритиш шароитида ресторан хизматлари сифатини оширишнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти.....	10
<b>Xolmatov D.A.</b> Shoyim Bo'tayev hikoyalarida davr va qahramon masalasi .....	13
<b>Каримова Н.Х.</b> Бўлажак педагогни касбий-педагогик тайёрлаш муаммолари.....	16
<b>N.Abidova, N.Raximova</b> Intellektida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida geometrik tushunchalarni shakllantirishning korreksion-pedagogik texnologiyasi .....	18
<b>Ochilova F.B.</b> Avlodlararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	21
<b>Abdullayeva M.S.</b> Oliy ta'lim tizimida o'quv loyihalaridan foydalanish .....	23
<b>Abdullayev N.Q.</b> Zamonaviy axborot telekommunikatsion sistemalaridan oliy ta'lim tizimida foydalanish.....	26
<b>Abdullayev N.Q.</b> Zamonaviy axborot telekommunikatsion sistemalaridan oliy ta'lim tizimida foydalanishning ahamiyati .....	28
<b>Шамсиддинов С.С.</b> Конспирология - фитнес назарияларининг ижтимоий-психологик таҳлили.....	32
<b>Gadoyboeva G.Sh., Yusupova S.E.</b> Development of oral communication skills in english classes .....	37
<b>Yigitaliyeva Sh.I.</b> Konsept – lingvomadaniy birlik sifatida .....	40
<b>H.Q.Sarsenbaeva</b> Innovacion texnologiyalarni ta'limda keng joriy etish masalalari.....	44
<b>Bekmanova S.</b> Pragmatic reference .....	45
<b>Ergasheva M.R.</b> Hammualliflikda yaratilgan seleksiya yutug'ining huquqiy muhofazasi.....	48
<b>Миразова Шохиста Даврон</b> Кибержиноятларнинг моҳияти ва белгилари.....	51
<b>Имамалиев Д.М.</b> Исследование аудита безопасности дорожного движения .....	54
<b>Abdullayeva D.N.</b> O'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini qaror toptirishning psixologik xususiyatlari. ....	63
<b>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</b> Bo'lg'usi o'qituvchilarda o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish samaradorligi.....	66
<b>Nazarova Sh.Sh.</b> Umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilariga informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning innovatsion yondashuvlari .....	70
<b>Курбанов Р.Б.</b> Участие адвоката в гражданском судопроизводстве касающихся прав и интересов детей.....	73
<b>Atabayeva M.R.</b> Geografiya ta'limida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda klaster metodining qulayliklari ("O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kursi misolida) .....	76
<b>Turobova M.</b> Talabalarning gapirish malakasini baholashda nazorat tamoyillari .....	79
<b>Mirzaolimov B.</b> Kiber jinoyatchilik global miqyosda tez ribojlanayotgan jinoyat shakli sifatida.....	82
<b>Badelbayeva Y.O.</b> Til o'qitish kontekstida talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	89
<b>Majidova N.D.</b> An'anaviy va kredit-modul tizimi xorijiy til ta'limining konseptual asoslari .....	92
<b>Mukhammatkulov Sh.E.</b> Description and specific aspects of crimes related to information technologies .....	95
<b>Мирзаева Х.Н.</b> Халқ таълими ходимларининг коммуникатив компетенцияларини такомиллаштириш моҳияти .....	98
<b>Комилов А.А</b> Рақамли иқтисодиёт ривожланишида транспорт тизимининг аҳамияти .....	101
<b>Raimov X.S.</b> "Xotin-qizlar sporti" ta'lim yo'nalishidagi talaba-qizlarni kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	106

<b>Sharipov B.F.</b> XX asrdan keyingi xitoy va vyetnam davlatlari o'rtasidagi zamonaviy aloqalar .....	109
<b>Жураев Р.Д.</b> Мигрень у взрослых .....	112
<b>Olimov K.</b> Angkor wat: a jewel of ancient architecture and cultural heritage.....	115
<b>Хусайнов Ж.Б.</b> Минтақа туризми салоҳияти омиллари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари .....	117
<b>Umarov F.D.</b> Kiber jinoyatlar va ularni tergov qilishning samarali usullari.....	121
<b>Umarov F.D.</b> Kiber jinoyatlarni aniqlash usullari va vositalari.....	124
<b>Исмоилова А.А.</b> Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик маданиятни ривожлантириш ижтимоий-педагогик зарурат сифатида.....	128
<b>Аминова М.С., Ахмедов Ш.Қ.</b> Чакана савдо тармоғини ривожлантиришнинг хорижий давлатлар тажрибалари .....	131
<b>Boshmanova D.M.</b> A glance at the history of the uzbek language .....	136
<b>Boshmanova D.M.</b> Linguistic basis of teaching the uzbek language.....	139
<b>Nizomova B.Y.</b> Abdulla Avloniy asarlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.....	143
<b>Raxmonov I.U., Xolixmatov B.B.</b> Влияние несимметрии топки на процесс плавки стали: анализ причин и последствий .....	145
<b>Каримова С.Ш.</b> Особенности течения шизофрении с метаболическим синдромом ....	149
<b>Каримова С.Ш.</b> Лечение патологического влечения к психоактивным веществам методом психотерапии .....	150
<b>Тилавов М.Т.</b> Тактика дифференцированной терапии когнитивных нарушений при деменции.....	151
<b>Тилавов М.Т.</b> Негативные расстройства и качество жизни при параноидной шизофрении .....	153
<b>Насриддинова Н.Х.</b> Сурхондарёда бадий ҳаваскорлик ансамбллари тарихидан .....	154
<b>Усубжонов З.В.</b> Қурилиш материаллари сифатини баҳолаш.....	159
<b>Ўринкулов О.Н.</b> Юридик адабиётлар корпоратив ахборот-кутубхона тармоғида интеллектуал қидириш моделлари, алгоритми ва дастурий таъминоти .....	162
<b>Xalikova M.X.</b> Lisoniy sathda sonning funksional xususiyatlari .....	168
<b>Akbarova M.Sh.</b> G`ayriodatiy birikmalarning badiiy-estetik vazifasi.....	171
<b>Xamidov M.</b> Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalari paremalarida lingvomadaniy kodning ifodalanishi.....	174
<b>Баходиров А.А.</b> Ёшларнинг дунёқараши ва ҳулқ-атвориға таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар .....	179
<b>G'ofurov A.U.</b> Turizm va sport turizmi tushunchalarining mazmun-mohiyati.....	182
<b>Kadirova Sh.A.</b> Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik aspektlari .....	185